*Asosiy qism:* Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday yangi jamiyat muayyan g'oyalarning mavjudligiga ehtiyoj sezadi. Milliy g'oya va milliy mafkura mavjud. G'oyalalar xususiyatlardan kelib jamiyat taraqiyotiga turlicha ta'sir etadi. Mavzu rejasidagi birinchi savol mazmunini ochib berishdan oldin o'qituvchi talabalar diqqatini milliy g'oyaning mazmun va mohiyati to'g'risida qo'shimcha ma'lumotga qaratishi o'rinnlidir. Chunki, milliy g'oyaning qisqacha tarifi bilan talabalar yana bir marotaba tanishib olishlari lozim bo'ladi. Milliy g'oya – millatning o'tishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shakli. Demak, milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lган, qisqa yoki uzoq muddatda hal etishi kerak bo'lган, vazifalari mo'ljalarni ham aks ettiradi [2]. Mustaqillikni mustahkamlashda milliy g'oyaga zaruriyatning oshib borishi sabablaridan yana biri g'oyaning xalq, millat ongida aks etishi bilan bog'liqidir. Milliy g'oyaning mazmun va mohiyatini anglamay turib, unga e'tiqod qo'ymay turib har bir fuqaroning jamiyatda faollik ko'rsatishi amri mahol. Shu bois, Yurtboshimizning qator asarlarida milliy g'oyani yaratish va uni odamlar ongiga singdirish masalasiga alohida e'tibor berilgan. "Oldimizda turgan eng muhim masala, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tadbiq etishdir. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim" – deydi Islom Karimov[3].

Xulosa :Xulsa qilib shuni aytamanki Vatanparvarlikni oshirish nafaqat maktab darslarida balki oiladan ham boshlanadi. Shunga o'z vatanini tarixini o'rganish va o'z farzandlariga o'rgatish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI «GUMANITAR FANLAR» KAFEDRASI milliy g’oya fanini o’qitishda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan foydalanish bo’yicha Metodik qo’llanma. TOSHKENT – 2010
2. TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI «GUMANITAR FANLAR» KAFEDRASI milliy g’oya fanini o’qitishda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlaridan foydalanish bo’yicha Metodik qo’llanma. TOSHKENT – 2010
3. ЮКСАКМАЊНАВИЯТ - ЕНГИЛ МАС КУЧ. Иккинчи нашри ТОШКЕНТ «МАЊНАВИЯТ» 2011.



## PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING RIVOJLANISH TARIXI

Sobirova Marjona Shavkat qizi  
Telefon raqam: +998-97-556-70-71

**Annotatsiya:** Pedagogik texnologiya — ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi. Maqolada pedagogik texnologiyalar va ularning rivojlanish tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, texnologiya, pedagogik texnologiya

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubhasiz, yangicha, ya’ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o‘quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo‘l olib berish uchun xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o‘z-o‘zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo‘ymoqda. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo‘lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo‘lsada, hanuzgacha o‘z dolzarbligini yo‘qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog‘liq ravishda yangidan-yangi yo‘nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo‘lishi, ular bo‘yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi o‘zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo‘lgan talabning ortishi sanaladi.[2]

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish –pedagogik texnologiyalarni maydonga olib chiqdi.

Pedagogik texnologiya — ta’lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo’llash, texnologik yondashuv asosida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o’rganadi.[2].

Pedagogik texnologiya:

1) oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va bir maromda tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzlusiz o‘zaro bog‘langan harakatlari tizimi;

2) ta’lim va tarbiya metodlarining u yoki bu to‘plamini qo’llash bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogning uzlusiz, o‘zaro shartlangan harakatlari tizimi;

3) pedagogning yutuqlariga kafolat beradigan aniq ishlab chiqilgan va qatiy ilm iy loyihalashtirilgan pedagogik harakat;

4) ta’lim shakllarini optimallashtirishga qaratilgan, texnika hamda inson omillari, uning o‘zaro hamkorligi asosida o‘qitish jarayoni va bilimlami egallash, yaratish, qo’llash hamda belgilashning tizimli metodi.[1]

“Pedagogika texnologiyalar” termini va unga xos bo‘lgan tadqiqotlar dastlab XX asrning 20 yillarida birinchi bor pedagogika bo‘yicha asarlarda tilga olingan. Shu vaqtning o‘zida yana bir boshqa – “pedagogik texnika” termini ham tarqaldi. U pedagogik entsiklopediyada 30 yillarda o‘quv mashg’ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga qaratilgan uslublar va vositalar sifatida ifodalangan. Bu tushuncha 1940 yillardan 50-yillar o‘rtasigacha “ta’lim texnologiyasi” deb qo’llanilib, o‘quv jarayonida audiovizual texnika vositalaridan foydalanishni ifoda qilgan.

60 - yillar o‘rtalarida bu tushunchaning mazmuni chet ellarda pedagogik nashrlarda va xalqaro konferensiyalarda keng muhokama etildi, natijada ushbu sohada turli mamlakatlarda (AQSH, Angliya, Yaponiya, Frantsiya, Italiya, Vengriya) uni talqin qilishning ikki yo‘nalishi belgilandi.

Birinchi yo‘nalish tarafдорлари texnik vositalar va dasturlashtirilgan o‘qitish vositalarini qo’llash zarurligini ta’kidladilar.

Ikkinci yo‘nalish tarafдорлари esa o‘quv jarayonini tashkil etish samaradorligini oshirish va pedagogik g’oyalarni texnikaning keskin rivojlanishidan ortda qolishini yo‘qotishni muhim deb hisobladilar. Shunday qilib, 1-yo‘nalish “o‘qitishda texnik vositalar” sifatida belgilandi, 2-yo‘nalish “o‘qitish texnologiyasi” yoki “o‘quv jarayoni texnologiyasi” sifatida belgilandi.

70 - yillarning boshlarida turli xildagi uskunalarini va o‘quv vositalarini modernizatsiyalashtirish



zarurligi anglab yetildi. Bularsiz o'qitishning sifatliligi va samaradorliliga erishib bo'lmas edi. Keyinchalik bu muammo bilan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va markazlar shug'ullana boshladi.

AQSHda 1971 yil – “Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar bo'yicha AQSH Assotsiatsiyasi ” tuzildi. Hozirgi kunda mamlakat bo'ylab va Kanadada bu kengashning 50 ta filiallari ish olib bormoqda. AQSHda 1961 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnalni (Educational Technology), 1971 yilda esa – “Audiovizual o'qitish” jurnalni nashr etila boshlandi.

Angliyada 1967 yil – Pedagogik texnologiya bo'yicha Milliy kengash, 1964 yildan boshlab “Pedagogik texnologiya va o'qitishni dasturlashtirish” jurnalini, 1971 yilda “Pedagogik texnologiya” jurnalini nashr eta boshladi.

Yaponiyada - Pedagogik texnologiyalar muammolari bilan 4 ta ilmiy tashkilotlar shug'ullanadi. 1967 yilda “Pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy kengash” tashkil etildi, uning filiallari 22 ta davlat universitetlarida joylashtirilgan. 1965 - yildan boshlab Yapon tilida har uch oyda “Pedagogik texnologiya” jurnalni va ingliz tilida yiliga ikki marta “Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqotlar” jurnalni nashr etildi. Yaqinda “Pedagogik texnologiyalar bo'yicha umumyapon Markaziy kengashi” tashkil etildi, u muammolar bo'yicha xalqaro aloqalar o'rnatish bilan ham shug'ullanadi.

Italiyada – 1971 yili pedagogik texnologiyalar bo'yicha Milliy markaz tashkil etildi va “Pedagogik texnologiyalar” jurnalni nashr etiladi..

Vengriyada – 1973 yili o'qitish texnologiyasi Davlat Markazi tashkil etildi.

O'qitish texnologiyasi bo'yicha Xalqaro seminarda (Budapesht, 1977) olim S.G.Shapovalenko o'qitish jarayonining uchta texnologik printsiplarini ko'rsatdi:

Bilim va texnikani mukammal egallash.

Audiovizual materiallari fondi bilan tanishish.

Ulardan samarali foydalanish metodikasini bilish, shu jumladan ijodiy yondashishi rivojlanishi ham.

Vengriya olimi L.Salai “o'qitish texnologiyasi” tushunchasiga rejalshtirish, maqsadlarni tahlil qilish, o'quv tarbiyaviy ishlar jarayonini ilmiy tashkil etish, samaradorligini oshirish maqsadida eng muhim vosita va materiallarni tanlashni kiritib o'qitish jarayonini tashkil etuvchilarni doirasini ancha kengaytirdi.

XX asrning 80-yillarida zamонавиy pedagogik jarayonni, pedagogik texnologiyaning mohiyatini yanada chuqurroq anglab yetishga urinishlar davom etdi.

Rossiya XX asrning 90- yillarida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi, “Maktab texnologiyasi”, “Ta'limga innovatsiyalar” jurnallari nashr etiladi.

O'zbekistonda 1997-yili “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilingandan boshlab ta'limga tizimida, pedagogik nashrlarda pedagogik texnologiyalar muammolari dolzarb tadqiqotchilik ob'ektlari sifatida ko'tarila boshlandi.

1999-yilda Respublika ta'limga Markazi qoshida pedagogik texnologiyalar bo'yicha Markaz tashkil etildi. “Ta'limga texnologiyalar”, “Ta'limga muammolari” kabi jurnallar nashr etila boshlandi, pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha maqolalar “Xalq ta'limi”, “Pedagogik ta'lim”, “Ta'limga tarbiya” jurnallarida, “Ma'rifat”, “O'qituvchilar gazetasi” va boshqa ilmiy-pedagogik nashrlarda bosilib chiqarilmoqda.

1994-yili pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha 1-Respublika ilmiy-nazariy konferensiysi o'tkazildi, ma'ruzalar va hisobotlar materiallari maxsus to'plamda chop etildi.

Pedagog olimlar U.Nishonaliev, N.S.Saidahmedov, N.N.Azizzodjaeva, Ziyomuhamedov, O.Tolipov, B.L.Faberman va boshqalar Respublikada pedagogik texnologiyalar muammolari bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

2000- yilda, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti qoshida pedagogika fanlari doktori, professor N.N.Azizzodjaeva rahbarligi ostida innovatsion texnologiyalar Markazi tashkil etildi, bu markaz zamонавиy pedagogik va innovatsion texnologiyalar muammolari bo'yicha pedagogik kadrlar malakasini oshirish bilan shug'ullanadi.

Shunday qilib, oliy maktabda mutaxassislamning kasbiy tayyorgarligi murakkab va doimiy harakatdagi tizimni tashkil etadi. Bu tizimda bo'lg'usi o'qituvchining texnologik tayyorgarligi alohida o'rin tutadi. U bo'lg'usi pedagogning intellektual rivojlanishi, faol o'qishi, ijodiy shaxsning rivojlanishi, tafakkuming kasbiy yo'nalganligini idrok qilish, o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishda tadqiqiy (ilmiy) tamoyillami amalga oshirish bilan bog'langan.

Pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish jarayonini, ya'ni zamонавиy pedagogik



texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab tashkillashtirish ta’lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang‘ich ta’lim umumiyligi o‘rtalimning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta’lim jarayonlarining o‘tilishida ham qulayli yaratgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, boshlang‘ich ta’limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta’limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o‘taydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N.N.Azizzxo‘jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” 2016
2. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 166-169.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## INGLIZ TILINI O’RGANISHDA ELEKTRON LUG‘ATLARNING AHAMIYATI

Xusainova Dilrabo Ibragimjonovna

Farg‘ona viloyati Yuridik texnikumi o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** maqolada elektron lug‘atlarning ingliz tilini o‘rganish haqida so‘z yuritiladi va ularning bir qancha qulay jihatlari sanab o‘tiladi.

**Kalit so‘zlari:** ingliz tili, elektron lug‘atlar, AKT, dastur.

Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlaring chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Ularning jahon tillarini o‘rganishlari uchun yurtimizda keng ko‘lamli imkoniyatlar yaratilgan. Xalqimizda bir naql bor, ya’ni qancha til bilsang, shuncha insonsan. Yuksakklikka intiluvchan va ishtiyoqi baland yoshlarmiz ushbu so‘zlarni ilm yo‘lida o‘zlariga shior qilgan holda berilgan shartshariotlardan unumli foydalanishmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o‘rganish yetakchi o‘rinda turadi. Buning bir qancha o‘ziga yarasha sabablari bor. Jumladan, yoshlarmiz ingliz tilini o‘rganish orqali dunyoga chiqishadi. Chunki ingliz tili dunyo bo‘ylab eng keng tarqalgan tillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, til o‘rganish barobarida jahon mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, ma’rifiy va madaniy ahvoli bilan tanishib chiqadilar.

XX asr oxiri hamda XXI asr boshlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga turli o‘zgarishlarni olib kirdi. Zamonaviy ta’limda AKT o‘quv jarayonini tashkil etish, o‘quv-metodik ta’minotni rivojlantirish, o‘qitishning obyekti va subyekti o‘rtasidagi ikki taraflama aloqani kuchaytirish, o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish va o‘zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat kasb eta boshladi.

Ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilar turli manbalardan foydalanishadi. Ayniqsa, lug‘atlar ularning til o‘rganishdagi yaqin hamrohlari bo‘la oladi. Malumki, o‘quvchi lug‘atdan foydalanishda o‘zi bilmagan ingliz tilidagi so‘zlarni o‘zbek tilidagi tarjimasi orqali anglab yetadi.

Hozirda yurtimizda ingliz tili ikkinchi til sifatida kirib kelmoqda va shu sababli lug‘at kitoblarining xilma-xilligi ham ortib bormoqda. Ular, asosan, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi: so‘zning o‘zbek tilidagi tarjimasi va izohli lug‘atlar. Bugungi o‘rganuvchilar ichida eng ko‘p elektron lug‘atlar samarali qo‘llaniladi. Elektron lug‘atlar kitob qilib chop etilgan lug‘atlardan ko‘ra foydalanish uchun qulayroq hisoblanadi. Misol qilib keltirish mumkinki, Cambridge English Dictionary dasturi ingliz tili o‘rganuvchilarini orasida juda mashhur. Bu dastur ingliz tilidagi so‘zlarining inglizcha izohi bilan tushuntirib beradi. Biz hozir uning xususiyatlarini nashr etilgan lug‘atlarniki bilan taqqoslasmiz. Siz biror inglizcha so‘zning izohini izlayapsiz, deylik, “drive” so‘zi. Buni nashr holdagi lug‘atdan bir daqqaq vaqt atrofida qidirib topishingiz mumkin. Cambridge English Dictionary dasturida esa bu bir necha soniya vaqtini oladi, xolos. Darturdan “qidiruv” buyrug‘ini tanlaysiz va “drive” so‘zini yozasiz. Natijada dastur oynasida qidirgan so‘zingizning izohi sodda so‘zlar bilan tushuntirilgan bo‘ladi: “a drive-is a person, who drives car”. Bundan tashqari ushbu dastur sizga izlagan so‘zingizning inglizcha hamda amerikacha talaffuzini audio holatda taqdim etadi va bu orqali ingliz tilidagi so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni o‘rganasiz.

Yana bir eng ko‘p qo‘llaniladigan elektron lug‘atlardan onlayn, ya’ni internet orqali foydalaniladigan lug‘atlarni keltirib o‘tish mumkin. Google tarjimon bular ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan onlayn lug‘at hisoblanadi. Ushbu tarjimon orqali faqatgina so‘zning emas, butun boshli matnni ham tarjima qilib beradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan elektron lug‘atlar boshqa mamlakatlar tomonidan yaratilgan. Bizning dasturchilarimiz ham zamon talablariga javob beradigan elektron lug‘at dasturlarini yaratishmoqda.

Bir narsani inkor etib bo‘lmaydiki, hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda axborot texnologiyalaridan, jumladan, internetdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida insonlarning ongi zaharlanmoqda va bu global muammoga aylanib ulgurgan. Ammo axborot texnologiyalaridan ijobjiy qarash bilan yondashib foydalansa ham bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yuqorida elektron lug‘atlarning ingliz tilini o‘rganish haqida so‘z yuritildi va ularning bir qancha qulay jihatlari sanab o‘tildi. Umaman olganda, elektron



lug‘atlardan foydalanish vaqtini tejaydi va kengroq bilim beruvchi qo‘llanma hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ahmadaliyev A.M., Qosimov A.X. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2006
2. Jalolov J. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T.: 1996
3. Xoshimov U. X va Ekubov I. Y. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi. –T.: 1995.



## THE EVALUATION SYSTEM IN THE HISTORICAL ASPECT

Dadakhonova Zulaykho Ma'murjon qizi

Teacher, Department Of "Foreign Languages In  
Natural Sciences", Faculty Of Foreign Languages,  
Fergana State University

**Abstract:** The article under discussion depicts the history of the evaluation system in Europe. The author of the article considers that evaluation activity of a teacher is one of the most pressing problems of pedagogical theory and practice, and measuring the quality of training and education of students is always of great interest to researchers. In order to understand the modern system of evaluation, it is necessary to study the historical path of its development.

**Key words:** evaluation, education, control, indispensable, learning achievements, students, assessment.

Controlling and evaluating the knowledge and skills of students are very ancient components of pedagogical technology. Emerged at the dawn of civilization, control and evaluation are indispensable satellites of education, accompanying its development.

It is difficult to establish when assessments and grades were first used in determining the learning achievements of students. Some scientists (G. Sensi, D. Dobbin, P. Dubois) say that the history of assessment goes back about four thousand years, others (V. Avanesov, V. Kadnevsky) believe that we can find examples of earlier use of tests and their assessment [5].

In primitive society there were certain tests for the young generation: to find edible plants, to hunt successfully, to keep fire, to protect from predators, etc., at that the marks were given by the harsh conditions of life: successful performance was rewarded with continuation of life, and not performed - with death. As society evolved, so did the tests and the evaluation of their results.

We know from extant sources that in Ancient Babylon, a school for scribes held final tests to determine calligraphic skills. In almost all countries of the ancient world there was a tradition to test those who wished to occupy certain positions of state officials. Such tests were conducted in ancient Sumer, Egypt, China and India. Naturally, initially the evaluation was reduced only to encouragement or punishment, without ranking the level of achievement of each probationer. In China, the system of testing aptitude and selecting personnel for state posts existed until the end of the 19th century. The emperor himself was also involved in this system, and once every three years he personally tested officials, during which calligraphic and communicative skills were evaluated.

A holistic system of control over various qualities of students was developed in ancient Greece. For example, at the school of Pythagoras in Croton, students were often put to the test; for example, they were asked to ponder the meaning of one of the Pythagorean symbols in complete solitude for 24 hours, then there was a public discussion. If the subject behaved unworthily in the public discussion (cried resentment, swore at other students, the school, and teachers), he was denied a stay at the school.

According to N. Abaev, in Chan Buddhism, the instructor demanded immediate answers from his students under pain of being pierced with a drawn onion, and the questions themselves were often paradoxical in nature [1].

In fact, until the sixteenth century, education throughout Europe was based on verbal encouragement of successful students and corporal punishment of underachievers, and corporal punishment was administered not only in the lower and secondary educational institutions, but also in many universities. D. Bertram's History of the Rod describes how Dr. Potter, a lecturer at Trinity College (England, 17th century), corporally punished a student, an adult male, who carried a sword on a sling.

The actual system of evaluating students' knowledge and skills with scores dates back to the Jesuit schools of the X-XVII centuries. The historian A. Medvedev writes that various rewards were introduced, given at solemn acts, a record on honorary plaques, and the same variety of punishments, consisting not only in overtime work, but also of a disgraceful nature: "donkey ears", "silly caps", put on the "stairs of hell", etc. All this for 'the greater glory of God' (the highest principle of Jesuit activity), and for the same purpose the Jesuits first introduced into their schools a system of marks by scores [4]. All pupils were classified into three grades, marked by numbers:



"1" - best, "2" - average, "3" - worst, hence originally the unit had the meaning of the highest mark (in a number of Western European countries because of this tradition a grading scale developed where "one" - means the highest indicator of success achieved, and respectively "five" - one of the lowest). In Jesuit schools, the transition from one grade to another marked the acquisition by students of a number of advantages and privileges. In Jesuit schools, the school year necessarily ended with examinations, but there were control activities throughout the school year, such as monthly written tests, the results of which put the worst in the last benches. The best became assistants to the teacher, they were obliged every day before the beginning of lessons to ask the five pupils assigned to them about the given lessons and to give them marks in a special notebook, and then in the lesson to report the results to the teacher, who checked the correctness of the marks by questioning. It is noteworthy that each pupil had an antipode that rejoiced at the failure of his classmate. He should always be ready to answer on his rival's behalf or to correct and clarify his answer in case of difficulty. If the opponent was defeated, the winner would sit on the defeated teacher's seat, closer to him, while the defeated teacher would go to the back benches.

In Germany the system developed by Johann - Bernard Basedow was popular in the eighteenth century. Johann - Bernard Basedow opened the educational institution "Philanthropinum" in 1774. Education, based on the fascination of "Emile" J.-J. Rousseau, was arranged on completely new principles: in the classes the pupils behaved as they wanted; teaching took place as much as possible in the open air, among nature; among the pupils a sense of comradeship was to reign. Philanthropium used a 12-point grading system. There were no punishments, and various refreshments were used to encourage the pupils. The appropriate amount of encouragement was determined by the number of dots, which were put up on a special board against the names of students for qualitatively fulfilled tasks and answers to questions. The number of points was limited to twelve [6].

Russian schools used a more complex system of evaluation, which could be comparable to the characteristics of the learner himself. For example, in 1737 very good results of learning characterized the pupil as "fair, reliable, good, honest, good, commendable"; average success had "mediocre, not thin" pupils; weak pupils were characterized as "hopeless, lazy" [2]. M.V. Lomonosov in his "Draft Regulations of Moscow Gymnasiums" (1753) suggested that the results of academic activities should be entered daily in special journals, using the following abbreviations: «в.и.» – все исполнил - performed everything; «н.у.» – не знал урока - did not know the lesson; «н.ч.у.» – не знал части урока - did not know the part of the lesson; «з.у.н.т.» – знал урок нетвердо - knew the lesson incompletely; «х.з.» – худа задача - bad task; «б.б.» – болен - sick;; «х» – отсутствовал в классе - was absent from class; «в.и.с.» – все исполнил с избытком - performed everything with abundance [3].

In the XIX<sup>th</sup> century in Europe there were two traditions of knowledge control. In one of them (conditionally called German) the emphasis was made on oral forms of examination, in the presence of the commission, which consisted of at least two people. The examination consisted of one (seldom two) comparatively long question, the answer to which was supposed to indicate the level of knowledge of the whole course. The other tradition (one might call it English) relied on a written form of control, during which subjects were given ten or twelve short questions from various topics.

In America the written form of knowledge control, introduced along the lines of the English one, had not only supporters, but also opponents. It is reported, for example, of the school inspector of Chicago, who in 1881 forbade the written test and obliged the transfer of pupils to the next grade not on the basis of tests, but solely on the opinions of teachers and headmasters. The opinion spread that no one could better assess the ability of a pupil than his teacher, and that therefore examinations and other forms of control made a mockery of common sense. Thus began a social movement against any kind of control in schools. This movement peaked in America in the late nineteenth century (1880s), after which the conditions for a benign attitude toward controlling knowledge began to emerge once again. The need for a public-state system of knowledge control was realized in the United States in 1885: the Board of Examiners began to operate in New York and in 1900 a committee for testing the knowledge of college entrants in the United States, which marked the beginning of a nationwide system of knowledge assessment in America [5].

Thus, our historical and theoretical analysis of the problem of formation of modern assessment We have conducted a historical and theoretical analysis of the problem of formation of the modern evaluation system. time-tested, measuring assessment scales.



**REFERENCES:**

1. Abaev NV. Chan Buddhism and the culture of mental activity in medieval China. Buryat Institute of Social Sciences, Siberian Branch of the USSR Academy of Sciences. Novosibirsk: Science, 1983. P.83.
2. Bertram D. The History of the Rod. P.326.
3. Lomonosov MV. About upbringing and education. Moscow, 1991. P.166.
4. Medvedev A. P. History of the Ancient World : textbook for Bachelors: in 2 parts / A.P. Medvedev; Voronezh State University.- Voronezh: Publishing House VSU, 2016.
5. Monakhov DN. On the issue of the history of the assessment: Materials of the scientific and practical seminar. Moscow, 2005. P. 164-167.
6. Torosyan VG. History of pedagogy and education: textbook. Moscow; Berlin: Direct-Media, 2015. P.498.



## ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШИШ ИЖТИМОИЙ ТАРАҚҚИЕТНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Закиров Шакирджан Мамажанович,

ТДТУ Олмалиқ филиали доценти,

Телефон: +998991910262

Каримбоева Диlobар Тўраевна.

Шайхонтохур тумани КҲМ

тариҳ фани ўқитувчиси

### Аннотация

Мақолада ҳар қандай жамият тараққиётнинг асосини ҳамкорлиқдаги илмий фоалият, кашфиётлар, тадқиқотлар, ўтган давр олимларимизнинг илмий изланишлари, ютуқлари ташкил этади деган фикр илгари сурилган.

Таълим жамиятимизнинг ривожлантирувчи асосий омили сифатида педагогик жиҳатдан талқин этилган ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг таълим тизимини тубдан такомиллаштиришга оид фармонларининг узлуксиз таълим тизимини модернизациялаш ва таълим сифатини оширишдаги моҳияти ёритилган.

**Калит сўзлар:** таълим, тарихий босқич, инновация, модернизация, жамият тараққиёти, педагогик фаолият, қадрият, инсон, таълим-тарбия тизими, технология, илмий фаолият.

Маълумки, ҳар қандай жамият тараққиётнинг асосини ҳамкорлиқдаги илмий фоалият, кашфиётлар, тадқиқотлар, ўтган давр олимларимизнинг илмий изланишлари, ютуқлари ташкил этади. Бошқача айтганимизда, ўтган давр ва ҳозирги, ҳамда келажак тараққиёти ўртасида ўзаро диалектик боғлиқлик мавжуд бўлиб, бу боғлиқлик таълим тизими, унинг мазмунида, ишлаб чиқариш билан ўз ифодасини топган. Хаётнинг диалектик боғлиқлиги ва тараққиёти ҳар бир давр инсониятининг борлиқقا фаол ёки пассив муносабатларини эквивалент шаклда ифодасини ёритиб берган.

Инсоният тараққиетининг ҳар бир босқичи, унинг мақсади, инсон муаммоси, унинг турмуш тарзини ўзгартириши, яхши хаёт учун курашиши, янгиликка интилиши, замонавийликка эришиши диалектик қарама-қаршиликларинг асосини ташкил этади.

Яқин ўтган даврларни кузатар эканмиз, бундай иқтисодий, маънавий ишлаб чиқаришдаги ўзгаришлар секин, XX асрнинг иккинчи ярими ва XXI асрнинг бошларида фаол, тубдан ўзгартириш характерига эга бўлганлигини кўрамиз. Таълим жамиятда ижтимоий тараққиётни белгиловчи омил ва унга таъсир этувчи, ўзгартувчи вазифаларни бажаради. Шарқ алломаси Абу Наср Форобийнинг «Фозил шахар аҳли инсонлари» асарида илгари сурилган ғоя, яъни, жамиятда маърифатли инсонларнинг кўпайиши жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, маънавий қиёфасини ўзгартиради. Ҳаётда қўлланилаётган замонавий билимлар тажриба ва малакалар тараққиётимизни ҳаракатга келтирувчи маънавий асос ҳисобланади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатмоқдаки, ишлаб чиқариш, унинг самарадорлиги миллий иқтисодиётнинг асосий кўрсаткичи бўлиб, фақат ишлаб чиқаришни ривожлантириб қолмасдан, балки ишлаб чиқариш муносабатларни, ишчи ходимларнинг ишчанлик холатини, билим даражасини, ижтимоий муносабатларни ифодалайди. Таълимнинг моҳияти иқтисодий кўрсаткичларда ўз ифодасини акс эттиrmай, балки кўп аспектли бўлиб инсоният, жамият тараққиётида ифодаланади. Таълим шахс дунёқарashi, онги, ахлоқи малакасини таркиб топишида акс этади.

Таълим ижтимоий тараққиёт даражаси, жамиятимизнинг иқтисодий, сиёсий тараққиётiga, инсонлар турмуш тарзига, оиласи ҳаётга ижобий таъсир кўрсатмокда. Инсоннинг иқтисодий имконият даражаси унинг билимига боғлиқ бўлиб, таълимнинг қанчалик юқори поғонага кўтарилиши ижтимоий ҳаёт пирамида чўққиларини забт этиш имкониятини туғдиради. Шунинг учун, таълим соҳасига, илм, фанга эътиборни қаратиш, молиявий инвестиция киритиш, капитал маблағ қуйиш билан тенг ҳисобланади.

Бугунги кунда таълим инсонга қуйилган қимматбаҳо капитал сифатида ифодаланмоқда. Билимнинг экспансияси шиддатли тараққиётида тез эскириши доимо таълим мазмунини такомиллаштириб боришни талаб этади.



Таълимдан бугунги кунда жамият тараққиётининг муҳим муаммоларини ҳал этиш масалаларини талафутига ўзлуксиз ташкил этилади. Масалан: Кадрлар тайёрлаш миллий дастури, Таълим тўғрисида Конун, Умумий ўрта таълим миллий дастури, Узлуксиз таълимнинг Давлат таълим стандарти, янги адабиётлар авлодини яратиш, таълим жараёнига замонавий педагогик технологияларни татбиқ этиш, таълим жараёнини модернизациялаш ва бошқалар. Айниқса, интернет тармоқнинг XX асрнинг иккинчи ярмида яратилиши жаҳон интеллектуал салоҳиятини жамлаш, ўзаро илмий алоқаларни кучайтириш имкони вужудга келди. XX асрнинг иккинчи ярими ва XXI асрга келиб илм-фан, таълим, техник тараққиётни тўлиқ таъминламоқда.

Маълумки, ҳар қандай инновация ишлаб чиқаришга, жамиятга таълим тизими босқичлари асосида кириб келади. Мазкур таълим тизимини ислоҳ қилиш ҳар бир давлат тараққиётининг асосини ташкил этади. Инновацион ёндашиш иқтисодий, сиёсий, ижтимоий, маънавий-маърифий соҳаларда ислоҳотларни амалга оширишни талафутига ўзгартиришда, меҳнатга бўлган муносабатларни таркиб топтиришда, республикамиз моддий базасини яратишдан иборат.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иктисодий жиҳатдан ривожлантиришнинг асосий омиллари узлуксиз таълимни тубдан такомиллаштириш орқали ҳалқаро стандартлар даражасидаги олий ва ўрта маҳсус рақобатбардош кадрлар тайёрлаш устувор масала ҳисобланади.

Кейинги йилларда Ҳалқаро миқёсдаги нуфузли университет ва институтлари ва уларнинг филиалларининг ташкил этилиши, узлуксиз таълим тизимида инновацион ёндашувнинг асосини ташкил этади. Мазкур йўналишда 2019 йил 8 октябрдаги Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини янги Ўзбекистон давлатимизни барпо этишнинг асосий пойdevорларидан бири деб ҳисоблаймиз.[2]

Тарихий даврлар шуни кўрсатмоқдаки таълим жамият авангарди сифатида тараққиёт олдида бориши ва эришилган ютуқларини илмий жиҳатдан асослаб берилиши лозим. Шунинг учун таълим ижтимоий жамият тарқиётида орқада қолиши, жамиятга пассив кўринишда бўлиши мумкин эмас.

Таълимда ўқувчиларни билишга бўлган қизиқишини уйготиш асосида ижодий қарашини таркиб топтириш, педагогик фаолиятда инновацион кайфиятини шакллантиришга йўналтирилади.[3]

Таълим-тарбия тизимида инновацион ёндашиш умумжамият масаласи билан чамбарчас боғлиқ. Шахснинг ижтимоийлашуви, унинг онгу тафаккурида янгича қарашларини таркиб топишида, меҳнатга бўлган янгича муносабатларни юзага келтиришда таълим-тарбия тизими, унинг мазмуни ва таълим тарбия жараёнини ташкил этиш технологиялари билан узвий боғлиқ.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. «2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони, 06.07.2022 йилдаги ПФ-165-сон, <https://lex.uz/docs/6102462>
2. «Ўзбекистон республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сонли Фармони, <https://lex.uz/docs/4545884>
3. Қодиров А.Қ. Маънавий-маърифий фаолиятнинг ижтимоий-педагогик масалалари. // «Таълим, фан ва инновация». 2 / 2018 йил.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY ISH JARAYONINI TASHKIL ETISHDA INSHO YOZISHNING AHAMIYATI

**Abdalova Ozoda Botirovna**

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda, ijodiy ish jarayonini tashkil etishda inshoning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek inshoning ijodiy ish turi sifatidagi yo`nalishlari ko`rsatib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** maktab, o'quvchi, ijodiy ish, insho, ta'lism, insho turlari, faollik, qiziqish, hikoya.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo`lib, maktabda alohida o`rin tutadi, barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo`ysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og`zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o`z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lism-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo`lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.

Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo`lib, his-hayajon uyg`otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko`rgan-kechirganlari va o`zlashtirganlari baholashga, kuzatuvchanlikka, voqeahodisalar o`rtasidagi sabab-natija bog`lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o`ziga, o`z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug`diradi.

Insho – ijodiy ish bo`lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejası haqida o`ylash, mantiqiy bog`lanishni belgilash, so`z, so`z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o`zaro bog`lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to`la ishga solish bilan birga, o`z ma`naviy faoliyatini boshqarish ko`nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo`shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo`lgani uchun, «o`ziniki»ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi – inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy, ijodiy o'sishiga mo`ljallangan dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o'sdi.

Og`zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o`z inshosini aniq fikrga bo`ysundirish, material to`plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko`nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik» vazifalar ham amalga oshiriladi, ya`ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e'tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og`zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho, janriga ko`ra hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo`linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo`lgan hikoya tarzidagi inshodan ko`proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limi vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo`nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagil o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir.

Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o`tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo`lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

- 1) rasmlar seriyasi yoki rasmlri reja asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;
- 2) syujetli, o'quvchilarni o`ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so`ng bir rasm asosida, undan so`ng tasviriy insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o`rgatiladi.



Dasturga ko`ra, 1-sinf o`quvchilari o`yinlari, mehnatlari, voqeal-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o`qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so`ng yozishlari, 2 - sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o`yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o`qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli bir rasm, rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi.

Boshlang`ich sinflarda insho ta`limiy xarakterda bo`ladi, 3-sinf dagina tekshiruv insho o`tkazish mumkin. Rag`batlantirish maqsadida ta`limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo`yish tavsija etilmaydi.

O`quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya`ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).
2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to`g`ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo`qmi, zarur o`rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).
3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo`l qo`yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).
4. Insho hajmi (so`z, gap soni; lakonizm yoki ko`p so`zlilik).

O`quvchilar inshosiga qo`yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. K.Qosimova va b.q. Darslik “Ona tili o`qitish metodikasi”. T-2009.
2. U. Masharipova va b.q. Ona tili “1-sinf o`qituvchilari uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma T-2017.
3. Internet saytlari malumotlari.



## TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI VA MAZMUNI

**Abdullayeva Unsunoy Axmedovna**

Xorazm viloyati Xiva shahar  
3-son umumta'lim məktəbning  
matematika fani o'qituvchisi

**Karimova Umida Bahodirovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani  
39-sonli umumta'lim məktəbning  
tarbiya va huquq fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarbiya jarayonlarining asosiy maqsadi va mazmuni nimalardan iboratligi, tarbiyaning ta'lif bilan uzviy bog'liqligi va o'sib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, tarbiya, maqsad, mohiyat, mazmun, jarayon, shaxs, pedagogik, o'quvchi, xulq, ong, maqsad, vazifa.

*Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.*

*Sh.M.Mirziyoyev*

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo xalokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda ta'lif oluvchilarning egallashi lozim bo'lган bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvori tizimi tushuniladi.

Tarbiyaning umumiyligi vazifalari: jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish; jamiyat rivoji uchun zarur bo'lган ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajimdagi "inson kapitali"ni tayyorlash; madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash; ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya jarayoni - bu shaxsda muayyan ruhiy, aqlim, jismoniy, axloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Shuningdek u insonning jamiyatda qanday o'rinni egallashi, kim bo'lishi, insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatlardir. Tarbiyasiz, alohida, odam ham, kishilik jamiyatni ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlovchi qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga ya'ni kelajak avlodga o'tadi. Tarbiya haqida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shunday deb yozadi: „Qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik zulmkorlik va noqobil odamga tarbiya hayfdir. Tarbiyani ayab unisini nobud qilma, tarbiyangni bunisiga zoye ketkazma". Ya'ni tarbiyani kerakli joyda va kerakli insonlarga berish haqida aytib o'tilgan.

Ko'pchiligimiz o'yaymizki, tarbiya faqatgina o'qituvchilar tomonidan, uyda esa ota onalar tomonidan o'rgatiladigan jarayon. Lekin aslida tarbiya- muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib topdirish jarayonidir. Bunda nafaqat ota-onaning va o'qituvchilarning balki jamiyatning o'rni ham beqiyosdir.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy



barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish uchun ko'plab chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Uni rivojlantirishda birinchi qadam umumiy o'rta ta'lif muassasalari va oliv ta'lif yurtlari hisoblanadi. Tarbiya ma'lum bir muddat ichida o'rganib va o'rgatib bo'linadigan jarayon emas. Shuning uchun bu jarayon bolalarning maktabga ketishi bilanoq boshlanadi va uni tamomlagunicha va undan keyin ham davom etadi. Shuningdek, bu jarayon-o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etuvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning asosiy vazifalari: tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiluvchi jarayon sifatida qaraladi. Har bir tushunchani ikki tomonlama ya'ni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Uni keng ma'noda, tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishiga, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi. Tor ma'nodagi tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lif maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilar maxsus tashkil etilgan faoliyatini tushunish mumkin.

Tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoit yaratish. Shuningdek, bobolarimiz aytishganidek ta'lifni tarbiyadan tarbiyani esa ta'lifdan ajratib bo'lmaydi, shuning uchun ham ular uzviy bog'liq. Buyuk faylasuf va mutaffakkir Umar Hayyom aytganidek: „Ta'lif faqat so'z va o'rgatish bilan bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan bo'ladi”. Shu sababli yoshlarga tarbiya berishdan va biror nimani o'rgatishdan avval o'zimiz ham o'sha narsani qilib o'rnak bo'la oladigan darajada bo'lishimiz kerak.

### **Foydalaniman adabiyotlar**

1. Sh.Mirziyoyev. „Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz”. T. O'zbekiston. 2016.
2. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lif to'g'risidagi Qonuni”.
3. Abdulla Avloniy asarlari.
4. Shaxsiy ish tajribamizdan.
5. OAV va internet materiallari.



## O'QITISH METODIKASI VA UNING TURLARI

Aniyozova Chamangul Xudayberganovna

Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
19-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'qitish metodikasining turlari va ularning bir – biridan farqli tomonlari haqida to`xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** O'qitish metodlari, pedagogik tarbiya, didaktika, metodika, tadqiqot metodi, kuzatish metodi.

O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. O'qitish metodlari o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlanish kabi uchta asosiy vazifani bajaradi.

O'qitish metodlaridan, ta'larning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlariga ongli tanlab olish uchun oldin hamma o'qitish metodlarini tasniflashni o'rganib chiqish zarur.

Ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot. Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonini chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Hozirgi ta'limgan tarbiya pedagogikani ilmiy bilishning umumiyligi bilan qurollantiradi, ammo boshqa har qanday fan kabi pedagogika fanining ham xususiy tadqiqot metodlari mavjud.

Ilmiy tadqiqot metodlari - bu qonuniy bog'lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni o'rnatish va ilmiy nazariyalarni tuzish maqsadida ilmiy axborotlarni olish usullaridir. Kuzatish, tajriba, maktab hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, suhbat va so'rovnomalar o'tkazish, ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari jumlasiga kiradi. So'nggi vaqtarda matematik va kibernetik metodlardan, shuningdek, modellashtirish metodlaridan foydalanish qayd qilinmoqda.

Boshlang'ich matematika o'qitish metodikasida butun pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan metodlarning o'zidan foydalaniladi.

Kuzatish metodi – odadagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishlicha qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatları haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda faktik material to'plash imkonini beradi.

Kuzatish vaqtida tadqiqotchi o'quv jarayonining odadagi borishiga aralashmaydi. Kuzatish aniq maqsadni ko'zlangan reja asosida uzoq yoki yaqin vaqt oralig'ida davom etadi. Kuzatishning borishi, faktlar, sodir bo'layotgan voqealar, jihozlar kuzatish kundaligiga qayd qilinib boriladi.

Kuzatish tutash yoki tanlama bo'lishi mumkin. Tutash kuzatishda kengroq olingan hodisa, tanlama kuzatashda kichik-kichik hajmdagi hodisalar kuzatiladi. Qaror yozish yoki kundalik yuritish kuzatishni qayd qilishning eng sodda metodidir. Ammo kuzatishlarni qayd qilishning eng ishonchli metodi texnik vositalar, video, foto va kinosyomkadan, teleekrandan foydalanishdir.

Foydalaniladigan kuzatish metodlaridan biri ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirishdan iborat. Bu metoddan muvaffaqiyatli foydalanishning majburiy asosiy sharti shundan iboratki, o'qituvchilar tajribasining tavsifi qo'yilgan tadqiqot vazifasiga javob beradigan bo'lishi kerak. Pedagogik tadqiqotlarning keng tarqalgan metodlaridan biri o'quvchilar ishlari va hujjatlarini o'rganishdan iborat. O'quvchilarning ishlari ularni dasturning ayrim bo'limlari bo'yicha tayyorgarlik darajasini aniqlash, o'qitishning ma'lum davri davomida o'sishi va rivojlanishlarini kuzatish imkonini beradi. Masalan, maxsus yozma va grafik ishlar shu maqsadda o'tkaziladiki, bularni tekshirish natijasida bolalarning matematikadan olgan bilimlarini va malakalari aniq ko'rinishi kerak; ma'lum vaqt oralig'ida bunday maxsus ishlarni bajartirib turish, o'quvchilar olg'a siljiyotganini va qanday darajada siljiyotganini ko'rsatadi. O'quvchilarning yozma ishlarida yo'l qo'ygan xatolarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday tahlil butun sinf o'quvchilarining duch keladigan murakkab qiyinchiliklarini, shuningdek, o'quvchilarning matematikani o'zlashtirishlaridagi individual xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O', Usmonboyeva M.Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. -T.: 2005.



## BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING SIFAT - SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Atadjanova Shoira Pulatovna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабнинг boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim sifat - samaradorligini oshirish usullari va bunda turli interfaol o‘yinlarning ahamiyati to‘g’risida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar.** interfaol metod, ta’lim, o‘quvchi, boshlang‘ich ta’lim, savodxonlik, tarbiya, dars, metod, texnologiya, yangilik.

Bola tarbiyasi inson hayotida hamisha muhim ish bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. O‘z farzandini keljakka munosib qilib tarbiyalay olmaydigan inson, kamolatga yetkaza olmaydigan jamiyat, hech qachon rivojlanmaydi.

Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot,-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” degan fikrini ko‘p mushohada qilamiz. Buyuk insonparvarning bu so‘zлari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, xozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir.

Dunyodagi rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatni rivojlantirishning eng zarur yo‘li-bu fan va texnikani rivojlantirishdir. Ta’limni rivojlantirish esa fan-texnikaning asosi hisoblanadi. Shuning uchun Prezidentimiz ta’lim sohasida katta islohot qilish tashabbusini boshladi. Islohotlar ilmiy-texnik taraqqiyot sanoat sohasida, tibbiyotda va boshqa xalq xo‘jaligi sohalarida keng joriy qilinayotgan ekan, buni fan-madaniyat, ijtimoiy-gumanitar sohaga ham shuningdek, zamonaviy yangi-innovatsion texnologiyalarni ta’lim-tarbiya sohasiga ham joriy etishni hayotning o‘zi talab etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin egallashi, ijtimoiy iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlarni tashkil etishda demokratik va insonparvarlik tamoillarining ustivor bo‘lishiga erishishi qat’iy ma’naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erisha oladigan yangi keljakning tayyorlanishiga bog‘liq. Respublikamiz xalq ta’limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog‘lom, qobiliyatli, o‘z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha o‘qituvchilarining o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llab darslarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Qolaversa, boshlang‘ich ta’lim yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’limda dars samaradorligini oshirishda o‘qituvchining o‘zida innovatsion qobiliyat bo‘lishi kerak. Har bir o‘qituvchi bola ko‘z o‘ngida yaratuvchi hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchilarini bilim darajalarini hamda dunyoqarashini shakllantirish uchun o‘qituvchi har xil usul va metodlar bilan dars o‘tishi talab etiladi. Buning uchun oliv ma’lumotli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z ustilarida ko‘proq ishlashlari, hayotiy tajribalarga ega bo‘lishlari kerak.

Ma‘lumki, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni tadbiq etishga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Sababi bunday metodlarni qo‘llash, ta’lim samaradorligini, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni va ta’sirchanligini oshiradi. O‘quvchilarini darsga hamda o‘qishga bo‘lgan motivlarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash usulida o‘quvchilar qay tarzda, qanday usullar bilan o‘qitishda natija samarali bo‘ladi degan savolga javob beradi. U o‘zining muayyan tizimiga ega bo‘lib, bunda komponentlarning ketma-ketligi, o‘zaro bog‘liqligi, bir butunligi saqlanadi. Bir so‘z bilan aytganda, ta’lim jarayoniga yangicha yondoshib ijodkorlik, bunyodkorlik tadbiq etilib ta’lim samarasini yangi bosqichga ko‘tariladi. O‘quvchida menga bu zarur va men buni bilishga, uni hayotga qo‘llashga qodirman degan ichki ishonch va intilish uyg‘otiladi.

Dars jarayonida turli metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilar faolligini oshirishga ham sabab bo‘ladi. Ularni ijodkorlikka mustaqil fikrlay olishga undaydi. Misol uchun savod o‘rgatish davrida harflarni o‘rgatish jarayonida quyidagi "Ortiqchasini top" mashqidan foydalanish o‘quvchilarini darsni yanada mustahkamlab borishiga sabab bo‘ladi



Misol uchun:

Jilg'a	maysa	Jar
tosh	jirafa	Jayra
osmon	jahon	Jurnal

O`quvchilar bunda tegishli emas so`zlarni topadilar va belgilab boradilar. Bu esa o`tilgan mavzu yanada mustahkamlanib borishiga sababchi bo`ladi.

O`qituvchi ijodkor yaratuvchan, bo`lishi zamon bilan hamnafas ish olib borishi kerak. Har bir darsimizni yangiliklarga boyitib, o`quvchilarni yuksaklarga intilib yashash xislarini uyg`otib borishimiz kerak. Shundagina biz o`z darslarimizni samaradorligini oshirishga erishamiz.

Xulosa qilib aytganda, ilg`or texnologiyalarning interfaol usullarni boshlang`ich sinf darslariga tatbiq qilishimiz jarayonida o`quvchilar bilim, ko`nikma va malakalaridagi bo`shliqlarni to`ldirishimiz va yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar.-T.:2008"
2. T.G'affarova. Boshlang`ich sinflar uchun didaktik materiallar
3. <http://www.ziyonet.uz>. - axborot ta'lif portalı
4. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. “Ta'lif texnologiyalari”



**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA DIDAKTIK O’YINLARDAN FOYDALANISH VA  
ULARNING O’QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI**

**Atajanova Yulduz Yuldashevna**  
Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабнинг boshlang‘ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o’quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirishda didaktik o’yinlardan foydalanish va ularning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** o’yin, boshlang‘ich ta’lim, o’quvchi, dars jarayoni, didaktika, ta’lim, tarbiya, vazifa.

Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar yurtimizdagи tub o’zgarishlar, yangiliklarining asosi ekanligi ayni haqiqat deb aytish mumkin.

Zero, har bir yurtning buguni va kelajagi tom ma’noda, ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi, barkamol avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, islohotlarning natijalari bilan belgilanadi.

Ma'lumki 1-sinfga qabul qilinib, mакtab ostonasida ilk qadam qo'ygan bolaning faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. O'yin ularning eng sevimli mashg'uloti bo'lib, ular har qanday mashg'ulotni o'yin bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Shunday ekan o'qituvchi o'quvchi faoliyatidan ularning sevimli mashg'uloti - o'yinni siqb chiqarmasdan, undan maqsadga muofiq foydalanish bilan ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

O'yin - bola hayotining uzviy qismidir. O'yin orqali bola atrof - muhit, tabiat hodisalari, manzaralari, buyumlar, o'simliklar, hayvonlar dunyosi bilan tanishadi. Boshlang‘ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o'yin-bu bolalarning yosh va imkoniyatlariiga mos keladigan ta'lim berish metodi. Tajribali tarbiyachi bu o'yindan passiv bolalarni jamiyatga aralashtirish uchun har xil rejalar, vazifalarni qo'rmasdan bajarishi uchun foydalanadi. Didaktik o'yin tarbiyaning vazifasi hamda maqsadlariga muvofiq kelishi lozim. Didaktik o'yin bolalarning amaliy faoliyat hisoblanadi, shuning uchun unda bolalar mashg'ulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadi. Didaktik o'yin bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi, nutq o'stirish, tabiat bilan tanishtirish va ekologik ta'lim jarayonini tashkil etishda keng foydalaniladi.

Odatda, o'quvchining yangi mavzuni o'zlashtirib olishi uchun turli amaliy mashqlarga murojaat qilinadi. Ammo o'yin shaklida o'tkaziladigan mashqlar bolalarning diqqatini ko'proq jalb qilishi, qiziqtirishi bilan ajralib turadi. Didaktik o'yinlarda bolalar takrorlash lozim bo'lgan so'z yoki harakatni osonlik bilan o'zlashtirib oladilar.

Didaktik o'yining boshqa o'yin turlaridan farqi shundaki, undan boshlang‘ich va maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda keng foydalaniladi. Bola o'yin jarayonida bilim oladi, malaka va ko'nikmalar hosil qiladi.

Har bir didaktik o'yinda ma'lum maqsadga qaratilgan vazifa qo'yiladi. Bu vazifa bolalarga bilim va ma'lumot berishni nazarda tutadi.

Didaktik o'yinda boladan ma'lum vazifani bajarish talab qilingani bois, o'yin davomida u o'zining fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, oldingi olgan bilimlarini eslashga harakat qiladi.

Bolalar bilan o'tkaziladigan didaktik o'yinlar ularda aniq bilimga, narsa va buyumlarga qiziqish uyg'otishi, diqqatini jalb qila olishi lozim. Agar o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa ularning tushunchasiga mos bo'lmay, bolalarni qiy nab qo'ysa, o'yin o'z qimmatini yo'qotadi. Chunki o'quvchi qiziqmagach, vazifa bajarilmaydi va kutilgan natijaga erishilmaydi.

Didaktik o'yinlar jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his - tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi.


Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning xususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkonini yaratadi.

Didaktik o'yinlarni xilma-xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin. Didaktik o'yinlar



maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi: 1. O'yinning vazifasi. 2. O'yinning harakati. 3. O'yinning qoidasi. 4. O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekanini o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar. Misol uchun matematika darslarida savod o'rgatish bosqichida matematik bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi usuldagি tarqatmalardan foydalanishimiz mumkin.



Bunda o'quvchilar kam, ko'p, teng kabi tushunchalarga ega bo'lib borishadi va o'quvchilardan chaqqonlik, ziyraklik va mahorat talab etiladi.

Didaktik o'yin dunyoni bilish vositasidir: o'yin orqali bola bola rangi, shakli, tabiiy xususiyatlari, o'simliklar va hayvonlarni o'r ganadi. O'yin o'ynash orqali bolalarning qiziqish doirasini kengaytirish, bilim va malakalarini oshirish mumkin. Shu sabablardan ham har bir dars jarayonida didaktik o'yin turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### Foydalangan adabiyotlar

1. T.G'affarova. Boshlang'ich sinflar uchun didaktik materiallar
2. <http://www.zyonet.uz>. - axborot ta'lim portal
3. Internet materiallari: <http://go.mail.ru/search?>. “Ta'lim texnologiyalari”



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK BILIM, KO'NIKMA VA  
MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA OG'ZAKI HISOBLASHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI

**Boltayeva Ro'za Ikromovna**  
Xorazm viloyari Bog'ot tumani  
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+998(99)-218-45-15  
**Zaripova Dilafruz Baxtiyor qizi**  
Xorazm viloyari Bog'ot tumani  
1-son maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon:+998(99)-505-66-53

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarini sifat-samaradorligini oshirishga yordam berish maqsadida yozildi. Unda matematika darslarida og'zaki hisoblashni o'rgatish, matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiruvchi topshiriqlar bilan ishslash kabilalar o'rinni olgan.

**Kalit so'zlar:** “Minglik”, induksiya, hisoblagich, motivatsiya, kreativ, ko'paytma, komponent, amallar.

Arifmetik amallarni o'rganishdagi navbatdagi juda muhim masalalar og'zaki va yozma hisoblash usullaridan ongli foydalanish asosida o'quvchilarda hisoblash ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liqdir.

Og'zaki hisoblashlarning asosiy ko'nikmalari 1va 2-sinflarda shakllanadi. 2-sinfda Minglik mavzusida hisoblashlar ustida ish boshlanadi va bu ish 3 –sinfda poyoniga yetadi. Shu bilan birga yozma hisoblashlarda og'zaki hisoblash ko'nikmalari takomillasha boradi, chunki og'zaki hisoblashlar yozma hisoblash jarayonida tarkibiy element sifatida kiradi.

Og'zaki hisoblash ko'nikmalariga ega bo'lish yozma hisoblashlarni ko'proq muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlaydi.

Og'zaki hisoblash usullari ham yozma hisoblash usullari ham, yuqoriga ta'kidlaganidek, amallar hisoblari va ulardan kelib chiqadigan natijalarni amallar komponentlari bilan natijalari orasidagi bog'lanishlari belganlikka asoslanadi.

Ammo og'zaki va yozma hisoblash usullarining farq qiluvchi xossalari ham bor.

Og'zaki hisoblash xossalari:

1) Hisoblashlar yozuvlarsiz (ya'ni miyada bajariladi) yoki yozuvlar bilan tushuntirib berilishi mumkin:Bunda yechimlarni:

a) tushuntirishlarni to'la yozish bilan (ya'ni hisoblash usulini dastlabki mustahkamlash bosqichida) berish mumkin.

Boshlang'ich maktab 2-sinfining ikkinchi yarmida hamda 3va 4-sinflarda asosan og'zaki hisobni ko'rish- eshitish mashqlari ustida olib boriladi. Bu sinflarda masalalarni og'zaki yechish va tez hisoblash mashqlarga har kuni 5-7 minut vaqt berish lozim. Og'zaki hisobni qancha vaqt davom qildirish kerakliginio'qituvchi o'zi aniqlaydi, chunki og'zaki hisobga beriladigan vaqt ko'p sabablarga,masalan: o'qivchilarning faolligiga ularning tayyorganligiga va boshqalarga bog'liqdir.

4-sinflarga o'qish yilning 1-choragida o'qitiladi Yig'indi va ko'paytmaning guruhash va taqsimot qonunlari esa dasturga to'g'ridan to'g'ri kirkizilmagan, lekin ular to'g'risida faqat 4-sinfning 2-choragida bu xossalarga taalluqli ko'rsatma bor.

Ko'paytmani bir songa va aksincha, bir sonni ko'paytmaga ko'paytirish.

Bu qonunlar 4-sinf o'quvchilariga eng sodda (elementar) shaklda, (konkret) aniq material ustiga, induksiya metodi bilan berilishi kerak. O'quvchinitegishli ravishda sonli misollarni tanlab oladi, ularning har birini o'quvchilar bilan sinfda tekshirib chiqadi, ayrim misollarni tekshirishdan xususiy xulosa chiqariladi, xususiy xulosalar esa qonuniy umumiy shaklini chiqarish bilan tamomlanadi, bu tekshirilgan xususiy hollarni umumlashtirishda iborat bo'ladi. Bu xulosa muvofiq ravishda tanlab olingen misol va masalalar yechish bilan mustahkamlashadi.

Og'zaki hisob mashg'ulotida o'qituvchi stol, partalar ustidan hamma narsani olib qo'yishni taklif qiladi. Og'zaki hisob vaqtida tamomanan tinchlik hosil qilish, bolalarning ko'z oldida,



ularning diqqatini hisobdan alahsitudigan narsalardan holi bo‘lishi kerak. O‘qituvchi kerak bo‘ladigan misollarni chaqqonlik bilan tanlab ola bilishi va masalalarni tez tuzib olishi va buning uchun u darsga tayyorlanish, misol masalalar oldidan belgilab qo‘yishi va ularni esda saqlashi lozim. O‘qituvchi kerak bo‘ladigan misollarni chaqqonlik bilan saylab ola bilishi va masalalarni masalalarnitez tuzib olishi kerak. Buning uchun u darsga tayyorlanish, misol va masalalarni oldindan tanlab qo‘yishi va ularni esda saqlashi lozim.

Matematika o‘qitish o‘quvchilarni savodlikka, tirishqoqlikka, puxtalikka, o‘z fikrini va xulosalarini nazorat qila olishga ayniqsa, kuzatish, tajriba va fahmlash asosida aytiladigan fikrlarning ravon bo‘lishini ta‘minlaydi. Shuningdek, matematika fanini o‘qitish o‘quvchilarda diqqat va fikrni bir narsaga to‘play bilishni ham tarbiyalaydi. Hozirgi vaqtida hayotimizning hamma sohalarida hisoblagich asboblarida ish yuritish kata ahmiyatga egadir, lekin shu bilan bir qatorda, kundalik turmushda og‘zaki hisoblashni bilish talab qilinadi.

O‘gzaki hisoblashning metodik ahamiyati shundan iboratki, og‘zaki hisoblashdan yaxshi malaka orttirliganda yozma hisoblashda puxta malaka hosil bo‘ladi. O‘qituvchining ijodiy yondashuvlari asosida bu ko‘nikmalari shakllant rish bir muncha qulay o‘zlashtirishni ta‘minlab beradi. Shuningdek, o‘quvchilar motivatsiyasini va diqqat e‘tiborini jamlashga hamda zerikishlarini, murakkab jarayondan osonlik bilan nayijaga erishishga yetaklaydi va darsning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchining kreativ yondashuvlar asosida faoliyatini tashkil etishi o‘quvchilarning fanga bo‘lganijobiy mu nosabatlarini ham tarkib toptirishga yo‘naltiradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;**

1.Bikboyeva N U, R I Sidel’nikova, G A Adambekova. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi-T: “O‘qituvchi” 1996-yil

2.Ahmedov M. Abdurahmonova N. Jumayev M. Y 1-sinf matematika darsligiT: “Sharq” 2005-yil

3.Bikboyeva N U va boshqalar. 4-sinf matematika darsligi.- T:“O‘qituvchi” 2005-yil



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL  
USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

Bozorova Zarina Rayimovna  
Bozorova Laylo Nasullayevna  
Buxoro vil G'ijduvon tumani 46-maktab  
Buxoro viloyati.Buxoro shahar  
38-maktab .Boshlangich ta'lif oqituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol usulda matematika darslarini o'quvchilarga yetqazish hamda matematik masalalarini innovatsion usulda o'qitish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Matnli masalalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati.

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodi.** Kichik guruhlarda ishlash orqali o`rganish - ma'lum muammoning yechimini topishga va o`quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo`lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning yechimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o`qitish Bu yondashuvda kichik guruhlar 4 ta o`quvchidan tashkil topadi. O`qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so`ngra o`quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O`quvchilarga berilgan o`quv topshiriqlari 4 qismga ajratilib, har bir o`quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o`quvchi o`zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o`rtoqlarini o`qitadi, so`ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiyl xulosa chiqariladi. O`qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O`quvchilarning kichik guruhlardagi o`quv faoliyati o`yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish.

**Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi.** 1976-yili Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko`proq o`quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e'tibor qaratiladi. O`quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o`rganish lozim bo`lgan o`quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o`quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o`quvchi umumiyl topshiriqning bajarilishiga o`z hissasini qo`shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o`tkaziladi. Guruh a'zolari birgalikda ma'ruza tayyorlaydi va sinf o`quvchilari o`rtasida o`z ijodiy izlanishlari natijasini e'lon qiladi. Kichik guruhlar o`rtasida o`tkazilgan o`quv bahsi, munozara o`quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishslash natijasida qo`lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o`quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo`llanib, yangi bilimlarning o`zlashtirishiga bog`liq bo`ladi.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo`lgan holda nazariyani amaliyot bilan o`qitishni turmush bilan bog`lab olib borish imkonini beradi. O`quvchi masalalarni yechayotganda ko`p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o`z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Interfaol ta'lif o`z xususiyatiga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o`z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lif o`z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o`qitish, masofadan o`qitish, internet tarmoqlari asosida o`qitish, media – ta'lif metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'lifda o`quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko`ra didaktik o`yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo`llanilmoqda. Agar o`qitish jarayonida har bir o`quvchi o`zining o`zlashtirish imkoniyati



darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqlashtirgan ta'limga orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'limga jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqidagi fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi.

Mashg'ul oxirida bolalarga topishmoq, hikoya va masalani qaytadan tuzish uchun nima qilish kerakligini o'yash taklif etiladi. O'rgatishning bu bosqichida birinchi mashg'ulotda bolalar qo'shish hamda ayirishga oid masalalarini echadilar, qo'shish va ayirishga oid masalalar ketma-ket tuziladi. Javobni sonlar o'rtasidagi bog'lanishdan va munosabatlarni tushunchaga asoslanib topadilar.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko'nikmasini sahkllantirishda masalalarning o'rni beqiyos sanaladi. O'qituvchi esa dars jarayonida o'tiladigan masalarni o'quvchiga to'g'ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i hamda darslarni qiziqarli o'yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o'quvchilarini darsga qiziqtira olishi muhim omil sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA NATURAL SON TUSHUNCHASINI KIRITISH VA  
ULAR USTIDA AMALLAR BAJARISH

Ergashyeva Nilufar Jumamuratovna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarida natural son tushunchasini o'rgatish va ularga doir amallarni bajarish usullari berilgan.

**Kalit so'zlar:** natural son, barmoqlar bilan hisoblash, matematik hisoblash, sanash, raqam, qo'shish, ayirish, son, yig'indi.

Eramizdan avvalgi asrlarda yashagan insonlar tirikchilik uchun har xil qushlar, kiyiklar va boshqa jonivorlarni ovlash bilan kun kechirganlar. Ana shu ovlangan kiyiklarni, umuman olganda jonivorlar sonini dastlab qo'l va oyoq barmoqlari bilan ko'rsatib tushuntirishga odatlanganlar. Agar ovlangan jonivorlar soni ikkala qo'l barmoqlari sonidan ko'p bo'lsa, ularni hisoblash uchun oyoq barmoqlaridan ham foydalanganlar.

Vaqt o'tishi bilan kishilarning ongi ham ana shu davrga nisbatan shakllana borgan. Har xil xo'jalik ishlarini bajarish jarayonidagi hisoblarga oyoq va qo'l barmoqlarining soni javob berolmay qolgan, natijada ular hisoblash ishlarini bajarishda tayoqchalardan foydalanganlar. Ana shu qo'l va oyoq barmoqlari hamda ishlatilgan tayoqchalarni sanash natijasida bir, ikki, uch, to'rt va hokazo sonlar hosil qilingan. Masalan, bitta qush, ikkita kiyik, uchta yo'lbars va hokazo. Yuqorida mulohazalardan ko'rindiki, son - bu odamlar sanash natijasida narsalarning miqdoriy qiymatlarini ifoda qiluvchi tushuncha ekan.

Sonlar raqamlar bilan belgilanadi, bizning sanoq sistema o'nlik sistema bo'lganligi uchun u to'qqizta qiymatli va bitta qiymatsiz raqam bilan belgilanadi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Matematika kursida 1, 2, 3, ... qatorni **natural sonlar qatori** deb ataladi. Natural sonlar to'plami quyidagi xossalarga ega:

1. Natural sonlar to'plamining birinchi elementi 1 ga teng.
2. Natural sonlar to'plamida ixtiyoriy natural son dan keyin keladigan va undan bitta ortiq bo'lgan birgina natural son mavjuddir.
3. Natural sonlar to'plamida 1 sonidan boshqa har bir natural sondan bitta kam bo'lgan va bu sondan oldin keladigan birgina natural son mavjuddir.

Boshlang'ich sinf matematika kursida natural sonlar to'plami haqidagi eng sodda tushunchalar o'quvchilarda shakllantiriladi. IV sinfda esa koordinata tekisligi va nur tushunchalari kiritilganidan keyin natural sonlar to'plamining geometrik tasviri ko'rsatiladi.

Har bir natural songa koordinata nuring bitta nuqtasi mos kelishini o'qituvchi ko'rgazmali qurollar yordamida tushuntirishi lozim. Shundan keyin o'quvchilarga natural sonlarni og'zaki va yozma raqamlash ishlari o'rgatiladi. Buning natijasida o'quvchilar natural sonlarni o'qish va yozishni o'rganadilar.

1. Sanash vaqtida birinchi o'nta sonning har biriga alohida nom beriladi.
2. Sanoq birliklari guruhlarga shunday birlashtiriladi, buning natijasida bir xil o'nta birligidan yangi ikkinchi xona birligi, ikkinchi xonaning o'nta birligidan yangi uchinchi sanoq birligi va hokazolar tuziladi.
3. Ikkinci xonadan boshlab har bir xona birligi shu xonadan bevosa quyi xonaning o'nta birligidan tuzilgani uchun bizning sanoq sistemamiz o'nlik sanoq sistemasi deb ataladi. 10 soni esa sanoq sistemasining asosi deb ataladi.
4. Turli xonalardan iborat bo'lgan sonlarning har uchtasining birliklarini birlashtirib sinflar tuziladi. Dastlabki to'rtta xona birliklariga alohida nomlar beriladi, ya'ni bulardan to'rtinch xona birligi ming, ikkinchi sinf birligi deb qaraladi va undan xuddi asosiy birliklardan tuzilgan kabi navbatdagi birliklar tuziladi. Ikkinci sinfning mingta birligi, uchinchi sinfning birligi - millionni tashkil etadi va hokazo.
5. Sonlarni yozish uchun 10 ta raqam qo'llanadi, noldan boshqa hamma raqamlar **qiymatli raqamlar** hisoblanadi.
6. Qiymatli raqamlarning qiymati ularning sondagi o'mniga qarab o'zgaradi. Bundan keyin o'qituvchi o'quvchilarga natural sonlarni qo'shish va ayirishni hamda ko'paytirish va bo'lismeni



kundalik hayotda uchraydigan misollar asosida o'rgatishi maqsadga muvofiqdir.

Masalan, Odiljon 35 ta ko'chat, Qobiljon esa 30 ta ko'chat ekdi. Ularning ikkalasi birgalikda necha to'p ko'chat ekishgan?  $30 + 35 = 65$  ta.

Ikkita natural sonni qo'shish natijasida yangi bir natural son hosil bo'ldi, uni shu sonlarning yig'indisi deyiladi. 30 va 35 sonlari *qo'shiluvchilar*, 65 soni *yig'indi* deb ataladi. Shu fikrlar o'quvchilarga o'rgatiladi, so'ngra qo'shish amaliga ta'rif beriladi.

Ta'rif. *Ikki sonning yig'indisini topish amaliga qo'shish deb ataladi.* Natural sonlarni qo'shish yana quyidagicha usul bilan tushuntirilishi mumkin. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, ... natural sonlar to'plamini doskaga yozib, unda 4 soni belgilanadi, so'ngra ana shu 4 sonidan unga qarab 6 ta son sanaladi, natijada 10 soni hosil bo'ladi. Demak,  $4+6 = 10$  bo'lar ekan.  $6+4 = 10$  bo'lishini ham yuqoridagidek tushuntirish mumkin. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 ... natural sonlar to'plamida 6 sonini belgilab, undan o'ngga qarab 4 ta son sanaladi, natijada 10 soni hosil bo'ladi, demak, bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi  $a + b = b + a$ . Bu tenglikdan qo'shish amaliga nisbatan quyidagi qoidani ifoda qilish mumkin.

Qo'shuvchilarning o'rni almashgani bilan yig'indining qiymati o'zgarmaydi, ya 'ni  $a + b = b + a$ . Biz qo'shiluvchilar sonini uchta olganimizda ham yuqoridagi qoida o'rinni bo'lib,  $(a+b)+c=(a+c)+b$  tenglik hosil bo'ladi, bu esa qo'shish amaliga nisbatan guruhlash qoidasini ifodalaydi.

Qo'shiluvchilardan biri va yig'indi ma'lum bo'lganda ikkinchi qo'shiluvchi noma'lum sonni topish amaliga ayirish deb ataladi.

$$x = 20 - 6. \quad x = 14.$$

Agar umumiyligi holda  $a + x = b$  desak, bundan  $x = b - a$  hosil bo'ladi. Bunda  $x$  - ayirma,  $b$  - kamayuvchi,  $a$  - ayiriluvchi deb yuritiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi
2. Boshlang'ich sinflarning matematika fani darsliklari.
3. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



**ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FANGA OID  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA FOYDALANILADIGAN NAZORAT  
TOPSHIRIQ TURLARI**

**Fayzullayeva Maqsuda Hamidbek qizi**  
Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (999) 753 93 92  
[fayzullayeva.maqsuda\\_9392@inbox.uz](mailto:fayzullayeva.maqsuda_9392@inbox.uz)

**Xo'jayeva Umida Otabayevna**  
Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 169 20 83  
[umida.otabayevna\\_5scool@umail.uz](mailto:umida.otabayevna_5scool@umail.uz)

**Annotatsiya:** Ushdu maqola ona tili darslarida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda foydalilaniladigan nazorat topshiriq turlari haqida.

**Kalit so'zlar:** Nazorat topshirig'i, diktant, ta'limiy diktantlar, tekshiruv diktantlari, ta'kidiy diktant, o'z diktant yoki yoddan yozuv diktanti, izohli diktant saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant.

Diktant eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir. O'quvchilarning og'zaki yozma nutqini o'stirishda, savodxonligini oshirishda diktantning ahamiyati katta. O'quvchi diktant yozish jarayonida xato qilmaslikka harakat qiladi. Xato qilmaslik ularning fonetik, leksik va grammatik bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklariga bog'liq bo'ladi. Imlo qoidalari grammatik hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Demak, savodli diktant yozish uchun o'z navbatida grammatik qoidalarni ham bilish zarur.

Diktantlar maqsadiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Ta'limiy diktantlar – bilim berishga yo'naltirilgan diktantlar.
2. Tekshiruv diktantlari – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishga qaratilgan diktantlar.

Ta'limiy diktantlarni o'tkazish vaqtini, o'rmini, turini o'qituvchining o'zi belgilaydi. Ta'limiy diktantlar uchun darsning ma'lum bir qismi (5-10 daqiqasi), ba'zan bir dars ajratiladi. Bu diktant o'quvchilar bilimini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantda o'qituvchi o'quvchilarga o'rgatilayotgan hodisaning imlosini bir necha tahlil usullaridan foydalanib tushuntiradi, o'quvchilar so'zlarni to'g'ri yozishlariga ishonch hosil qilgach, uni yozishga ruxsat beradi. Har qanday yo'l bilan xatoning oldini olish chorasi ko'rildi. Masalan, 1-sinfda a va o unlilari o'rganilayotgan darsda bo'g'in-tovush, tovush-harf tahlili o'tkaziladi. Bahor so'zlarining birinchi bo'g'inida a harfi yozilishini o'quvchilar bilib olgach, o'quvchilardan bira shu so'zlarni xattaxtaga yozadi. So'ng so'z o'chirib tashlanadi, shundan keyin aytib turib yozdiriladi.

Shulardan saylanma, erkin va ijodiy diktantlarda matn ma'lum o'zgarishlar bilan yoziladi.

Tekshiruv diktantida yaqinda yoki ilgari o'rganilib, mashqlar bilan mustahkamlangan qoidalarni o'quvchilar qay darajada o'zlashtirganliklari aniqlanadi. Tekshiruv diktanti biror bo'lim o'rganilgandan so'ng yoki chorak oxirida o'tkaziladi. Tekshiruv diktanti o'quv yili davomida 5-6 marta o'tkaziladi. Diktantning bu turida yo'l qo'yilgan xatolar chuqur tahlil qilinadi, ularni bartaraf qilish usullari belgilanadi. Shu jihatdan tekshiruv diktantining ta'limiy ahamiyati katta. Imloviy mashq sifatida diktantning xilma-xil turlaridan foydalilanadi.

Ta'kidiy diktantdan qoidani tatbiq etish usullarini yaxshi bilib olish maqsadida foydalilanadi. Matnni yozishdan oldin, uni yozish jarayonida, izohli yozuvdagi kabi, o'quvchilar so'zni qanday yozishni va nima uchun shunday yozilishini tushuntiradilar.

O'z diktant yoki yoddan yozuvda o'rganilgan imloviy qoida asosida yoziladigan so'zlar bo'lgan matnni o'quvchilar o'zları o'qib yodlaydilar(ko'rib idrok qiladilar) yoki o'qituvchi rahbarligida eshitib yodlaydilar (idrok qiladilar), keyin o'zları mustaqil yozadilar.

Izohli diktant o'quvchilarning qobiliyatiga qarab ikki xil o'tkaziladi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum so'zning yozilishini diktant yozishdan oldin yoki keyin izohlaydi. So'zning yozilishini bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qiladi, unga qoidani tatbiq etadi. Masalan, “Kitob – bilim manbai” – Kitob: Ki-tob. Ikki bo'g'in. Birinchi bo'g'inida k, i; ikkinchi bo'g'inida t, o, b tovushlari bor. Oxirgi b tovushi p tovushi tarzida talaffuz qilinadi.



Unda b yoki p tovushini ifodalovchi harfning yozilishini tekshirib aniqlaymiz. Buning uchun so’z oxiriga i tovushini qo’shamiz va aytamiz: kitobi. B tovushi yozilar ekan” kabi izohlanadi.

**Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Jumayev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbayeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang’ich ta’lim fanlarini o’qitish metodikasi O’UM. Nizomiy nomidagi TDPU huzuridagi XTXQTUMOHM., 2017.
2. Mirzaxmatova Sh., Po’latova D. Tabiatshunoslik darslarida interfaol ta’lim (Uslubiy qo’llanma) –T: “Yangi asr avlodi”, 2011.



**YANGI O’ZBEKISTONDA INNOVATSION FAOLIYATNING TAKOMILLASHUVI.**

**Imomboyeva Oymunisa Munisovna**  
Andijon viloyati Xo’jaobod tumani  
kasb-hunar maktabi  
Iqtisod fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasi innovatsiya tizimini shakllantirish va rivojlantirish yo’nalishlariga bag’ishlangan.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, innovatsiya iqtisodiyoti, innovatsion model, milliy innovatsiya tizimi, innovatsiya faoliyati, texnologik taraqqiyot, samarali boshqaruv.

“Innovatsiya” atamasi ikki ma’noda qo’llaniladi. Birinchidan, yangi mahsulot, jarayon yoki tizimdan birinchi foydalanishni tavsivlash. Ikkinchidan, jarayonni, shu jumladan yangi mahsulot, jarayon yoki tizim ishlab chiqarishni tadqiq qilish, loyilalashtirish, ishlab chiqish va tashkil etishkabi tadbirlarni tavsivlash.

Zamonaviy mamlakatda innovatsion faoliyatni jonlantirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash, iqtisodiyotni sog’lomlashtirish va kelgusi rivojlanishi uchun sharoit yaratish, biznes rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish, shu bilan birga yetakchilikni mustahkamlash va raqobatchilardan o’zib ketish, shuningdek, biznesning butun yo’nalishlarini iqtisodiy jihatdan amaliy bo’lmagan radikal innovatsiyalar joriy etilgan taqdirda sohaga zarar yetkazilishidan o’z vaqtida himoya qilish uchun ham kerakdir.

Innovatsiyalar kompaniyalarning foydasini sezilarli darajada oshiradi, ularga tezroq o’sish va raqobatchilardan ustun turish imkonini beradi. Innovatsiyalar davlatga foyda keltiradi, chunki turli darajadagi innovatsion faoliyat yalpi ichki mahsulotning o’sishiga bevosita yordam beradi (hosildorlikning o’sishi, uy xo’jaliklarining ixтиiyoriy daromadlari va soliq tushumlari natijasida) va alohida tarmoqlarning rivojlanishiga hissa qo’shadi.

Innovatsiyani rivojlanishining xususiy biznesga, jamiyatga, umuman davlatga ta’sirining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- hayot sifatini yaxshilash;
- YaMM daromadlari va foydalarining o’sishi;
- aholi daromadlarining o’sishi;
- iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlanish;
- yangi ish o’rinlarini yaratish imkoniyatlari;
- tengsizlikni kamaytirish;
- kichik va o’rta biznesning o’sish sur’atlarini tezlashtirish.

Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni innovatsion faoliyatni jonlantirishga yo’naltirilgan sharoitlarni yaratmasdan amalga oshirib bo’lmaydi. Innovatsion iqtisodiyotni qurishda sanoat korxonalari muhim rol o’ynaydi, ular kelgusi iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy natijalarni yaratadi.

Mamlakatimizda yuqori bilim va malakaga ega bo’lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlash maqsadida oliygohlar soni 141 taga yetkazildi, 26 ta xorijiy oliy ta’lim muassasasining filiallari ochildi. 2016 yilda respublikamizdagи oliygohlarning soni 77 ta edi. Qisqa muddatda bu borada qariyb ikki barobar o’sishga erishilgan. Axborot - yuksak rivojlangan texnologiyalar asri deb yuritilayotgan XXI asrga kelib, ta’lim jarayoniga innovatsiyani keng joriy qilish masalasiga e’tibor yanada kuchaytirildi. O’zbekistonda ham so’nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo’lib ta’lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta’lim jarayonida qanday o’z aksini topganligini quyidagilarda ko’rishimiz mumkin. Pedagogik fanlar tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini pedagogika fanlari tarkibiga quyidagi: a) Gendr pedagogikasi; b) Evristik pedagogika; v) Majburiy pedagogika; g) Androgogik pedagogika kabi fanlarning kirib kelishi bilan belgilandi.



O'qitish tizimiga innovatsiyaning kirib kelishini ta'lif mazmunida, o'qitish metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin.

- Ta'lif mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarining kirib kelishi bilan izohlanadi.

- O'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi misolida ko'ramiz. Aktiv metodni qo'llash talabalarni dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qilsa, passiv metod talabalarni bir tomonlama tushuncha berilishi bilan izohlanadi. Interaktiv metod esa birgalikda faol harakat qilishi (o'qituvchi bilan talaba, talaba bilan talaba) tushuniladi.



- Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandard hamda virtual dars shakllari misolida ko'rishimiz mumkin.

- O'qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta'lif, evristik ta'lif, darajalangan ta'lif, integratsiyalangan ta'lif, interfaol ta'lif, informal ta'lif, rasmiy ta'lif, norasmiy ta'lif turlari bilan izohlanadi.

- O'qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalar bilan izohlaymiz.

- O'qitish metodlaridagi innovatsiyani quyidagi metodlarda ko'rishimiz mumkin. 1. Aktiv metod. Bu metod ni dars jarayonida faollashuviga, ma'lum bir holat va vogelikga nisbatan fikrlashga-muloxaza yuritishga undaydi. 2. Passiv metod. Bu metod dars jarayonida talabalarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir tomonlama tushuncha hosil bo'lishiga olib keladi. 3. Interaktiv metod. Bu metodni maqsadi dars jarayonida o'qituvchi va talabalarni birgalikdagi faol xatti-harakatlariaga asoslanadi.

Dars shaklidagi innovatsiyani quyidagi shaklda ko'rishimiz mumkin. a) Standart dars – dars ichidagi struktura o'zgarmaydi. b) Nostandard dars – dars ichidagi struktura o'zgaradi. v) Virtual dars – yani masofadan o'qitish. Pedagogik innovatsiyada "Yangi" tushunchasi markaziy o'rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub'ektiv yangilikka qiziqish uyg'otadi.



## TARIX DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISHNING SAMARADORLIGI.

**Isokov Umidjon Usubjonovich**

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani  
kasb-hunar maktabi tarix fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix darslarini tashkil etishda interfaol usullarning o'rni, ularning darslarda qo'llanilishi va olinadigan natija haida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** murabbiy, vatanparvar, klaster, charxpalak, aqliy hujum, bahs-munozara metodlari.

Tarix fani murabbiylik, yaratuvchanlik, yo'naltiruvchilik va insoni istiqbolga da'vat eadigan kuchdir. Mazkur fan inson taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkazadi, milliy istiqbol mafkurasini shakllantiradi. Ayniqsa, uning xalq tarixi, uning rivojlanish bosqichlarini nechog'lik o'rganish, undan saboq chiqarish, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashdagi o'rni nihoyatda beqiyosdir.

Tarixning fan sifatida yoritish va o'quvchi diqqatini uzoq o'tmishga qaratish bilan birga o'quvchilarining dunyoqarashlarini, ilmiy nazariy tafakkurlarini takomillashtirish, o'tmish va hozirgi zamondagi voqe va hodisalarga ilmiy xolislik va tarixiy ob'ektivlik tamoyillariga amal qilgan holda tarixiy voqealikka munosabat bildiradigan hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalash, o'quvchilarda xalqimizning madaniy, ma'nnaviy merosiga, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlar, axloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo'lismi tushuntirish lozim.

Bu hol umumta'lim maktablarida tarix fani asoslarini o'rganish oldiga, xususan ushbu o'quv fanini o'qish mazmuniga katta talab qo'yilishi bilan belgilandi. Bugunda Vatanimizda tarix fanini o'rganishning metodologiyasi aniqlab olindi. O'zbek xalqi va uning davlatchiligi haqqoni tarixini o'rganish, mamlakatimiz va chet ellarda mavjud tarixiy manbalar tahlili asosida olingen ilmiy natijalarning jahon miqyosidagi e'tirofiga erishish, ularga tayangan holda ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, turli adabiyotlar yaratish va mazkur bilimlarni keng yoyish hamda tarix sohasida uning vazifasi, metodologiyasini belgilab olish,

Tarix fani tushunchasida - qonuniyatları, tarixiy jarayon va inson, inson mohiyati, fe'l atvori, xatti – harakatlari, mafaatlari turmush tarzi, urf-odatlari, an'analari, qarashlari va e'tiqodlari talqin etiladi. Bu bevosita insoniyat taraqqiyotida, sivilizatsiyalar mohiyati va ularning "to'qnashuvi"da kishilik jamiyat evolyutsiyasi, inson tafakkuri va ehtiyojlari dinamikasi bilan jamiyat rivoji dinamikasi o'rtasidagi bog'liklik, renessans hodisasi, uning yuz berishi va inqirozi sabablari o'rganiladi.

Ta'limda tarix fanlarini o'qitishda interfaol usullarning ahamiyati oshmoqda. Bu usulda olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarining asosida o'quv jarayonida talabalarni fikriy faollashtirish g'oyasi yotadi.

Interfaol usullarni o'zi nima? Interfaol usullar deganda, ularni mustaqil fikr yuritishga undovchi hamda ta'lim jarayonininining markazida ta'lim oluvchi turgan pedagogik usullartushiniladi. Bugungi kunda interfaol usullarning soni 100 dan oshib ketgan. Garchi ular farqlansalar ham umumiyl maqsadlari bir, ya'ni ta'lim oluvchilarni o'quv jarayonida faollashtirishdir. Bunda y usullarni har bir pedagog, umumiyl maqsadga binoan, o'zi yaratib olishi yoki pedagogik adabyotlardan tanlab olishi mumkin.

So'ngi yillarda tarix fanlarini o'qitishda "Klaster", "Veer", "Davra suhbati", "Charxpalak", "Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "FSMU" usullaridan foydalanib kelinmoqdaki, bu usullar dars samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

### "T.A.R.I.X."usuli

Maqsad: "T.A.R.I.X."-bu usul quyidagi jadval asosida to'ldiriladigan jamoa o'yinli usulidir. Ya'ni "T.A.R.I.X." usuli quyidagi so'zlarning bosh harflaridan olingen bo'lib, Ttest savollar, A-anagrammalar,R-raqamlardagi voqealar, I-ikki tarixiy jarayonni solishtirish, X-xulosa kabi qismlardan iborat bo'lib,bu jadvalni guruh bilan birgalikda to'ldirish orqali o'quvchilar mavzuning asosiy mazmuni keltirib chiqarishadi.



Bulardan tashqari har bir mavzuda uchraydigan yangi atamalarni o'quvchilar yodda saqlab qolishi uchun quyidagi o'yin – usullardan foydalansa natija samarali bo'ladi.

### “ZANJIR” usuli.

O'quvchilar katta guruhlarga bo'linadi. Zanjir usuli aytilgan atamani takrorlamaslik sharti bilan boshlanadi. Bunda o'quvchining ziyrakligi va topqirligi sinaladi.

Tarix fani o'tmish voqealarini o'rganish bilan birgalikda, bugungi kun bilan hamnafas bo'lishda bosh yetakchilik vazifasini bajaradi. SHunday ekan o'quvchilarni tarix faniga qiziqishini oshirish, fan mazmunini to'liq tushinib olishi uchun turli metod va o'yinlardan foydalansha natija samarali bo'ladi.

Interfaol usullarning dars jarayonida qo'llanishi bilan pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o'zgarishi natijasida o'qituvchining boshqaruva faoliyatida ham o'zgarishlar vujudga keldi. O'qituvchi muammolarni aniqlashga, g'oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas'ulor menejeriga aylanmoqda. U nafaqat pedagogik balki o'quvchilarning o'quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejallashtiradi, ya'ni qo'yilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish va o'quv faoliyatining rejallashtirilgan natijalariga erishish bo'yicha qo'shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi, bashoratlash, loyihalashtirish, rejallashtirishda va o'quv faoliyatini tashkillashtirishda o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi, ta'lim jarayonini o'quv dialogi va polilogi sifatini tuzadi. O'qituvchi esa tashkilotchi va mazmunni to'ldiruvchi vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, interfaol usullardan foydalanim o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyatları va imkoniyatlarını namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishslash malakasiga ega bo'ladilar, o'zgalar fikrini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirqosimov M. Maktabni bosqarishning nazariy va pedagogik asoslari. “O'quv qo'llanma. T. “O'qituvchi”. 1995.
2. Narzulla Jo'rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T: ”Ma'naviyat”. 2008.



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARINING  
MAQSAD VA VAZIFALARI**

**Kalandarova Nigora Botirovna**

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'linda sinfdan tashqari o'qish darslarini tashkil etish va bu darslarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar haqida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, sinfdan tashqari o'qish, o'quvchi, asar, kitobxonlik, ona tili, mashq, malaka, bolalar adapbiyoti.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarni ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonida ularni axloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi kichik yoshdagi o'quvchilarni bolalar adapbiyoti va xalq o'gzaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, kitobxonlik madaniyatini tiklashdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarining asosiy maqsad va vazifasi o'quvchida badiiy kitoblarni o'qishga havas uyg'otish, o'qilgan kitoblar yuzasidan kundalik yurita olishga o'rgatish, bolalar adapbiyotining mashhur adiblari hayoti va ijodi bilan elementar tarzda tushuntirish hisoblanadi.

Sinfdan tashqari o'qish darslarining muhim vazifalaridan biri mustaqil o'qish malakalarini tarbiyalash hisoblanadi. Buning uchun mustaqil topshiriqlar berish, qiziqarli mashq turlaridan foydalanish, "Tez aytish", "Topishmoqlar topish", "Ifodali o'qish", "Maqollar aytish musobaqasi", "Ertak to'qish", "Bilimdonlar anjumanı"kabi ko'rik tanlovlarni tashkil etish, o'yin tarzidagi ish turlaridan foydalanish zarur. O'qilgan ertaklar asosida suhbatlar o'tkazish, "Kitob haftaligi" tashkil etish, asarlar asosida kichik insholar yozishni mashq qilish yaxshi samara beradi.

Sinfdan tashqari o'qish sinfa o'qish bilan uzviy bog'liq ravishda uyuştiriladi. Sinfda o'qish sinfdan tashqari o'qish uchun zarur bo'lgan o'qish malakalarini shakllantiradi, o'quvchilarning o'qigan asarlarini tushunishga o'rgatadi, lug'atini boyitadi. Sinfdan tashqari o'qish qiziqarli va o'ziga jalb etadigan faoliyat bo'lib, bolalarning bilim doirasini boyitadi, qiyoslash uchun material beradi. Sinfda o'qish -hayotga tayyorlash vositasi, sinfdan tashqari o'qish esa hayotning o'zidir.

Umumiy o'rta ta'liming Davlat standartlari va o'quv dasturiga ko'ra 1-sinfda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida savod o'rgatish darslarida hosil qilingan ko'nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqlol, milliy qadriyatlар haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, boyitiladi.

Sinfdan tashqari o'qish darslari 1-sinfda haftada 1 marta savod o'rgatish darslarining 20 daqiqasida bolalar badiiy adapboyoti bilan tanishtiriladi. Maqsad kichik yoshdagi bolalarda kitobga mehr uyg'otish, mustaqil uquvlarini paydo qilishdir. Asosan bu sinf o'quvchilariga kitob bilan muamola qilish, kitob o'qish qoidalari, kitobni asrash, asar qahramonlarining hatti-harakatlarini kuzatish, ijobiy tamonlarni o'rganish, obrazli qilib qayta hikoya qilib berish, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir. Bu sinf o'quvchilari uchun asosan rasmlarga boy kitoblar olinadi. O'qituvchi bolalarning his-tuyg'ularini o'stiradigan kitoblarni o'qib berish orqali mustaqil mamlakatimiz, uning go'zal shaharlari, qishloqlari, milliy urf-odatlari, qadriyatlari, o'tmishi, insonlarning orzu-istiklari bilan tanishtiradi. Ularda bilimga havas uygotadi.

2-sinfda o'quvchilar kichik hajmdagi asarlarni o'qituvchining yordami va topshirig'i asosida mustaqil o'qishga o'tadilar. Bu sinfda 2 haftada bir marta sinfdan tashqari o'qish darslari o'tkaziladi. Ona-Vatan va ota-bobolar jasorati, o'simliklar, qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlarini o'qituvchi topib, tanlab o'quvchilarga o'qish uchun tavsiya qiladi.

3 va 4-sinflarda sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning mustaqil o'qishlari uchun kishilarninig hayoti, yorqin tasvirlardan, ularning ma'naviy-ahloqiy turmush tarzi aks ettirilgan badiiy va ilmiy-ommabop asarlar tavsiya etiladi. 3-4 sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslari ikki haftada bir marta o'tkaziladi. Bu sinflarda o'qituvchi sinf kutubxonasida kerakli bo'lgan o'quvchilar yoshiga mos kitoblarni to'plashni davom ettiradi.

Sinfdan tashqari o'qish burchagi turlicha bezatishi mumkin. Bunda o'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikda ish olib boradilar. Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina, o'quvchilarning dunyoqarashlarini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.



Sinfdan tashqari o'qish bolalarda ezgulikka muxabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqrarli mazmuni, badiiy obrazlarning go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtida u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchilarga jonajon o'lka, tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqelikni, bolalarning o'yinlarini tushunishga o'rgatadi.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari, barcha orzu istaklari yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodlarda ko'rishni istaydilar. Shu sababdan ham o'quvchilarga ertaklarni o'qish tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bolalar qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladilar.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir necha kitob bilan tanishsalar, so'ngra bolalarning qiziqishlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab olishga o'tadilar.

Xulosa qilib aystsak boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarining maqsad va vazifalarini o'quvchilar ongiga singdirish, ularda kitob o'qishga havas uyg'otish, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash ularning kelajakda ma'naviy barkamol, yurt ravnaqi, el faravonligi uchun jon fido qiladigan komil insonlar bo'lib yetishishlarida muhim dastur amal bo'la oladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim talablari va o'quv dasturi.
2. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflar uchun darsliklari.
3. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



BOSHLANG‘ICH TA’LIM O’QUVCHILARIGA ERTAK O‘QITISH USULLARI

Karimova Komila Rasuljonovna

Bag‘dod tumani 55-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

tel: 99890-150-84-19

e-mail: komila1985@gmail.com

**Annotatsiya:** maqlada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilariga ertak janrini o‘qitish orqali ularda xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish va axloqiy-ma’naviy dunyosini boyitishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish darsi, ertak, adabiy ta’lim, estetik did.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning o‘qishlari va xulq-odoblariga ko‘proq e’tibor berish, ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish asosiy masalalardan hisoblanadi. Shunday ekan, boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan har bir dars, ayniqsa, o‘qish darslari juda muhim. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish o‘qituvchidan yuksak mahorat talab etadi. Chunki yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirib borish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, do’stlik, mehr-oqibat kabi tuyg‘ularni tarbiyalash bugungi ta’lim-tarbiya masalasining dolzarb vazifasidir. Shu sababli umumta’lim maktablarida o‘qish darslariga alohida e’tibor beriladi. O‘qish darslarida asosan, darslikda adabiy matnlar bilan bir qatorda tarix, geografiya, odobnoma kabi fanlarga oid matnlar ham beriladi. Chunki o‘quvchilarga adabiy matnlar mazmun-mohiyatini tushuntirishda tasavvurlarini, dunyoqarashlarini kengaytirish, so‘z boyligini oshirish, yaxshini yomondan ajrata olish ko‘nikmasini shakllantirish, ularning tuyg‘ularini tarbiyalash zarur. Adabiy ta’limda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining:

- a) bexato, ravon, ifodali o‘qishlari;
- b) o‘qiganlarini tushunish, tushunganlarini tushuntira olishi;
- v) ular asosida og‘zaki nutqni o‘stirish;
- g) yozma nutqni va savodxonlikni rivojlantrish

asosiy maqsad hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda, asosan, o‘qilgan matnlardan didaktik xulosalar chiqarsh muhim sanaladi. Sinf o‘quvchilarining saviyasi, tayyorgarlik darajasiga ko‘ra 3-4-sinflarda matnlarni didaktik tahliliga keng o‘rin berish mumkin, shuningdek, estetik tahlil unsurlarini ham kiritса bo‘ladi. Bu sinflarda she’rlar qofiyasini topish, qofiyaning she’r musiqiyligini ta’minlashdagi ahamiyatiga e’tibor berish, so‘z o‘yinlariga diqqat qaratish estetik tahlil chizgilari deyish mumkin.

O‘qish darsligida “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” (2-sinf) rukni ostida berilgan ertaklarda ham didaktik tahlilga keng o‘rin berish lozim. Masalan, “Tansihatlik – tuman boylik”, “Kenja o‘g‘il”, “Eng yaxshi sovg‘a”, “Aqli bola”, “Hakka bilan tulki” (o‘zbek xalq ertaklari), “Tulki va xo‘roz” (eron xalq ertagi), “Somon, cho‘g‘ va loviya” (Aka-uka Grimmlar) kabi ertak qahramonlari orqali va ularning qilgan ishlari asosida ibratlari xulosalar chiqarishga o‘rgatish zarur. Aslida, ertaklar xalq og‘zaki ijodi janrlari hisoblanadi. Olim D.Quronovning fikricha, “Ertak – xalq og‘zaki ijodidagi epik janr, cho‘pchak. Ertak barcha xalqlar og‘zaki ijodida qadimdan shakllangan va faol janrlardan sanaladi. Ertaklar, asosan, nasrda yaratilib, syujeti asosida sehrli-fantastik, sarguzasht yoki maishiy xarakterdagi voqealar yotadi, voqealar bayoni va talqinda ijodiy fantaziya, to‘qima salmoqli o‘rin tutadi”. [1:375] Ko‘rinadiki, xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertaklardir. Xalq tomonidan yaratilgan ko‘plab ertaklarda bolalarning o‘ziga xos hayoti chetlab o‘tilmagan. Hatto turli yoshdagи bolalar uchun juda ko‘p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo‘ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g‘olib chiqadi. [2:33]

O‘zbek xalq ertaklaridan biri “Kenja o‘g‘il” ertagida otaning o‘g‘illariga har bir shahardan do’st orttirishini o‘sha shaharlarda qo‘rg‘on qurishiga o‘xshatadi. Ha, albatta, bejizga xalqimiz “Do‘sting bo‘lsa, bog‘ing chamanadir” deb aytmagan. Ertakdagи kenja o‘g‘ilning oqila va dono xotini cholning o‘g‘illariga qarata: “Turli shaharlarga borib, qo‘rg‘on solib kelinglar!” [3:134] degan



so‘zlarining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglaydi va shu orqali cholning maqsadi oydinlashadi. Ertak so‘ngida chol: “Har bir shahardan orttirilgan do‘sit u yerga bir qo‘rg‘on qurish bilan teng! Mening maqsadimni faqat kenja o‘g‘lim tushunibdi”, deydi. Mazkur ertakning didaktik tahlili asosida o‘quvchilarga do‘sit orttirish va do‘stni qadrlash zarurligi haqidagi g‘oyalarni singdirish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarga odamlar bilan muloqotga kirish va nutq odobi haqida ham fikrlarni aytib o‘tish lozim. Ertakni sinfda tahvil qilganda har bir o‘quvchidan shaxsiy fikrini so‘rash, “ertakdan qanday xulosa chiqardingiz” deb ularga murojaat qilish tahlilda yaxshi samara beradi. Yana shuni ham aytish kerakki, o‘quvchilar ertaklarni o‘zlari mustaqil mutoala qiladilar. Mustaqillik ularga ishonch va zavq-shavq bag‘ishlaydi. Xalq ertaklarida ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarini tashkillash va olib borish, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning ertaklar olamiga sayohati o‘quvchi ma’naviy dunyosini boyitishda muhim manba. Darslarda o‘quvchilarga ertaklardan to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatish yosh avlodni axloqiy-ma’naviy jihatdan boyitishga, mustaqil fikrlashga undaydi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Quronov D., Mamajonov Z., SHeralieva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent, Akademnashr, 2013.
2. Jumaboev M. Bolalar adabiyoti va ifodali o‘qish. Toshkent, 2017.
3. G‘afforova T., Nurullaeva Sh., Mirzahakimova Z. O‘qish kitobi. 2-sinf uchun darslik. Toshkent, 2018



**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARNING KREATIVLIK QOBILIYATINI  
SHAKLLANTIRISHDA TEXNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI**

**Nurg`oziyeva Dilfuza Juraqulovna**

Jizzax viloyati Do`stlik tumani

10-umumta`lim maktabi

boshlang`ich sinf o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, boshlang`ich sinf texnologiya darslarida o`quvcilarining yosh xususiyatlariga qarab kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish hamda ularni qo`l mehnatining barcha turlari yuzasidan ma`lumotlar berish haqida yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** O`quvchi, o`qituvchi, boshlang`ich sinf o`qituvchisi, boshlang`ich sinf o`quvchisi, texnologiya, kreativlik, qobiliyat, qo`l mehnati, ta`lim-tarbiya.

O`quvchilarni mehnatga o`rgatish va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning yosh xususiyatlari, imkoniyat darajalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda murakkab bo`limgan yumushlarni bajarishlari ayni muddaodir. Zero, mehnat ta`limi va tarbiyasini qo`llash orqali o`quvchilarni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish juda qo`l keladi. Ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati sharoitida mutaxassislikni egallash keng politexnik bilim va malakalar, qobiliyatlar mavjudligiga bog`liq bo`ladi. Bu borada birinchi qadamlar maktabda amalga oshiriladi. Boshlang`ich sinf o`quvchilarini nafaqat ishlab chiqarish, balki mehnatning oddiy turlariga tayyorlashi va bundan uning har tomonlama o`quvchilarni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishini ko`zda tutish lozim.

Texnologiya darslarining turli bosqichlarida bu umumiyy vazifa turlicha hal etiladi. Chunonchi;  
- birinchi bosqichda eshitishda nuqsoni mavjud o`quvchilar mehnat savodxonligini;  
- ikkinchi bosqichda umumiyy texnik tayyorgarlikni;  
- uchinchi bosqichda professional mehnat bilimini oladilar.

Texnologiya darslarida umumtexnik ta`lim bosqichida o`quv –tarbiyaning maqsadi asosida amalga oshadi. Bu esa mehnatning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish va qo`llash sharoitni yaratadi. O`quvchilarda kreativlik qibiliyatlarini rivojlantirish avval oilada, ota-onaning shaxsiy namunalari asosida, keyinchalik maktabda texnologiya darslarida, darsdan tashqari tadbirlar, o`quv yurtlarida yo`nalishlar kesimidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

O`quvchilarni muayyan mehnat malakasi va ko`nikmalari bilan qurollantirishgagina hizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va kreativlik qibiliyatlarini o`stirish va ularda mehnatga munosabatni tarbiyalashda ham muhim ahamiyatga ega bo`lgan mehnat darslari g`oyat zarurdir. O`qituvchining o`z fanini yaxshi bilishi o`quvchilarni muvaffaqiyat bilan o`qitishning eng muhim shartlaridan biridir. O`z fanini yaxshi bilgan o`qituvchi biror buyum-narsani tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirib va ko`rsatib bera oladi, bu esa mehnat amallarini o`quvchining to`g`ri idrok etishini ta`minlaydi. O`qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko`rishi, bolalarga ko`rsatadigan buyum-narsasini o`qituvchining o`zi oldindan tayyorlab ko`rishi lozim, chunki buyum-narsani tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo`llashga to`g`ri kelib qolishi mumkin, agar o`qituvchining o`zi narsalarni oldindan tayyorlasa, o`quvchilarga uni tayyorlatishning mukammallahsgan metod va usullarini ko`zda tutgan bo`ladi.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini yuksaltirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg`otish.

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o`qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o`qiy olmaydi. Bolada o`z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o`qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag`batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o`qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg`otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O`quv mehnatiga ongli munosabatda bo`lish va unga mas`uliyat bilan yondashish.

O`quv mehnatiga ongli munosabatda bo`lishlik ta`limning ijtimoiy, o`qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o`quvchilarga bilim berishdagi bosh vazifasi – o`qish ekanligini tushuntirishi kerak. O`qishga mas`uliyat hissi, faqat vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o`qituvchilar, ota-onalar va o`z oldidagi mas`uliyat, ularning fikrlari, ma`qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o`quv jamoasida munosib o`rinni egallashga ham



tegishlidir.

3. O'quv madaniyatini oshirish.

O'zlashtirishning past bo'lishi aksariyat hollarda, o'qunni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko'nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o'qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o'quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog'liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo'l qo'ymaslik, saranjomlikka o'rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyingchiliklarni yengish.
6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.

Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.

7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish.

O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Sinf o'qituvchilar bilan hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Texnologiya ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari ishlar texnologiya darslarining davomi va qo'shimchasidir. O'quv mashg'ulotlari bilimlarga qiziqishni o'stiradi, sinfdan tashqari ish darsga bilimlarni kengroq qo'llash ham chuqurlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishda darsda beriladigan materiallarni aynan takrorlanmasligi kerak, u sinfdagi ishdan o'zining o'yin, qiziqarli xarakterdaligi bilan ajralib turadi. Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga ishning o'zlariga ko'proq yoqqan, o'zlarini ko'proq qiziqtirgan turini tanlashlari uchun imkon yaratadi. Faqat sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilarning individual kreativlik qobiliyatları yorqinroq namoyon bo'ladi, bu yerda ular istagan ishlar bilan shug'ullanishlari, qo'yilgan maqsadga erishish uchun kerak bo'lgan vaqt va kuchni xohlaganicha sarflashlari mumkin.

Ijodiy mehnat jarayonida faqat qandaydir buyuk ishlar yaratilib qolinmaydi, balki o'quvchining o'zi kiritgan yaqqol xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, xususan kreativlik qobiliyat ijodkorlik sifatlari va o'quvchi hislatlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini hal qilish ham subyektiv, ham obyektiv yangi ko'rsatkichlar bilan harakterlanishi mumkin. O'quvchilardagi ijodkorlik ko'nikmalarini o'stirishda individual yondoshish ta'limning eng muhim prinsiplari birini amalga oshirish yuqori darajadagi qiyin kreativlik qobiliyatlariga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Bularning hammasi o'quvchilarga o'z qobiliyatiga yarasha o'mini belgilashda yordam beradi. Bular esa har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: "Fan va texnologiya". 2009. 121 – 189 b.
2. Bekmurotova N.A. Texnikaviy ijod va dizayn. – T.: "Fan va texnologiya". 2006. 131 – 148 b.
3. Bulatov S.S., Axmedov M.B. Badiiy ta'limning falsafiy asoslari. – T.: "Fan va texnologiya". 2010. 12 – 154 b. va h.k.



BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING TEXNOLOGIYA DARSLARIDA  
KREATIVLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Kulboyeva Dilnoza Abdug`ofurovna  
JD`U o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, boshlang`ich sinf texnologiya darslarida o`quvcilarining STEAM ta`limi yondashuvi asosida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish yo`llari yuzasida ma`lumotlar berilgan.

**Kalit so`zlar:** O`qituvchi, o`quvchi, texnologiya, STEAM, kreativlik, qobiliyat.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Ta`limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-3931-son qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O`zbekiston Respublikasi ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida»gi Farmoni, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil fevraldagi PF-4947-son “O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha Harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi farmoni, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta`lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada hizmat qiladi.

Bizga ma`lumki, boshlang`ich maktablarda san'atsiz faoliyat ko`rsatish o`quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirishida va fikrleshida muvoffaqiyatlari ta`sir ko`rsatmaydi. Ushbu jarayonlarni inobatga olgan holda, STEMni STEAM atamasiga qo`simcha kiritish maqsadli hisoblanadi. STEAM -tanqidiy fikrlesh, tadqiqot vakolatlari va guruhdagi ish ko'nikmalarini rivojlantirish vositasi sifatida bir nechta fan sohalarini birlashtirgan yangi ta`lim texnologiyasi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-soni Farmoni. Qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-soni.

STEAM o`quv dasturi boshlang`ich sinf o`quvchilarini fanlararo va amaliy yondashuv yordamida o`qitish g`oyasiga asoslanadi. Beshta fanning har birini alohida o`rganish o`rniga, STEAM ularni bitta o`quv sxemasiga birlashtiradi.

STEM ta`limi ilmiy usullar, texnik ilovalar, matematik modellashtirish, muhandislik dizaynidan foydalanishga imkon beradi. Bu boshlang`ich sinf o`quvchilarining innovatsion tafakkurini, XXI-asr ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi. Boshlang`ich sinf o`qituvchilarning fikriga ko`ra, integratsiya ko`lab kasblarda muvaffaqiyatli bo`lishga imkon beradi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, ilg`or texnologiyalar o`qitish motivatsiyasini oshiradi va dizayn va dasturlash sohasidagi asosiy bilimlarni kengaytiradi. STEAM ta`limi-bu boshlang`ich sinf o`quvchilarimizda ko'nikmalarini takomillashtirishning yangi darajasiga erishishga imkon beradigan innovatsion usul. Uning yordami bilan biz iqtisodiy jihatdan mustaqil va raqobatbardosh mamlakat bo`lishga imkon beradigan ‘rogressiv kadrlar bazasini shakllantira olamiz.

STEAM ta`limining afzalliklari:

- Mavzular bo`yicha integratsiyalashgan ta`lim.
  - Ilmiy va texnik bilimlarni haqiqiy hayotda qo'llash.
  - Tanqidiy fikrlesh va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.
  - O`z-o`ziga ishonchni shakllantirish.
  - Faol aloqa va jamoaviy ish.
  - Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish.
  - Loyihalarga kreativ va innovatsion yondashuvlar.
  - Har bir bolaning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, bolalar faoliyati orqali texnik ijodkorlik uchun motivatsiyani rivojlantirish.
  - Erta kasbiy yo`nalish.
  - Bolalarni hayotning texnologik yangiliklariga tayyorlash.
  - Ilmiy texnik yo`nalish (STEAM) Texnologiya darslarida o`qitish usullari.
- Texnologiyaning jadal rivojlanishi kelajakda yuqori texnologiyalar bilan bog'liq IT-mutaxassislari, muhandislari, dasturchilari ta`lim tizimi bunday ijtimoiy talabga robototexnika,



dasturlash, modellashtirish (STEAM) doiralarining ‘aydo bo’lishi bilan javob beradi. Yuqori texnologik dunyoda yashaydigan har bir bolaning shaxsiy rivojlanishiga erishish uchun nimani o’rganish va o’rgatish kerak. Har bir bola o’z vaqtida maktabda olib ketilishi va bu yo’nalishda rivojlanishini davom ettirishi uchun qaysi yo’nalishni qiziqtirayotganini tushunishi muhimdir. Ma’lumki, bugungi kunda axborot oqimi juda katta va o’yin-kulgisi vositalari shunchalik xilmashilki, kichkina bola ulkan raqamli dunyoda yo’qolishi mumkin. Shuning uchun o’qituvchi turli xil vakolatlarni rivojlantirishga imkon beradigan bolalar uchun tushunarli bo’lgan vositalarni tanlashi kerak. Bunday vosita “Lego” robot to’hami bo’lishi mumkin. Lego dizayneri bolalarga o’z xususiyatlaridan qat’iy nazar, muvaffaqiyatli bo’lishiga imkon beradi. 3-sinfda o’quvchilar to’rtburchaklar, kvadrat maydoni bilan tanishadilar. Kvadrat, to’rtburchakning ‘erimetri va maydonini to’ish uchun formulalar o’rgatiladi. 4-sinfda o’quvchilar to’rtburchakning diagonallari bilan tanishadilar. Lego Education WeDo ‘rimer ishini qo’llashning o’ziga xos algoritmi sifatida biz uni barcha boshlang’ich sinf texnologiya darslarida ishlashiga misollar keltiramiz. Dars mavzusi 1- sinf “Quruvchi kasbi. Uycha qurish”. Bolalarga Krossvordli jumboq taklif etiladi, avvalo o’qituvchi tomonidan o’quvchilarga lego figuralari, uyning qismlari haqidagi dastlabki nazariy ma’lumotlar beriladi, o’quvchilar uyning qismlari haqidagi to’ldirilgan jumboqlarni to’ldiradi. (uyning qismlarining nomlari krossvord hujayralariga mos keladi). Shundan so’ng, o’qituvchi 5-6 o’quvchi yoki juftlik jamoalariga Uyning istalgan ko’rinishini lego figuralari yordamida to’lashni taklif qiladi. Ushbu jarayonda boshlangich sinf o’quvchilarida lego figuralari yordamida uyning qismlarini birlashtirish orqali matematik bilimlar, rang tanlash ko’nikmalarini, konstruksiyalash va loyihalash kabi dastlabki bilimlar rivojlanadi. Shuningdek, Bugungi mifik o’quvchilari: hali mavjud bo’lmagan kasblar bo’yicha ishlash, hali yaratilmagan texnologiyalardan foydalanish, biz faqat taxmin qilishimiz mumkin bo’lgan muammolarni hal qilish kerakligini tushunishga muvoffaq bo’ladi. Mifik tab’imi jadal rivojlanish maqsadlariga mos kelishi kerak. Tadqiqot va fan-amaliy faoliyatni o’z ichiga olgan integratsiyalashgan o’quv jarayoni bolalarga tabiatshunoslik sohasidagi jonsiz tabiat ob’ektlari bilan yaxshiroq tanishishga imkon beradi va modellarni loyihalash va dasturlashda birinchi ko’nikmalarini egallashga yordam beradi. Bu farzandlarimizning istiqbolli kelajagi uchun yanada yaxshi zamin yaratadi. STEAM- ta’lim yondashuvi akademik ko’rsatkichlarga qanday ta’sir qiladi?

STEAM yondashuvining asosiy g’oyasi quyidagicha: amaliyot nazariy bilimlar kabi muhimdir. Ya’ni, o’rganish orqali biz nafaqat miyalar, balki qo’llar bilan ham ishlashimiz kerak. Fqaqt sinf devorlarida o’qish tez o’zgaruvchan dunyo uchun vaqt yo’q. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bu yerda bolalar ko’lab mavzularni muvaffaqiyatli o’rganish uchun miyalarini va qo’llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlar o’zlarini harakatlari orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan texnologiya darslarida yuqorida keltirilgan barcha bilimlarni mujassamlashtirgan holda tashkil qilsakkina natijaga erisha olamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.
2. Abduqodirov A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.
3. Gulchiroy Abduraimova. Methodical Training of Elementary School Teachers in Technology Subject // «Eastern Euro’ean Scientific Journal» Düsseldorf. – Germany, 2018. Vol. 2. – ‘. 285 – 288. (13.00.00; №20).
4. Gulchiroy Abduraimova. Methodological training of ‘rimary school teachers on the technologic subject // International Conference «Science and ‘ractice: a new level of integration in the modern world». Conference ‘roceedings. – London, 2018. – ‘. 155 – 157.



## XUDOYBERDI TO'XTABOYEV IJODINI O'RGANISH

**Madrimova Sharofat**

Xorazm viloyati Hazorasp tumanidagi  
19-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalar adabiyotining zabardast vakili, romannafis yozuvchi Xudayberdi To'xtaboyev hayoti ijodi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Fe'l etonchi, "Hadik", "Tilxat", "Ona", "Xarakteristika", "Barvaqt aytilgan azon", "Domlaning uyiga o't ketdi", "Maxsus topshiriq", "Jonginam, shartningni ayt".

Xudoyberdi To'xtaboyev katta-yu, kichik bolalarning sevimli adibi. U hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxoniga ma'lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To'xtaboyev 1932-yilning 17-dekabrida Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo'ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirok etdi., hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi.

Bo'lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarda o'qishni yig'ishtirib dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo'qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan Xudoyberdi To'xtaboyev ona qishlog'ida muallimlik qilar ekan, unda ilmga cheksiz ishtiyoq uyg'onadi. Shuning uchun ham u o'qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o'qishga kirdi. Bu yerda Alisher Novoiy, Bobur, G'.ulom, Oybek, O.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o'qidi, o'rgandi.

Universitetni tugatib, Bog'dod tumanida o'qituvchilik qildi. Ilmiy bo'lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko'rsatdi. She'riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilina boshladi. Bu esa bo'lajak adibni markazga – Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug'ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo'ldi. U 1958-yilda Toshkentga ko'chib keldi. "Toshkent haqiqati" gazetasiga ishga kirdi.

"Hadik", "Tilxat", "Ona", "Xarakteristika", "Barvaqt aytilgan azon", "Domlaning uyiga o't ketdi", "Maxsus topshiriq", "Jonginam, shartningni ayt" kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning "Birinchi daraxtim", "Qochoqlar", "Qizg'anchiq", "Dadajon, yozmang", "Kelvordim, dada", "Vali bilan Salim", "Shoshqaloq", "Yashil-yashil" singari o'nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Inson olamga kelibdiki, ona allasi aytilibdiki bolaga rostgo'y bo'lish, yolg'on gapirmaslik masalasi qulog'iga quyiladi. Chunki kim yolg'onchi bo'lsa, o'zgalarga riyokorlik ko'rsatsa, bir kun emas, bir kuni siri fosh bo'ladi, yolg'onchiligi oshkor bo'lgach, izza bo'lib odamlar yuziga tik boqa olmay qoladi.

Shavkat juda shoshqaloq bola, doimo shoshilganidan gap orasida yolg'on-yashiq gapni ham qistirib yuboraveradi. Buni uning qo'shni ayol- Komila xolaga yolg'on gapirib qo'yib, mana bunday izza bo'lib qolishi misolida ham bilib olamiz.

"Kichkina rais" hikoyasining qahramoni kichkintoy o'quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Xudoyberdi To'xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg'otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o'ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergen narsa hayot, vaqtli matbuot, redaktsiyadagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o'qish, o'rganish, o'z ustida ishslash bo'ladi.

Xudoyberdi To'xtaboyev uzoq yillar fel'etonchi bo'lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o'rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo'layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog'iga botgan, molu dunyoga hirs qo'ygan shaxslar haqida talay fel'etonlar yozdi. "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" nomli asarlari ana shu faktlarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to'g'ri bo'ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. [www.talaba.su](http://www.talaba.su) sayti.



## MATEMATIKA DARSLARINI YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH.

**Maksudova Odinaxon Tursunovna.**

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani  
kasb-hunar maktabi  
matematika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushu maqolada umumta'lim maktabalarining matematika darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar va ularning mohiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** trigonometrik funksiyalar, BBB metodi, zinama-zina texnologiyasi.

Ta'lif jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lif samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotda joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarining fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchi, erkin ishtirokchiga aylantirmaq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi.

Hozirda matematika fanini nazariylashtirgan holda o'qitishga, o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashishdan ma'lum darajada voz kechib, o'quvchining kundalik hayotida matematik bilimlarni tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va uni rivojlanirishga erishish, o'quvchilarining mustaqil fikrlash ko'nikmalarini namoyon qilish va faollashtirishga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim bo'ladi. Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limga asosini amaliy, tadbiqiyo yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratilgan. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, matematika fanini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida darslarda pedagogik texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilaman, nima uchun deyishingiz mumkin, sababi matematika fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar turli formulalarni o'rganishadi. Matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari yuqorida.

Hozirgi kunda matematika darslarini samarali tashkil etishda interfaol ta'lif metodlaridan foydalanish muhim o'rinni tutadi. Ular "Aqliy hujum", "Blits so'rov", "Frontal so'rov", "Kichik guruhlarda ishlash", "Davra suhbati", "Ishbop o'yin" "Rolli o'yin", "Babs-munozara", "Muammoli vaziyat", "Loyiha", "Yo'naltiruvchi matn", "Tushunchalar tahlili", "Zakovatli zukko" kabilalar bo'lib, hozirgi kunda 300dan ortiq turlari mavjud.

“Zinama-zina” metodi

“Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhlarga bo'lingan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'ygan vazifasiga qarab belgilanadi. Ahamiyatli jihat, sinfdagi har bir o'quvchining bilimini individual baholashda “Zinama-zina” usuli qo'l keladi. Qolaversa, vaqtini tejashta yordam beradi. Quyida ikki o'quvchini bir vaqtida baholashga misol keltirilgan.

1. Matematika fanining biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.
  2. Doskaga ikki tomonidan bir xil chiqib boriladigan pog'onasimon chizma chiziladi, har bir pog'onaga savollar yoziladi.
  3. Har ikki tomonagi pog'onalar soni teng bo'lishi kerak.
  4. Ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtida bajarishga kirishadi.
  5. Har ikki o'quvchiga berilgan topshiriqlar o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqin hamda o'xshash bo'lishi kerak.
  6. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.
  7. Baholash tartibi pog'onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalga oshiriladi.  
Pog'onalar 9 ta bo'lsa: 8-9 ta to'g'ri javobga "a'lo", 6-7 ta to'g'ri javobga "yaxshi", 5 ta to'g'ri javobga "qoniqarli" baho qo'yiladi
- “B.B.B.” usuli** mashg'ulot davrida talabaning materialni chuqur o'rganishi, tushunib



yetishi, erkin fikrlashiga yo‘l ochadi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

“Trigonometrik funksiyalar” bo‘limi bo‘yicha takrorlash darsida bu usuldan foydalanish mumkin. Bunda trigonomiya bo‘limidagi paragraflarni umumlashtirib, mavzularga bo‘lamiz va jadvalga ketma-ketlikni saqlagan holda tartib bilan yozib chiqamiz va mavzuni qay darajada o‘zlashtirishini bilish maqsadida bilaman, bilishni istayman, bildim so‘zlarini yozamiz.

Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini tubdan qayta qurish, ular o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro yordam, ustoz-shogirdlik munosabatlarini qaror toptirishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar darsda qanchalik faol ishtirok etishsa va erkin fikrlashsa, shuncha ko‘proq bilmiga ega bo‘ladi. Buning uchun esa biz matematika fani o‘qituvchilari doimo izlanishda bo‘lishimiz darkor. Har bir darsimizni yangi pedagogic texnologiyalar hamda AKT vositalari yordamida olib borsak, o‘quvchilarning ham darsga bo‘lgan qiziqishlari ortadi, bilim darajasi yuqorilaydi. Eng asosiysi keyingi darsni intiq bo‘lib kutishadi. Ana shundagina biz o‘z maqsadimizga erishamiz, dars samaradorligi ortadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O‘.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005.



## BOSHLANG`ICH SINFLARDA OT SO`Z TURKUMINI O`RGANISH

Matyoqubova Zamira Jumaniyozovna

Hazorasp tumanidagi 19-maktabning  
boshlang`ich sinf o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ot so`z turkumi va uni o`rganish haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Grammatik tushuncha, egalik qo`shimchasi, Grammatik belgi, xususiyat.

“Ot” mavzusini o`rganish tizimi maqsadga yo`naltirilgan jarayon bo`lib, bunda shu so`z turkumining umumlashtirilgan ma`nosi va grammatik belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog`liqlikda o`rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to`g`ri foydalanish va to`g`ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o`rganish vazifalari, o`quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ularni o`rganish izchilligi belgilangan.

Boshlang`ich sinflarda otni o`rganish vazifalari quyidagilar:

1) “ot” haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish;

2) *kim?* so`rog`iga javob bo`lgan (shaxs bildirgan) otlardan *nima?* so`rog`iga javob bo`lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko`nikmasini hosil qilish;

3) kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo`yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko`nikmasini shakllantirish;

4) otlarda son (otning birlik va ko`plikda qo`llanishi) bilan tanishtirish;

5) otlarni egalik qo`shimchalari bilanto`g`ri qo`llash ko`nikmasini shakllantirish;

6) otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo`shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;

7) o`quvchilar lug`atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o`rinli foydalanish malakasini o`stirish;

8) so`zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o`zaro bog`liq holda hal etiladi. SHu bilan birga, “Ot” mavzusini o`rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo`lgan bir vazifani hal qilishga ko`proq ahamiyat beriladi. Masalan, I-II sinflarda so`z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so`roqlari) o`rganiladi, III sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko`plikda qo`llanishini o`zlashtirishga ahamiyat beriladi. IV sinfda otning egalik qo`shimchalari bilan qo`llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo`shimchalarining yozilishini o`rganishga e`tibor qaratiladi. O`quvchilarning nutqi va tafakkurini o`stirish vazifasi esa mavzuni o`rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o`rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o`quvchilar lug`atini boyitishga, bog`lanishli nutq malakalari va fikrlesh qobiliyatlarini o`stirishga qaratiladi.

So`z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma`nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma`nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonlimavjudotlar (*kishi, qush, hayvon, asalari*), yer va osmonga oid narsalar (*quyosh, yulduz, daryo, tog'*), o`simliklar (*paxta, beda, gul*), voqealar (*yig`in, majlis*), tabiat hodisalari (*shamol, bo`ron, yomg`ir, momaqaldiroq*), belgi-xususiyat (*ahillik, kuchlilik, samimiyyat*), harakat-holat (*uyqu, sevinch, kurash*), o`rin va vaqt (*yoz, bahor, joy*) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko`plikda qo`llanadi, egalik qo`shimchalari bilan o`zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko`proq ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe`l bilan birika oladi.

Otning ma`nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o`quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

### Foydalilaniganabiyotlar:

1. A.G`ulomov. Ona tili o`qitish printsiplari va metodlari. T.: O`qituvchi, 1992.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) sayti.



## KEY DIMENSIONS IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE

Nasirova Guzal Palvannazirovna

Teacher of school number 22 of Khiva district

Phone: +998 (99) 716 57 91

[nasirova.guzal\\_22@inbox.uz](mailto:nasirova.guzal_22@inbox.uz)

Ro'zmetova Shahlo Muzaffar qizi

Teacher of school number 5 of Koshkopir district

Phone: +998 (97) 458 99 88

[rozmetovashahlo\\_9988@inbox.uz](mailto:rozmetovashahlo_9988@inbox.uz)

**Annotation:** This article provides information on the key dimensions of English language teaching.

**Key words:** The European CLIL, the Culture Dimension, the Environment Dimension, the Language Dimension, the Learning Dimension, Communicative

The European CLIL Compendium has presented the various reasons for implementing CLIL under five key dimensions involving culture, environment, language, content and learning. The schools can decide freely which dimensions will be given more emphasis than others and which learning and development outcomes their CLIL programmes focus on. The dimensions of CLIL are:

The Culture Dimension: building intercultural knowledge and understanding, developing intercultural communication skills, learning about specific countries, regions and/or minority groups, introducing the wider cultural context.

The Environment Dimension: prepare for internationalization, access international certification, enhance school profile.

The Language Dimension: improve overall target language competence, develop oral communication skills, deepen awareness of both mother tongue and the target language, develop plurilingual interests and attitudes, introduce a target language, allow learners more contact with the target language. The Content Dimension: provide opportunities to study content through different perspectives, access subject-specific target language terminology, prepare for future studies or working life.

The Learning Dimension: complement individual learning strategies, diversify methods and forms of classroom practice, increase learner motivation and confidence in both the language and the subject being taught.

Immersion and CLIL: The Main Differences. Immersion education and CLIL have similar goals and methods, but they differ in three main respects. First, a pre-requisite for successful immersion is a society that enables the learners to become functional bilinguals and in which the first language of the learners has a strong position. Basically, this applies to societies with two official or main languages. This is not a pre-requisite for CLIL. Second, in immersion education the learners learn to read and write in the immersion language, whereas in CLIL they learn to read and write in their first language. Third, in immersion classes approximately 50% of the teaching and learning discourse should take place in the immersion language while in CLIL the minimum requisite is only 25%. Moreover, immersion has well established methodological principles and goals whereas CLIL is an umbrella term for various educational models and goals, including immersion itself.

These differences considered, the term that best describes the educational model followed by the informants of this study is CLIL: the foreign language content varies between 30—50% per day and the pupils learn basic literacy skills in Uzbek.

The pupils do not need to speak or write English before commencing the programme, but their language aptitude is tested before they are admitted to the programme to ensure that they are able to undertake the programme. Pupils are, thus, selected on the basis of their score in the language aptitude test. Involving both an underlying language learning capacity and the capacity to handle decontextualized language, language aptitude has been found to be one of the best predictors of L2 learning. Studying in both Finnish and English typically means much extra work and challenges for the pupil as well as requires ample support from parents. Practically, all CLIL pupils speak or



at least understand Finnish at the start of the programme even if their first language is something different. They also learn to read and write in Finnish on the first grade. The first graders also practice reading, writing and spelling in English, but on a very basic level suitable for second language learners. Many pupils continue in English speaking or CLIL classes in the secondary level.

The bilingual classes follow the school's general curriculum and the general learning goals and principles are the same as for the mainstream Finnish speaking classes. Pupil evaluation also follows the same general principles. It is stated in the school curriculum that the language of instruction should not affect the learning outcomes or evaluation.

The CLIL teachers in Uzbekistan are native speakers of Uzbek and have a native-like proficiency in English. The teachers have much freedom in deciding which content to teach in Finnish, in English, or in both languages, as long as approximately half of the instruction is carried out in English. Generally, some contents are more suitable to learn in Finnish, such as Finnish history and the geography of Finland and the Nordic Countries. Mathematics is taught mainly in English, and only the most essential mathematical concepts are learned in both languages. All CLIL pupils attend Finnish as a mother tongue lessons and L2 speakers of Finnish take Finnish as a Second Language lessons once or twice a week.

English has an A1 language status in bilingual classes, meaning that besides content instruction in English, the pupils attend formal EFL lessons taught solely in the target language by a native speaker. At the time of the data collection, there was one native English-speaking teacher for the bilingual classes. The general linguistic goal of the CLIL programme is to provide the pupil with a functional command of the English language and the ability to use it properly and concisely to convey meaning. This includes having knowledge about the language, listening attentively, talking to the point, reading with understanding, and writing fluently with accurate spelling and punctuation. The content of language learning is closely connected to the language skills needed in other academic subjects (e.g. mathematics, history and science). The pupils should learn the most essential concepts and contents in different academic subjects in both English and Finnish, so that they may continue their studies in either language.

Communicative language teaching is based on the view that language is learned primarily by taking part in meaningful interaction and carrying out authentic communicative tasks, defined by Nunan as a “piece of classroom work which involves learners in comprehending, manipulating, producing or interacting in the target language while their attention is principally focused on meaning rather than the form”. Communicative tasks involve, for example, problem solving, group work and collaborative learning.

### **List of used literature**

1. Apthorp, H. 'Effects of a supplemental vocabulary programme in third grade reading/language arts.' *Journal of Educational Research*, 100:2, 67-79. (2006)
2. Beals,D.'Sources of support for learning words in conversation: evidence from mealtimes.' *Child Language*, 24:673-694. (1997)
3. Biemiller, A.'Vocabulary: needed if more children are to read well.' *Reading Psychology*, 24:323-335. (2003)



## BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA MASALALAR YECHISHNI O'RGATISH METODIKASI

Nazarova Mehribon Azatovna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limgan islohlari qilish, o'quvchilarda matematik salohiyatni oshirish, boshlang'ich sinflarda matematik masalalar yechish qobiliyatini shakllantirish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, metodika, masala, matematika, faoliyat, ta'limgan, rasm, tushuncha, uzlusiz ta'limgan.

Ta'limgan islohlari sifatida ta'limgan tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, davlat va nodavlat ta'limgan muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish, majburiy umumiyoq o'rta ta'limgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limgan o'tilishini ta'minlash, ta'limgan boshqarish tizimini takomillashtirish, ta'limgan jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish, ta'limgan va ilm-fan bilan bog'liq chet el hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish kabilalar belgilandi.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish umuman mакtab matematika kursini o'zlashtirishning dastlabki bosqichi sifatida qaraladi, Shu sababli boshlang'ich sinflarda ishlashda o'rta maktabda matematika o'qitishda ko'zda tutiladigan umumiyoq masalalarini hisobga olish va bu masalalarini hal etishda boshlang'ich ta'limgan ahamiyatini to'g'ri baholash kerak. Boshlang'ich sinf matematika o'qitish jarayonida sodda masalalarini yechishni o'rgatishni tashkil etish orqali o'quvchilarning matematik tafakkurlarini shakllantirish, kasbiy ko'nikmalarni tarkib toptirish, umumlashtirish kabi xususiyatlarni o'quvchilarda shakllantirish masalasi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Ushbu ta'limgan jarayonining markazida esa ta'limgan jarayonining sub'ekti bo'lgan o'quvchi hamda ushbu jarayonning rahbari – o'qituvchi turmog'i lozim. Chunki bu ikkala shaxsnинг hamkorligi, o'zaro muloqoti, bir-biriga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri eng zamonaviy, demokratik talablar asosiga qurilishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchi:

- o'quv biluv jarayoniga qo'yilgan talablar;
- ta'limgan tashkil etish va boshqarish yo'llari va prinsiplari;
- o'quvchini aqliy hamda jismoniy jihatdan rivojlantirish metodlari;
- o'quvchi bilan hamkorlik qilish, uni bilim olishga va kasb tanlashga yo'naltirish;
- o'quvchi yoshlarning kundalik faoliyatini to'g'ri tashkil etish;
- ular bilan do'stona muloqotga kirishish;
- kundalik o'quv faoliyati jarayonida uchraydigan muammolar va kelishmovchiliklarni bartaraf etish yo'llarini birgalikda izlash;
- o'quvchilar orasida ishchanlik muhitini vujudga keltirish; ularning faoliyatini aniq va to'g'ri baholashi kerak.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan uzlusiz ta'limgan tizimining isloxitasi ta'limganda qotib qolgan ko'p qoidalarning o'zgartirilishini, respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlarni xisobga olgan, ilmiy asoslangan yangi, yaxlit tizimning shakllanishini taqozo etadi.

Yuqorida mulohazalarni boshlang'ich ta'limgan matematika darslari misolida ko'rib o'tamiz. O'quvchilarda dastlabki hisob kitob ishlarini bajarishda rasmla misol va masalalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Masalan: O'quvchida 14 ta rangli va 2 ta oddiy qalam bor. O'quvchida hammasi bo'lib nechta oddiy qalam bor?

Berilgan:

14 ta rangli qalam



2 ta oddiy qalam





Jami qalam nechta?

Yechish:  $14 + 2 = 16$  ta

Javob: 16 ta

Bu masala orqali o'quvchilarda ayirish haqida tushunchani shakllantirish, mustahkamlash va yig'indini topishga doir bilimlar hosil bo'ladi. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda yangi bilim vujudga keladi va mavjud bilimlar tadbiq qilinadi, shu orqali mustahkamlanadi. Masalan, bilimlarning shakllanishida nazarriyani amaliyat bilan, o'qitishni turmush bilan bog'liq olib borish imkonini beradi. Masala yechish orqali xarid qilingan narsaning narxini, kvartira ta'mirlashning bahosi, poyezdga kechikmaslik uchun uydan qachon chiqish kerak, degan turli xildagi amaliy hisoblashlarni hal qilib beradi. O'quvchilar masalalarni yechayotganda turli xil matematik tushunchalar – son, arifmetik amal, qo'shiluvchi, yig'indi, qoldiq kabilar bilan tanishadilar, shuningdek atrof muhitdagi, fandagi, texnikadagi turli xil bog'liqli muammolar bilan tanishadilar va uni yechadilar.

Matematika o'qitishda tashkil etilgan sodda masalalarni yechish o'quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirish va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog'liq bo'lган tomonlarini tushunishlariga imkon beradigan faoliyat turlaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev.M. vab.q.“Boshlang'ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi” T- 2005 y
2. Mardanova F.I. «Matematikadan test topshiriqlari» 4-sinf T-O'qit 2007-y
3. Internet saytlari.



## 1-SINF O'QUVCHILARINI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI O'RGANISH

Nurmetova Salomat O'rino boyevna  
Hazorasp tumanidagi 19-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqlada maktab yoshiga yetgan o'quvchilarni maktabga psixologik tayyorlashni tashkil etishdan iboratdir.

**Kalitso'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, psixologik tayyorgarlik, o'quv jarayoni, bola shaxsiy ongi, xulq-atvor.

Bolalar ni maktabga to'g'ri tayyorlash – bu birinchi navbatda kelajakda bo'ladigan rejim va yuklamalarning o'zgarishini hisobga olib ularning sog'lig'i va kayfiyati haqida g'amxo'rlik qilish, va faqat keyingina yangi formalar, sumkalar va boshqa mayda-chuydalar olish uchun yoqimli taraddudlardir. Ayrim psixologlarning fikricha, bola maktabda o'qishi uchun atrofdagi narsa va hodisalarga doir anchagina tasavvurlarga ega bo'lishi hamda ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lishi lozim. Biroq u hayotda shunday voqealar uchraydiki, anchagina tasavvur boyligiga ega bo'lgan va hattoki yozish hamda o'qishni biladigan bolalar ham maktabdagagi o'qishga tayyor bo'lmaydilar. Ular maktab va o'qituvchining talablarini bajara olmaydilar. Aksincha, ayrim bolalar yetarli tasavvur boyligiga ega bo'lmasalar ham, maktabda o'qib keta oladilar. Lekin, bundan maktabdagagi o'qish jarayoni uchun ma'lum darajada aqliy jihatdan o'sgan bo'lish maktabda dastlab o'qib ketish uchun eng zarur shartlardan biridir. Lekin bu bolaning o'qishga tayyor ekanligini aniqlashdagi hal qiluvchi omil emas, chunki bu yerda yosh masalasi ham bor. Boshqa bir olimlar, bolaning o'qishga tayyor ekanini aniqlashdagi asosiy narsa iroda sifatlarining yetilganligidir, deydilar. Bu fikr bir yoqlamalikka yo'l qo'yishdan boshqa narsa emas.

Bolaning yeti yoshga to'lishi bilan shu davrdan boshlab bolalarda o'z-o'zini anglash tarkib topa boshlaydi. Shuning uchun bolalarning yeti yoshga to'lgan davridan boshlab sistemali suratda o'qitishga o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagagi bolalar o'zlarida tug'ilgan birtalay hissiyotlar ta'siri bilan bir maqsadni belgilaydilar. Agar bolalarning oldilariga qo'yilgan maqsad ularga qattiq ta'sir qilib, hissiyotlarini uyg'otsa, bunday paytda bolalar o'zlariga xos ravishda iroda kuchi va qat'iylik ko'rsatishlari mumkin.

Bolalarda 5-6 yoshdan boshlab shaxsiy ong tarkib topa boshlaydi. Bu shunday hollarda ko'rinaridiki, bolalar o'zlarini yashab turgan ijtimoiy muhitdan o'z o'yinlarini belgilashga, kattalar bilan yanada yaqinroq yanada to'laroq munosabatlar sistemasini o'rgatishga intiladilar. Katta guruh bolalari maktabga borishdan ancha ilgari yoq maktab haqida orzu qila boshlaydilar. Maktabning qanday ekanini kattalardan tez-tez, surishtirib turadilar. Maktabga boorish vaqtlarini aniq bilishga harakat qiladilar. Agar biror o'rtoqlari maktabga o'tib ketsa, juda xavaslari kelib, o'zlarini bog'chada qolganlaridan o'ksinib ketadilar. Katta yoshdagagi bog'cha bolalarining maktabga intilishlari ijtimoiy munosabatlar tizimidan yangini egallashga bo'lgan intilishlarining konkret ifodasıdır.

Shunday qilib, bolaning maktabdagagi o'qishga tayyorligi shaxsining ijtimoiy yetuklik bosqichlaridan biridir. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning bunday yetuklik bosqichiga bola o'z-o'zidan ko'tarilmaydi. Uni bu bosqichga bog'chadagi va oiladagi butun ta'lim tarbiya ishi ko'taradi. Bola yeti yoshga to'lganda jismoniy jihatdan ancha o'sadi, o'zini idora qilishga, nojo'ya xatti harakatlardan o'zini tiyishga, xulq-atvor qoidalarini o'zlatishga harakat qiladi. U o'zini eplay boshlaydi, o'z kuchiga yarasha mehnat qila oladi, masalan, bolalar bog'chasida navbatchilik vazifasini bemalol uddalaydi. Jamoada yashashga ko'nika boshlaydi. Bolaning turmush tajribasi tobora ortadi, Ko'p narsalarning nomini va ulardan qanday foydalanishni biladi. Xotirasi va tasavvurlari o'sib, ko'pgina she'r va hikoyalarni yoddan bilib oladi. Bolaning nutqi ma'lum darajada o'sgan bo'ladi, u o'z o'rtoqlari va kattalar bilan erkin suxbat qila oladi. Yetti yoshli bolalarning his-tuyg'ulari ancha o'sadi.

Xayrixohlik, rahmdillik, o'rtoqlik kabi his-tuyg'ular mustahkamlana boshlaydi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T- 2017
2. Do'stmuhamedova.Sh.A., Yosh davrlari va pedagogic psixologiya T



## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DAARSLARIDA QO'LLANADIGAN METODLAR

**Olimova Muqaddam O'rinnovna**  
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 4-makab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
(+998919230712)

**Annotatsiya:** Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakkllari, metodlari va usullari ta'lif tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. Ona tili darslarini turli metodlar bilan tashkil qilish darsni yanada samarali bo'lishiga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** suhbat metodi, metod, everestik metodi, guruhash metodi, katexeztik metodi

XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish- bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'lifi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

Bayon qilish metodi ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilaming o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarini o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi

ma'lumotlarni o'z so'zlarini bilan bayon qilib bergen. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinalarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilaming yoshi va eslab qolish holatidan kelib chiqqan holda 3–5 daqiqaga mo'ljallangan. Bayon qilish metodini qo'llash holatlari hozir ham uchraydi.

Suhbat metodi boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llanadigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'lilda o'quvchilarini faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarini o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilaming bilish qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'quvchining

topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinfo'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to 'g 'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfdagi muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham vuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova «Ona tili o'qitish metodikasi»
2. Internet ma'lumotlari



“ТА’ЛИМ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА УСТОЗЛАРНИНГ РОЛИ”

Otaboyeva Sohiba

Xonqa tuman 6-maktab targ'ibotchisi

*Annotatsiya:* Har yili 1 oktyabr` – Ustoz va murabbiylar kuni keng nishonlamoqda. Qadim zamonlardan ustozga bo`lgan chuqur xurmat va e`tiroz saqlanib qolgan. Ustoz deganda, har kaysi inson kunglida chukur xurmat – ehtirom va cheksiz minnatdorchilik tuyg`ulari, shu bilan birga, xech kanday boylik bilan o`lchab, ado qilib bo`lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo`ladi.

Inson yashar ekan, eng avvalo, unga bilim va ma`rifat dunyosi sari yo`l ochib bergan, uning qalbiga yuksak insoniy fazilatlar hissini singdirish yo`lida zahmat chekkan ustoz va murabbiylariga nisbatan ko`nglida hamisha minnatdorchilik tuyg`usi bilan yashaydi. Maktab ostonasiga ilk qadam qo`yanimizda qo`limizga qalam tutqazib, alifboni o`rgatgan birinchi ustozimiz siyosini, ustozimizning fidokorona mehnatini doimo chuqur entikish bilan eslaymiz va qalbimizda ularga nisbatan hurmat-ehtirom hissini tuyamiz. Ko`z nuri va qalb qo`rini ustozdek mashaqqatli va fidokorona kasbga bag`ishlagan azizlarimizni samimiyl qutlab, minnatdorchilik bildirish biz shogirdlar uchun ham qarz, ham farzdir!

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi Parlamentga Murojaatida “nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a`zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma`rifat, yuksak ma`naviyatni rivojlantirish”ga alohida e`tibor qaratilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o`qituvchining pedagogik mahorati, ilg`or tajribalari muhim ahamiyatga ega. Chunki o`qituvchi ilm-ma`rifatli kadrlar tayyorlash, o`quvchilarni turli sohalarga yo`naltirish, uzluksiz ta`lim jarayonlarida islohotlarni amalga oshirish, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash, xorijdagi ilg`or tajribalarni chuqur o`rganish, ta`lim jarayonini yangilash, o`qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo`llashda ilm-ma`rifatga asoslanish kabilarni amalga oshirishga mas`ul shaxs hisoblanadi. 2020-yilning “Ilm, ma`rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e`lon qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko`tarishni taqozo etadi.

Shu jihatdan Yurtboshimiz ta`kidlaganidek, “Ilm yo`q joyda qoloqlik, jaholat va albatta to`g`ri yo`ldan adashish bo`ladi. Sharq donishmandlari aytganidek “Eng katta boylik — bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros — bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik — bu bilimsizlikdir”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o`zlashtirish, chinakam ma`rifat va yuksak madaniyat egasi bo`lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo`ldan borish imkoniyatini beradi”.

O`qituvchi o`zining faoliyatida malakali va tajribali, chuqur bilimga ega, davlat tili va chet tillarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va o`qitishning innovatsion uslublarini bilishi, klaster metodi asosida boshqa tashkilotlar, yirik kompaniya va birlashmalar bilan aloqada bo`lishi, o`qitishning innovatsion shakl va uslublarini joriy qilgan holda ta`lim mazmunini takomillashtirishi, milliy va jahon adabiyoti, musiqa, kino, haykaltaroshlik, amaliy san`at va boshqa ijodiy yo`nalishlardagi bilimlarga ega bo`lishi, o`quv jarayonida ta`limning ilg`or shakllari, pedagogik texnologiyalar va axborot yangiliklarini joriy etish maqsadida xorijiy ta`lim tashkilotlari bilan yaqin hamkorlikni yo`lga qo`yishi, zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ijodiy tanlovlardan, test va boshqa sinovlar asosida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini, ijodiy iste`dodini rivojlantirishga qaratilgan mashg`ulotlar olib borishi kabilar ta`lim-tarbiya samaradorligini oshiradi.

### Foydalilanidigan adabiyotlar.

1. <https://buxdu.uz/yangiliklar/1807/talim-sifati-samaradorligini-oshirish-asosiy-maqsadimiz/>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-sifat-samaradorligini-oshirishda-xalqaro-tajribalar-dan-foydalanish>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-samaradorligini-oshirishda-sifat-nazoratini-tashkil-etishda-o-qituvchilarning-vazifalari>



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'SH O'ZLASHTIRUVCHI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

**Otojonova Shirin Bahodirovna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 942 30 07

otojonova.shirin+3007@inbox.uz

**Otajonova Dilorom Ozodovna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: + 998 (91) 917 17 01

dilorom.ozodovna\_5scool@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashning samarali usullari haqida.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ish, aqliy rivojlantirish, mustaqil faoliyatga o'rgatish, pedagogik mahorat.

Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishslashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insomni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi mакtab o'quvchilarida ta'limga uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun, avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatlari bajarishiga ishonch uyg'otish lozim. Mustaqil ish turlari, avvalo, o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga yo'naltirilgan va davomiy bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, yosh xususiyati, qiziqishlari ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirish shartlaridan biri topshiriqlarni to'la "eslab qolib" bajarishdir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan(tasavvur qilgan) holda uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'1 qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishi uchun qulay usullarni tanlash, yo'naltiruvchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir.

O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatlari bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvuri yorqin, so'z boyligi yetarli emas. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituchi rahbarligida ishlaganda, tezroq mulohaza qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, "yana o'ylasang topasan", "juda yaxshi", "juda soz!" kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir. Masalan, "O'roq va Kombayn" mavzusi yuzasidan: O'roq nega afsuslanadi? Kombayn unga nima dedi? Kabi savollar berib, har ikkisini solishtirish orqali texnikaning kuch-quvvatiga bolalar e'tibori tortiladi, har bir texnika asbobining hayotimizdagi ahamiyatini baholashga o'rgatiladi.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim: – beriladigan har bir topshiriq o'quvchi imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin;

– ish osondon qiyinda, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

– ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;

– mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin(hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish – mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak;

– topshiriqlar turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

topshiriqlarni hamma bir vaqtida boshlab, ma'lum vaqtida tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

– ish joyi hamisha qulay, saranjom-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmashligi) kerak;

– topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin; – darslik, didaktik materiallar bilan ishslashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiq.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha, sinf



sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishda me'yorga amal qilish kerak. Bolalar darsdan(og'ir, mashaqqatli mehnatdan) keyin tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr bilan vaqt o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishga, xulosa chiqarishga undashi lozim.

Tan olish kerakki, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash ancha murakkab jarayon. O'qituvchining pedagogik mahorati, zamonaviy dars o'tish usullaridan foydalanishi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi bilan yakka tartibda ish olib borishi natijasida uni samarali amalgalashish mumkin.

**Foydalanilgan abdiyotlar ro'yhati:**

- 1.Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: 2003.
- 2.Jumaev M.E.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. – T.: 2004



## O'QUVCHILARGA INGLIZ TILI FANINI O'RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

**Quramboyeva Maxliyo Alisher qizi**

Xorazm viloyati Tuproqqa'l'a tumani

19-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Telefon:+998974511612

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada dars davomida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga qaratilgan bir qator interfaol metodlar, qiziqarli bo'lgan turli mashqlar, topshiriq va vazifalar xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** interfaol metodlar, usul, muammoli vaziyat, quvnoq topishmoqlar va viktorina savollari.

Dars davomida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish har bir pedagog oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'quvchilarga qiziqarli bo'lgan turli mashq, topshiriq va vazifalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday interfaol metodlardan “Muammoli vaziyat” metodi – ijodiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida dars jarayonida yaxshi natija beradi. Bu usulni qo'llash uchun o'quvchilarga biror hikoyaning boshsanishi o'qib beriladi yoki o'qishga beriladi, uning qanday yakun topishi esa o'quvchilar fikrlashiga havola etiladi.

One day, father sent his son out to sell a sheepskin. «Bring me back the skin», he said «and the money for it». The young man tried to sell the skin but in vain because nobody wanted to buy it on those terms. So he decided not to go home at all because he was afraid of his father. When he came to a bridge over the river, he met a girl. Seeing that Jack was very sad, she asked him: «May I ask you why you are so sad?»

«My father has given me the skin», said Jack, «and I must bring back both the skin and the money for it».

Hikoyani shu yerda to'xtatib, qiz yigitning muammosini qanday yechib berishini o'quvchilardan so'rash mumkin. O'quvchilar vaziyatga har xil yondashib, o'z fikrlarini bayon qiladilar. Agar voqeа quyidagicha yakun topsa, to'g'ri hisoblanadi: The girl carried the skin to the river and, after washing it in the water, took the wool from it. She paid Jack for the wool and gave him back the skin to carry it home.

O'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishda topishmoqlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilar notanish so'zlarni o'rganib, topishmoq javobini topadilar. Topishmoqlarni hazil tariqasida ham tuzish mumkin:

1. What is white when it is dirty and black when it is clean? (a blackboard)
2. What has two arms and four legs (an armchair)
3. What goes up when rain comes down? (an umbrella)
4. What man wears the biggest hat? (the one with the biggest head)
5. What islands are good to eat? (the sandwich Islands)

Viktorina savollari ham biror mavzu yuzasidan o'tkaziladigan nazorat savollaridan sanaladi. Bunda savollar tayyorlanish uchun uyga berilmaydi. Ular kartochkalarga yoziladi va dars jarayonida bajariladi. 1-jamoa savol, 2-jamoa esa javob beradi. Bunday mashqlar o'tkazishdan maqsad o'quvchilarning eshitish va tinglash qobiliyatini o'stirish. Bu usul orqali o'quvchilar Grammatik jihatdan to'g'ri savol berishni ham o'rganadilar. Masalan, «Great Britain» mavzusi o'tib bo'lingach, viktorina savollarini tuzish mumkin:

1. Why did the Romans call Britain «Albion»?

Answer: «Alba» means «white» in Latin, and the white chalk cliffs were the first things the Romans saw when they came on the southern coast of Britain.

2. Which parts of Great Britain are the centres of the woollen and cotton industry?

Answer: Yorkshire is the centre of the woollen industry. The centre of the cotton goods industry is Manchester.

Viktorina savollarini so'zlar ta'rifi bo'yicha ham tuzish mumkin. Bunda o'quvchi to'g'ri ta'rifi topishi kerak bo'ladi. Bu usulning afzalligi shundaki, kartochkalar o'quvchilar soniga qarab beriladi va barcha o'quvchilar bir vaqtida darsda ishtiroy etish imkoniga ega bo'ladilar. Masalan, quyidagi fe'llarga ta'rif bering:



**Card 1**

to preserve

**1.to save**

2.to finish work early

3.to prepare

**Card 2**

to paraphrase

1.to speak clearly

**2.to express a thought in another way**

3.to divide a long text into smaller sections

Matnlarga mos savollar tuzish mumkin. Viktorina kartochkalarini darslarda qo'llash o'quvchilarni o'ylashga, axborot olishga, axborot berishga, birgalikda ishlashga o'rgatadi. Eng muhim, dars samaradorligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. G'oziyev E. Psixologiya. Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti, 1994

2.Google.



## TEXNOLOGIYA FANI PEDAGOGIKA FANINING TARMOQLARIDAN BIRI SIFATIDA

**Radjabova Nargiza Marimovna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 858 12 78

radjabova.nargiza\_5scool@inbox.uz

**Qadamova Surayyo Amanbayevna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (89) 268 14 49

qadamova.surayyo\_5scool@mail.ru

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmoqlaridan biri sifatidagi pedagogik jarayon haqida

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, umumtexnika fanlari, texnik, mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika, elektronika asoslari.

Texnologiya fani ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash o'quv rejasida umumiyligi ta'lim fanlari va mahsus fanlarda o'qitish nazarda tutilgan. Mahsus fanlarga umumtexnik, texnika va pedagogika fanlari kiradi. Umumtexnika fanlariga texnik mexanika asoslari, mashinasozlik asoslari, elektrotexnika va elektronika asoslari kirib, texnik fanlar bo'yicha bilim egallashga asos bo'ladi. Chizmachilik va chizma geometriya, materialshunoslik, ishlab chiqarish jarayonini mechanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning ekonomikasi asoslari, elektromantaj ishlari va elektr bilan ishlaydigan maishiy asbob (pribor)lar va boshqa texnik fanlar jumlasiga kiradi.

O'qituvchining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologiya, pedagogika, texnologiya va kasb ta'limi metodikasi, chizmachilik va rasm o'qitish metodikasi, məktəb gigiyenasi kabi fanlarni o'rganishda amalga oshadi. Shunday qilib, texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" ixtisoslashtiruvchi fanlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu fanlar boshqa fanlarni pedagogika, psixologiya va hokazolarni takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog'lanishda bo'ladi. "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" kursi o'rganish, umumiyligi ta'lim məktəbidagi texnologiya fanining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkiliy prinsiplarini va uning mazmunini anglab olinishi, məktəb ustaxonalarida ta'lim tarbiya jarayonini muvoffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasi sifatida o'rganilishi lozim.

"Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" alohida roli shuki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga ongli munosabatni tarkib topishi uchun ob'ektiv qulay sharoit vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga yana shu sharoitdan qanday qilib to'la foydalanishni ko'rsatish modulning vazifalaridan biridir.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining tarmog'i sifatida o'z ob'ektlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega. Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlari; o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning bilish faoliyati, o'qitish natijalari va boshqalar o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Pedagogika fanining tarmog'i sifatida texnologiya fanini o'qitish metodikasi oldiga qo'ygan assosiy tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Kuzatish. Kuzatish jarayonida tadqiqotchi o'quv jarayonining borishiga aralashmay, faqat nima sodir bo'layotganini qayd qilib boradi. Tadqiqotchi oldindan kuzatishning maqsadi, vazifasi va metodikasini belgilab oladi. Eksperiment. Eksperiment kuzatishdan farqli ravishda tadqiqotchi tomonidan vujudga keltirilgan jiddiy, aniq sharoitda o'tkaziladi.

Eksperimentda vaziyatni keraklicha takrorlash mumkin. Tajriba avval kichik guruhda, so'ng sinfda, bir necha sinf va məktablarda o'tkaziladi. Natijaning samaradorligi haqida xulosa chiqariladi.

Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, uni umumiyligi tahlil qilish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga oid tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Ilg'or tajribani kuzatish, o'qituvchilar bilan suhbatlashish, o'quvchilarning



ishlari bilan tanishish va boshqa yo'llar bilan o'rganish mumkin. Ilg'or tajribani o'rganish va tarqatishda pedagogik o'qishlar muhim rol o'ynaydi.

Nazariy tadqiqotlar. Metodikani ishlab chiqishda kuzatish metodlari yoki eksperiment yo'li bilan tadqiq qilib bo'lmaydigan malakalarni xal qilishga ham to`g'ri keladi. Masalan, o'quv materialining mazmunini asoslash amaliyotda to`plangan bilim va malakalarning tegishli kompleksini o'rganishdan boshlanadi. Bu holda tadqiqot analiz metodi bilan o'tkaziladi, ya'ni bilim va malakalarning butun kompleksi ajratiladi. So'ng hamma eksperimentlar ichidan o'quv dasturi mazmuniga kiradiganlari tanlab olinadi. Ya'ni analizga teskari jarayon-sintez sodir bo`ladi. Analiz va sintez nazariy tadqiqot metodlaridandir. Demak, metodika mustaqil tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langan holda, hamkorlikni amalga oshiradi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylarining asoslari – T.: 2006. – 163 b.
2. Tolipov O.Q., Barakayev M., Sharipov Sh.S. Kasb ta'limi pedagogikasi. – T.: 2003. - 88 b.



## BOSHLANG`ICH SINFLARDA BADIY ASARNI TAHLIL QILISHNING METODIK SHARTLARI.

Rajabova Fotima Amonovna

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
4-maktabning boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
(+998906133972)

**Annotatsiya:** Zamnaviy mакtab oldiga qo`yilgan vazifalar, kichik mакtab yoshidagi o`quvchilar umumiy rivojlanishining o`sganligi, psixologiya va xususiy metodika sohasidagi yutuqlar sinfda o`qish mazmuni va o`qitish metodlariga o`zgartirish kiritishni talab etmoqda. Shularga bog`liq holda badiiy asarni tahlil qilish metodikasi takomillashtirib kelinmoqda.

**Kalit so`zlar:** Hissiy ta`sir, xalq og`zaki ijodi, jonlantirish, o`xshatish, analiz, sintez, ekskursiya, tez o`qish, ongli o`qish.

O`qituvchining butun fikri o`quvchilarida, o`zi sochgan urug`larning o`sishidadir. Demetriy Ivan Mendeleyev

Boshlang`ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to`g`ri, tez, ongli, ifodali o`qish, malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g`oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, sujet chizig`i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o`quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishida xizmat qiladi.

3. O`quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfda o`qishga o`quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi. Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo`lgan muhim omillardan biri uning o`quvchilarga hissiy ta`siridir. O`quvchilar muallifning asosiy fikrinitushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Tahlil davomida asarning estetik qimmati, badiiy go`zalligi ham alohida qayd qilib o`tiladi. O`quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma`noni chuqur o`rganishga yordam beradi. O`qituvchi badiiy asar ustida ishslashda quyidagi masalalarni hal qilishi lozim:

1. Asar ustida ishslashning maqsad va mazmunini aniqlab olishi.

2. Asarni tahlil qilish uchun dars bosqichlarini belgilab olishi.

3. Har bir asar tahlili uchun topshiriqlar tizimini ishlab chiqishi.

4. Asarni qanday metodlar asosida o`rganishni aniqlashi.

5. O`quvchilar egallaydigan bilim ko`nikma va malakalar doirasini belgilab olishi.

Boshlang`ich sinflarda badiiy asar ustida ishslash uch asosiy bosqichga bo`linadi:

1. Birinchi sintez. Bu bosqichning asosiy vazifasi matnni yaxlit idrok etish asosida asarni aniq mazmuni bilan tanishishdan iboratdir.

2. Analiz. Bu bosqichning vazifasi va ish mazmuni voqealar rivojining bog`lanishini belgilash, ishtirot etuvchi shaxslarning xulq-atvorini aniqlash.

3. Ikkinci sintez. Bu bosqichning ish mazmuni ishtirot etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish.

Xulosa: Shunday qilib, boshlang`ich sinflarda ham badiiy asar matnni tahlil qilishda, umuman, badiiy 5 o`rganishda o`quvchi shaxsiga kuchli ta`sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o`zlashtirilishini ta`minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov va boshqalar “Ona tili o`qitish metodikasi” Tosh

2009

2. Internet ma'lumotlari



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHNING  
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

**Raximberanova Iqbol Farxod qizi**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 942 09 16

raximberanova.iqbol\_5scool@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari hamda zamonaviy o'quv multimedia majmualari haqida.

**Kalit so'zlar:** Informatika, axborot texnologiyalari, o'quv multimedia majmualari, interaktiv proyekcion tizim, kompyuter, interaktiv sensorli display, simsiz grafik planshet, interaktiv so'rov tizimi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani dars samaradorligini oshirishda innovatsion usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarning asosiy jarayoni: tashkil etish; hamkorlikda olib borish; takomillashtirish; tahlil qilish; qiyoslash; umumlashtirish; xulosa chiqarish; boshqarish; nazorat etish; baholash kabilarni o'z ichiga oladi.

Dars jarayonini samaradorligini oshirish uchun: darslarda interfaol elektron didaktik vositalar, multimedia ilovalar, audio vizual elektron darsliklar, immitatsion o'quv vositalar, online muloqatlar va boshqalardan foydalanish katta samara beradi. O'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy innovatsion va axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari sifatida zamonaviy o'quv multimedia majmualari (O'MM) bilan ta'minlangan o'quv xonalari bo'lib, u quyidagi rasmida keltirilgan. Zamonaviy innovatsion o'quv multimedia majmua QOMO HiteVision qurilmasi bazasida yaratilgan bo'lib, uning tarkibiga ultra qisqa fokusli QOMO interaktiv doska ham kiradi. O'qituvchi stol-seyfiga audio-video qurilma, jumladan sensor terminalli boshqarishga mo'ljallangan hujjat o'quvchi kamera, interaktiv planshet, taqdimot ko'rsatuvchi kompter o'rnatilgan.

Zamonaviy innovatsion O'MM mablag'i sinflari yoki ta'lim muassasalari o'quv auditoriyalarini jihozlash uchun mo'ljallangan. Zamonaviy innovatsion O'MMning bosh maqsadi - o'quv jarayoni samaradorligi va maqbulligini keskin oshirishdan iborat. Zamonaviy innovatsion O'MM quyidagi funksional elementlardan tashkil topadi:

- interaktiv proyekcion tizim (multimediali proyektor i interaktiv doska);
- o'qituvchi kompyuteri;
- universal stolli hujjat-kamera;
- interaktiv sensorli display;
- simsiz grafik planshet;
- interaktiv so'rov tizimi;
- videomateriallarni ko'rsatadigan ovoz beradigan tizim;
- Flash-karta;
- sensor terminalni boshqarishga mo'ljallangan integrallangan tizim;
- maxsus stol-seyf.

O'quv multimedia majmuani yuklash va o'chirishda ON/OFF tugmasidan foydalaniladi.

Majmuaning elementlari shunday tuzilganki, uning qo'shimcha komutatorning funksional xizmatiga ehtiyoji yo'q. O'MMda ishlash va uni boshqarish o'qituvchi ishini keskin yengilashuviga olib keladi. O'MMni boshqaruvi sensorli terminal yordamida amalga oshiriladi.

Boshqaruvi tizimining SmartControl® interfeys tizimi orqali kompyuterdan, kameradan, noutbuk yoki DVD/VHS-pleerdan interaktiv doskaga ma'lumot chiqarish mumkin. Bu o'z navbatida o'qituvchi ishini keskin osonlashtiradi va o'qituvchiga O'MMni boshqaruvi haqida bilimga ega bo'lmasdan, uni qo'shimcha o'rganishsiz boshqaruvi imkoniyatini yaratadi.

O'MM asosida o'quv jarayonini tashkil etish:

- O'quvchilarda o'qishga qiziqishni orttirishi;
- Ta'limning interaktiv xususiyati asosida o'quvchilarning fikr lash qobiliyatlarini rivojlantirishi;
- O'quv materiallarini o'zlashtirishining samaradorligini oshishi;
- Real holatlarda namoyish qilinishi qiyin, yoxud murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va kuzatish imkoniyatini berishi;



- O'quv materiallarining o'zlashtirilishi nafaqat darajasiga ko'ra, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlari darajasiga ko'ra ham samarali bo'lishini ta'minlashi;
- O'quv-metodik ta'minotining samarali integratsiyasini ta'minlashi;
- O'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni topish, o'rganish hamda muammoli masalalarni hal etish orqali ularda ma'lum iqtidorini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishi;  
Axborot hamda ma'lumotlarni tahlil eta olish kabi malakalarni shakllanishi uchun sharoit yaratishi kabi didaktik vazifalarni amalga oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya.-T.: "Fan", 2009. -145 bet.



FIZIKA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR NING  
AHAMIYATI.

Roziaxunova Nigoraxon Ulug'bekovna  
Andijon viloyati Xo'jaobod tumani kasb-hunar  
maktabi fizika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada fizika darslarida interfaol metodlarni qo'llash samaradorligi haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** malaka, ko'nikma, pedagogik texnologiya, fizikaviy mashq, kim topqir o'yini.

Ta'lif jarayonini tashkil etishning muhim xususiyati o'quvchilarga muayyan fan asoslari borasidagi bilimlarni berish, hamda ularning o'zlashtirilgan nazariy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish, ko'nikmava malakalarini shakllantirishdan iborat. O'quvchilar tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar va ularni tashkil etish chog'ida esa o'zlashtirilgan nazariy bilimlarga tayanish layoqatining yuzaga kelish holati ta'lif jarayonining samarasini sifatida belgilanadi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar amaliy faoliyatda qo'llanilib, ularda shaxsiy xislatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Hozirgi kunda fizika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar, elektron darsliklar, multimediyalar va virtual laboratoriyalardan keng foydalanimoqda. Fizika fanini o'rganish kuzatish va tajribaga tayanar ekan, demak dars jarayonida tajribalarni muntazam o'tkazish, o'lchash usulidan foydalangan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning fizika faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortiradi.


Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan fizika ta'liming interfaol metodlari ta'lif jarayonining yengillashuvini, aniqlashuvini, keng jamoani qamrab olishga mo'ljallanganligini, o'qituvchining faqatgina yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi nazoratchiga aylanishini, o'qitishning erkin va majburiyatsizligini hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun o'ta qiziqarligini va samaradorligini ta'minlab bera oladi. Biz o'qituvchilarning vazifamiz taqdim etilayotgan fizikaviy ma'lumotlar tizimini o'quvchilar ongiga singdirishda imkon qadar oson, qiziqarli, serqirra va shu bilan birga samarali yo'llarini ishlab chiqarishdan iborat. Interfaol metodlarning qo'llanilishi fizika darsi jarayonini beixtiyor psixologik o'yin yoki musobaqaga aylantirib, passiv o'quvchilarni ham bir oz bo'lsa-da, fikr yuritishga, o'z fikrlarini keng ommaga izhor etishga, umuman sinfda kechayotgan bahs - munozaralarga befarq bo'lmasdan, faol ishtiroy etishga undaydi. An'anaviy usulda tuzilgan darsga o'quvchilarning faqat bilim olishiga talab qo'yilgan bo'lsa, fizika ta'liming yangi modelida bilim bilan birga ta'lif samarasini oshirishda tanqidiy, mustaqil fikrlashga o'rgatish ham yuqori o'ringa qo'yiladi. Interfaol dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishi zarur, ya'ni dars o'tish jarayonida o'quv materiallarining ma'lum bir qismi o'quvchilar tomonidan mustaqil o'rganiladi (yakka, juft - juft yoki guruh bo'lib), so'ngra bu material sinfda har tomonlama muhokama etiladi. Amaliy ishlar ham shu tariqa bajariladi.

Darslarni nostandart usullarda tashkil qilish keyingi yillarda o'yin tarzida o'tkazish usullarini ham amaliyotda keng qo'llashga alohida e'tibor berilmoqda. Masalan, darslarni mo'jizalar maydoni, didaktik o'yinlar tarzida tashkil qilish mumkin. Bunday usullarga bir nechta misollar keltiramiz:

**"Fizikaviy mashq".** Bu o'yin ko'p sondagi o'quvchilarga bilimlarni tezlikda tekshirishga imkon beradi. Sinf qatorlar bo'yicha jamoalarga bo'linadi. Har bir qator esa ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'quvchilari, agar ular javob beradigan obyekt haqida so'z borganda yoki o'rnidan turadi, yoki qo'l ko'taradi.

**"Kim topqir o'yini".** Bu o'yinni o'tkazishda o'qituvchi avvaldan tayyorlab kelgan savollarini sinf o'quvchilaridan tashkil topgan 3 guruhga konvert ichiga solib taqdim etadi. Savollarga javob berishda guruhlar javoblarni o'qituvchi tomonidan berilgan oq vatman qog'oz ga yozadilar. Berilgan javoblar o'quvchi tomonidan tekshiriladi va baholanadi.

**"Baliq skeleti " metodi:** Bu usul orqali o'quvchilar mustaqil, keng, ijodiy, tanqidiy fikrlashga o'rganadilar. Bu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar.



Fizika darslarini ana shunday metodlar orqali olib borish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini yanada orttiradi, bilimini mustahkamlaydi, mavzularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tilgan darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyon qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash imkoniga ega bo'ladilar. Bu esa, darsning samaradorligini oshirib, ta'lif sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Karbaliyeva Guljaxan Ermekbayevna “Fizika o'qitish metodikasi” T-2014
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARNING  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI**

**Saidova Manzura Xusainovna**

Xorazm viloyati Urganch shahridagi  
6-son mактабнинг boshlang‘ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish omillari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** integratsiyalashgan dars, o’qituvchi, o’quvchi, munosabat, ta’lim, integral yondashuv, usul, vosita,

Integratsiyalashgan darslarni samaradorligini oshirish uchun avvalo, qaysi darslar integratsiyalish uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi-turli fanlar asosiy mavzularni mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqalariga bo’g’liq bo’ladi. Boshlang‘ich sinflarda ushbu fanlarning birikishini ko’rish mumkin: o’qish-rus tili, o’qish-tabiyy fan, o’qish-tasviriy san’at, o’qish-musiqa, tabiiy fan-matematika, tabiiy fan-mehnat ta’limi, matematika-jismoniy tarbiya. Didaktik tizimda predmetlararo asosda integratsiyalash o’qituvchi(ta’lim berish), o’quvchi(ta’lim olish) harakatlarining mos kelishini ko’zda tutadi. Ikkala faoliyat ham umumiy tuzilishga ega: maqsadlar, sabablar, mazmun, vositalar, natijalar, nazorat. Biroq o’qituvchi va o’quvchi faoliyatlarining mazmunida farq bor va ular quyidagilar:

1. Maqsadli bosqichda o’qituvchi umumiyoq maqsadni qo’yadi. O’quvchilar o’qituvchi boshchiligidan predmetlararo bog’liqliklarni tushunib yetishlari, turli predmetlardan kerakli bilimlarni tanlab olishlari kerak, bunda ular o’z e’tibor fikrlarini faqat umumiyoq bilimlarini o’zlashtirishga mos emas balki, ko’chirish tahlil qilish shaxsnинг belgilari qobiliyat va qiziqishlarining rivojlantirishga qaratishlari kerak.

2. Isbotlash bosqichida o’qituvchi o’quvchilarning dunyoqarashini o’stiruvchi bilimlarga, turli predmetlar tushunchalarini umumlashtirishga rag’batlantiradi. O’quvchilarning irodasini kengaytiruvchi bilimlarni o’zlashtirishga yo’naltiradilar.

3. Faoliyatning mazmun bosqichida o’qituvchi yangi materialni kiritadi, shu bilan birga integratsion dalillar, tushunchalar, muammolar majmui darajasidagi boshqa predmetlardan olingan tayanch bilimlarni jalg qiladi. O’quvchilar umumumpredmetli tushuncha muammolarni umumiyoq bilimlar darajasida o’zlashtiradilar.

4. Vositalar tanlash bosqichida o’qituvchi turli predmetlar bilimlarini umumlashtirishga yordam beruvchi ko’rgazmali vositalarni-darsliklar, tablitsalar, sxemalar, savolnomalar, amaliy vazifalar, o’quvchilar ko’chirish, umumlashtirish, biriktirish harakterlarini integratsion masalalarini hal qilishga ko’rgazmali vositalar yordamida bajaradilar.

5. Keyingi bosqich-natija. O’qituvchi ta’lim berish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida integratsiyani amalga oshirish uchun pedagogik bilimlarni qo’llaydi. O’quvchi bilimlar tizimida, umumlashtirish ularni amalda qo’llaydi.

6. Nazorat qilish bosqichida o’qituvchi bir-biri bilan bog’langan predmetlarga o’quvchilarning tayyorgarligini baholaydi, nazorat qiladi, o’zlashtirish sifatida baholaydi. O’quvchilar o’z bilimlarni baholashni, turli predmetlar bo’yicha o’z-o’zini ham, ularni birlashtirish ko’nikmalarini nazorat qiladilar.

Tekshiruvlar ko’rsatishicha integral yondashuvni amalga oshirishga yordam beruvchi usul va vositalarga:

- 1.Evristik suhbatlar, umumiyoq suhbatlar, ekskursiyalar;
- 2.Ona tili – tabiiy fan darslarida kuzatishlar, badiiy asarlar materiallari asosida nutq o’stirish uchun yozilgan ijodiy ishlar;
- 3.Ta’limning ko’rgazmali metodlari;
- 4.Mustaqil ishlar;
- 5.O’qish, matematika darslarida og’zaki rasm chizish;
- 6.Imo-ishorali ko’rinishlar(pantomimalar);
- 7.Tabiiy fan darslarida tabiat tasvirlarini ifodali o’qish;
- 8.Ona tili darslarida tabiiy fan darslariga oid diktantlar, matnlar yozish (shu sinfga tegishli orfogrammalarni takrorlagan holda);



9.O'lkashunoslik asosida matematik masalalarni hal qilish, yechish va boshqalar.

Ta'limni tabaqlashtirish rad etmaydigan, uni to'ldiradigan integratsiya tizimini kiritish yaxlit dunyoqarashga, o'zidagi bor bilimlarini mustaqil tartibga solish va turli muammolarni hal qilishga noan'anaviy yondashish qobiliyatiga ega bo'lgan bilimdon yoshlarni tarbiyalashga an'anaviy predmetlarga bo'lib o'qitishga nisbatan ko'proq yordam beradi.

Ta'limni integratsiya qilish mohiyati nimadan iborat? Ta'limga bog'liq "Integratsiya" tushunchasi ikkita ma'noga ega:

1.O'quvchida atrofdagi olam to'g'risida yaxshi tasavvur hosil qilish (bu yerda integratsiya ta'lim maqsadi sifatida ko'rildi).

2.Predmetli bilimlarni yaqinlashtirish uchun umumiy platformani topish (bu yerda integratsiya ta'lim vositasi).

Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berilishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich mакtab amalga oshirishi kerak.

Integratsiya - predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqlashtirilgan bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rnatish lozim. U ta'lim oluvchining bilimini oshirishga, ta'limdagи tor ixtisoslashtirishni yangilashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga integratsiya ta'limning klassik o'quv predmetlari o'rnini egallash kerak emas, u faqat olinayotgan bilimlarni yaxlit bir tizimga birlashtirish kerak xolos. Muammoning qiyin tomoni integratsiyani ta'limning boshidan oxirigacha dinamik rivojlanadir. Agar boshida "hamma narsa to'g'risida ozgina bilish" lozim bo'lgan bo'lsa, keyinchalik tarqoq bilim va ko'nikmalarini birlashtirish kerak bo'ladi va oxiriga kelib "ozgina narsa to'g'risida hamma narsani bilish" kerak bo'ladi, ya'ni bu yangi integratsiya darajasidagi ixtisoslashtirishdir.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. T. G'afforova Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.
2. O'.Tolipov, M.Usmonboyeva Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari.
3. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)



**RUHIY RIVOJLANISHI ORQADA QOLGAN BOLALAR BILAN OLIB  
BORILADIGAN KORREKSION MASHG'ULOTLAR**

**Samigova Nargiza Xasanovna**  
Toshkent shahar Yunusobod tumani  
560-DKTIMTT tarbiyachi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj ya’ni ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar va ularda kuzatiladigan ruhiy holatlari xususida ma’lumotlar bayon etiladi.

**Kalit so’zlari:** intellekt, tafakkur, somatogen, psixogen, korreksion ta’lim.

Ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalarni O‘zbekistan Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida maxsus ta’lim-tarbiya berish va korreksion-rivojlantirishning bosh maqsadi - yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda maktab ta’limini davom etishga tayyorlashdan iboratdir. Ruhiy rivojlanishda orqada qolganlik murakkab nuqson bo‘lib, u bolalarda psixik (ruhiy), psixologik va jismoniy faoliyatning turli tomonlarining me’yordan orqada qolishida, turli ruhiy jarayonlarning sekin sur’atlarda rivojlanishida namoyon bo‘ladi. Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak qon-tomir kasalliklari sabab bo‘lishi mumkin. Amaliyotda ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar va ulardagi orqada qolish sabablari odatda 3-5 yoshida aniqlanadi hamda quyidagi shakllarga bo‘linadi:

- konstitusion shakl - bunda bolada irrodaviy-xissiy buzilishlar kuzatiladi;
- somatik shakl - tugma yoki orttirilgan, infeksiyali surunkali kasalliklar natijasida orttirilgan somatik yetishmovchiliklar;
- psixogen shakl - noxush ijtimoiy muhit, shaxs shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar (oilada surunkali janjal, noto‘g‘ri tarbiya, qarovsizlik, ichkilikbozlik, giyohvandlik va h.k.) natijasi;
- serebral - organik shakl yetakchi shakllardan bo‘lib, bunda nuqson oliy asab tiziminnng organik o‘zgarishlarida namoyon bo‘ladi.

Ruhiy rivojlanishdan orqada qolish iborasidagi orqada qolish atamasi bu holatning vaqtinchalik xususiyatga ega ekanligini hamda rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola maxsus tashkil etilgan va doimiy nazorat qilinadigan shart-sharoitda o‘z yoshiga mos aqliy va jismoiy darajaga yetishi mumkinligini anglatadi. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalarni rivojlantirish, korreksiyalash hamda nuqsonlarini bartaraf etish uchun kattalar tomonidan uyuşhtirilgan maxsus ta’lim-tarbiya zaruratidir va faqat shu yo‘l bilangina bolalar o‘zlarining sog‘lom tengdoshlari qatoriga ko‘shilishi mumkin. Ta’lim-tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, bunday bolaga bilim berishda tarbiyachi uning o‘ziga xos individual xususiyatlarini e’tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Olimlarning o‘tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko‘rsatadiki, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar o‘zlashtirish jihatidan olganda sog‘lom va yengil darajadagi aqli zaif bolalar o‘rtasida oralig‘ o‘rinda turadi. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar aqli zaif, yengil darajadagi aqli zaif bolalarga nisbatan ancha yaxshi tushunadi va bularni bajarish uchun ularda kerakli imkoniyatlar mavjud bo‘ladi. Ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolalarning o‘zlashtirish qobiliyati sog‘lom tengqurlariga nisbatan past bo‘lsada, yengil darajadagi aqli zaif bolalarnikidan ancha durust bo‘lganligi uchun bunday bolalarni ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanadilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, oilada, maxsus maktabgacha tashkilotlarida ruhiy rivojlanishi orqada qolgan bolaga nisbatan to‘g‘ri munosabatni o‘rnatalishi, juda g‘amxo‘rlik yoki o‘ta qattiqqo‘llik qilinmasligi; mehnat, o‘z-o‘ziga xizmat qilish malakalarini shakllantilishi; sog‘lom tengdoshlari bilan tez-tez muloqotda bo‘lib turishini tashkil etish; atrof-muhitdag‘i narsa va hodisalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirilishi; aqli zaif bolalar uchun maxsus ta’lim-tarbiya va korreksion tadbirlar qancha erta boshlansa, bolaning amaliy malakalarini egallashi oson kechishini unutilmasligi lozim.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mamedov K.K., Shoumarov G‘. B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. – T.: 2010
2. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: 2008
3. G‘oziyev. E.V. Umumiy psixologiya. – T.: 2010
4. Raxmanova. V.S. Defektologiya asoslari. –T.: 2017
5. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv ta’lim. –T.: 2011



KITOBOXONLIKNI SHAKLLANTIRISH BOSHLANG’ICH TA’LIMDA ZARURATI

Suvonkulova Nigora Abduvayitovna  
Sirdaryo viloyati Guliston shahri  
5-umumi o’rta ta’lim maktabi  
Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson ma’naviyatining sarchashmasi bo’lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so’zlar:** Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi ta’bir joiz bo‘lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma’naviyatimizda g‘oyat ulkan voqeа bo‘ldi. Ushbu sa’y-harakat milliy adabiyotimiz va ma’naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo‘lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o‘rinda xorij tajribasini o‘rganish, yoshlар o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqidir. Buyuk shoир va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o‘qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirrog‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma’rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyalı, kasb-hunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘sit bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rnii bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo‘lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘sit bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada



shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onha har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish
2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



## ONA TILI DARSLARIDA LUG`AT USTIDA ISHLASH

Tilavova Dilrabo Olimovna

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
4-makab boshlang`ich sinf o`qituvchisi  
(+998919742366)

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinflar o'quv dasturida ona tili, o'qish bolalarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqni o'stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir", deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

**Kalit so`zlar:** Grammatika, tahlil, nutq, estetika, etika, so`z tarkibi, urg`u, bo`g`in.

Ona tili o'qitishning bosh maqsadi ham tilning jamiyatda tutgan o'rni, vazifasi bilan belgilanadi. Til - aloqa vositasi, chunki so'zlovchi fikr-mulohazalarini til orqali bayon qiladi, tinglovchi esa til vositalari orqali ro'yobga chiqqan fikrni anglaydi. Ona tili fani o'quvchilarini fikr bayon qilish va uni uqib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida ro'yobga chiqadi, shu sababli har bir kishi tilni va undan foydalanishni biliishi zarur. Tilni bilish uning grammatik qonun-qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilining boy imkoniyatlardan amaliy foydalana bilish hamdir, ya'ni fikrni og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim. Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limi jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlamning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ulaming qaysilari maxsus ishlashnitaqozo etishini belgilab olishi kerak. Tilning lug'at boyligini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi uchun ona tili darslarida so'zlar va ularning ma'nolari quyidagicha tanishtiriladi:

1. O'quvchilar notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchi uning ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblnadi. Masalan, 1 -sinf "Ona tili" darsligida xabib (do'st), darparda (oyna o'rniga shaffof qog'oziyopishtilgan derazaparda), mag'rur (kekkiyagan, mag'rur – kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq – xazon bo'lmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do'st, birodar, qarindosh-urug), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo'mondan, lashkarboshi), zeb (bezak, ko'rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko'shk) kabi so'zlarga duch keladilar. Bunday so'zlamning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan, qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarida so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.

2. O'quvchilami so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning bir ma'nosini tushunsa, boshqa ma'nosini bilmasliklari mumkin. Bolalar so'zlarning hamma ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydilar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.K.Qosimova, S.Matchonov, X.G`ulomova «Ona tili o'qitish metodikasi»
2. Internet ma'lumotlari



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA TABIATSHUNOSLIK  
TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI**

**Turdiyeva Zulkumor Madraxim qizi**  
Xonqa tumani 6-sod mabtag o'qituvchisi  
Telefon: +998 (99) 947 10 44  
turdiyeva.zulkumor\_6scool@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiatshunoslik tushunchalarining klassifikatsiyasi, tushunchalarini shakllantirish bosqichlari, umumiyligi, geografik va biologik tushunchalar hamda tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tabiatshunoslik tushunchalar, klassifikatsiya, umumiyligi tushunchalar, geografik tushunchalar, biologik tushunchalar, ekskursiya, sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirish yakka tushinchalar.

Boshlang'ich sinflarda tabiat to'g'risidagi bilimlar tarkibiga jonsiz tabiat jismlari va hodisalar, o'simlik va hayvonlar, odam tanasining tuzilishi va salomatlikni muxofaza qilish, yilning fasllarida qishloq xo'jalik mehnati to'g'risida tasavvur va tushunchalar, oddiy jo'g'rofik tasavvur hamda tushunchalar kiradi.

Atrofiolam bilan dastlabki tanishish ularning sezgi organlarining qabul qilishiga asoslanadi. Olamni bilib olishning birinchi bisqichi-bolalarning barcha yangilarni qarab chiqishga iloji bo'lsa ushlab ko'rishga qaratilgan tug'ma intilishdir. Shunga ko'ra dastlabki tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirishga o'quvchiga o'rganish ob'yekti bilan bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatini berishi kerak.

Ekskursiyalarda, kuzatishlar vaqtida o'quvchilar kundalik xayotning narsalarini qabul qilib, ulargi o'xshashlik va tafovut belgilarini topadilar. Ularda oddiy tushunchalar shakllanadi. Fikrlash jarayonida bolalarda aniq fikrlar vujudga keladi. Fikr bevosita qabul qilish va tasavvurlar asosida shakllanadi. Fikrlash faoliyati jarayonida bolalarda atrof olam to'g'risida tushunchalar shakllanadi. Tushuncha ochib beriladigan fikrlar yig'indisi uning mazmunini tashkil qiladi. Tabiat jismlari yoki ob'yektlarining birortasi to'g'risida bolalar qanchalik ko'proq fikr aytalar, tushunchalar mazmun jihatdan chuqurroq bo'ladi. Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar oladigan tushunchalar jo'g'rofiy (umumiyligi, aloxida va yig'ma) va biologik (tur va avlod) tushunchalariga bo'linadi.

Tabiatshunoslik tushunchalari-bu umumiyligi muhim belgilari bilan birlashtirilgan ob'yektlar, hodisalar, jismlarining butun guruhi to'g'risidagi umumlashtirilgan bilimlardir.

Tushunchalar tasavvurlardan farqlidir. Tasavvur- sezgi organlar faoliyatining, hotiraning yoki tasavvur qilish mahsulidir. Tushuncha – tafakkur mahsuloti hisoblanadi. Tushunchalar qabul qilinadigan va tasavvur etiladigan narsalar ustida fikr yuritish natijasida vujudga keladi. Tushuncha butun narsalar sinfiga taaluqli umumlashgan mazmunni aks ettiradi. Tasavvurlar tushunchalarning sezgili asosi hisoblanadi, biroq tasavvurlar bilan tushunchalar o'rtaida keskin chegara yo'q. Tasavvurlar mazmunning boyib borishi, ularda narsalarning muhim xossalarni tobora ko'proq aks ettirib borishi bilan umumlashadi va tushunchalarga aylanadi.

Tabiatshunoslikni o'rganishda bolalar Toshkent, Sirdaryo, Tyan-Shan tog'lari kabi yagona tushunchalar; tog'lar, daryolar, shaharlar kabi umumiyligi tushunchalar; archa, qarag'ay, terak, namatak, jasmin, oq quyon, kulrang quyon kabi tur tushunchalari; daraxt, buta, quyonlar va boshqa avlod tushunchalari bilan uchrashadilar. Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida jo'g'rofiy tushunchalarini biologik tushunchalar bilan bog'lanishiga e'tibor bermoq zarur.

Tabiatshunoslik tushunchalarni shakllantirishda har xil operatsiyalar: sintez, tahlil, taqqoslash, mavxumlashtirish, konktetlashtirish, umumlashtirishdan foydalanishga alohida ahamiyat berilish kerak.

Yakka tushunchalar – bu yoki boshqa narsalarga, hodisalariga xos bo'lган yakka belgilardir. Agar umumiyligi tushunchalar atamalar bilan mustaxkamlansa, yakka tushuncha nomlar yoki shaxsiy ism bilan ifodalanadi, chunki uning nomida boshqa ob'yekt bo'lmaydi. Yakka tushunchalarini shakllantira borib, umumiyligi tushunchani ochishga alohida e'tibor berish lozim.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmasdan, ularni fikrlash ishiga jalb qilmasdan turib tushunchalarning o'zlashtirilishiga erishish mumkin emas. Tabiatshunoslik tushunchalarni o'zlashtirishda predmetlararo bog'lanishlar (musiqa, o'qish, matematika, ona tili, mehnat, rasm)



katta ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. I.Nuritdinova "Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi" T., 2005 yil.
2. V.M. Pakulova, V.I.Kuznetsova. "Tabiatshunoslikni o`qitish metodikasi". – M., Prosveschenie, 1990.
3. Petrosova R.A., Golov V.P., Sivoglazov V.I. Metodika obucheniya yestestvoznaniiyu i ekologicheskoe vospitanie v nachalnoy shkole. – M., 1999.



## STEAM TA'LIMIGA BO'LGAN QARASHIMIZNING AHAMIYATI.

Tursunboyev Olmos Vaxob o'g'li,

Jizzax davlat pedagogika

universiteti o'qituvchisi

Телефон: +998936674070

tursunboyevolmosbek5597@gmail.com

**Annotatsiya.** STEAM ta'lifi texnologiyasi o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Tayanch tushunchalar:** tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, layoqat, samaradorlik, amaliyat, integratsiyalashuv, iqtidor, strategik maqsad, zamonaviy dars.

STEAM ta'lifi texnologiyasi tabiiy fanlar, texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari asosida o'quvchilarini o'qitish metodikasi bo'lib, o'quvchida amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunda fanlarning o'zaro uyg'un holda yozilgan o'quv dasturlari bir-birini to'ldiradi va birgalikda o'quvchida yaratuvchanlik layoqatini hosil qiladi. STEAM ta'limining rivoji tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya), texnologiya, tasviriy san'at, matematika fanlari dasturlarining mazmun-mohiyati, mavzularning mantiqiy ketma-ketligi va uzviyilgining ta'minlangani hamda o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'ladigan bilim va ko'nikmalarning aniq belgilanishi bilan bog'liq.

STEAM ta'lif muhitida bolalar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rGANADILAR. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

STEAM yondashuvi bizning ta'lif va ta'limiga bo'lgan qarashimizni o'zgartirmoqda. Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rGANADI. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lif vazifasini tashkil etadi, ya'ni. bu butun ta'lif tizimi nimaga intilishini.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'yashlari kerak. O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an'anaviy ta'limining asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytaksak, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O'zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo'ladi.

Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ega bo'lamic, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.B.Radjiyev, A.A.Ismailov, J.R.Narziyev. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent, 2019 yil.

2. PISA 2015 Released Field Trial cognitive items .

3. Nurillayev B.N., Tillaboev A.M., M.Yu.Atayeva., S.S.Jumanazararov. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua // T.: 2017.



## ROBOTOTEXNIKA FANINI O'QITISHDA TINKERCAD ONLAYN XIZMATIDAN FOYDALANISH

**Umarov Xusan Abduraximovich**

Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta'lif

metodikasi kafedrasi v.b. dotsenti, PhD

E-mail: umarov.khusan@gmail.com

Tel: +99894 687-58-18

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologik ta'lif yo'nalishi talabalariga robototexnika fanini o'qitishda onlayn xizmatlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.


**Kalit so'zlar:** texnologiya, robototexnika, onlayn xizmat, tinkercad, sxema.

Bugungi kunda XXI asr texnika va texnologiyalar asri talabalariga javob beradigan malakali kadrlar avlodini shakllantirish uchun mamlakatimizda keng ko'lamli ishlar olib borilyapti. Ana shu harakatlar qatorida maktab o'quv dasturlari tarkibidagi texnologiya fani mazmuniga robototexnika kursini singdirilishi hisoblanadi. Chunki rivojlangan davlatlar zamonaviy ta'lif dasturlarida robototexnika kursi va uni samarali o'qitish masalasi yetakchi o'rinn egallaydi.

Shuni inobatga olgan holda, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ham bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda texnologiya ta'lif yo'nalishi talabalariga robototexnika kursini alohida fan sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan. Shu boisdan ham umumiy o'rta ta'lif va oliy ta'lif muassasalarida robototexnika alohida dars sifatida o'qitilishi zamon talabiga aylanib ulgurdi[1].

Mazkur fanni samarali o'qitishda turli robototexnikaga oid to'plamlar bilan bir qatorda zamonaviy AKT texnologiyalari va internet xizmatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Robototexnikani o'rganishda Tinkercad onlayn xizmati noldan virtual sxema yaratish uchun elektron komponentlarni joylashtirishdan tortib, ularni ularashni, kodlashni o'rganish va sinab ko'rish uchun boshlang'ich sxemalarni taqdim etadi. Arduino kodini simulyatsiya qilib, robototexnikani o'rganish tajribasini soddalashtirish imkonini beradi.





Tinkercad onlayn xizmatidan www.tinkercad.com web manzili orqali foydalanish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.X.Xalmetova, S.R.Sobirova, R.O.Sultanov Robototexnika sohasini maktablarda joriy qilish samaradorligi // Scientific progress. 2021. №5.
2. <https://www.tinkercad.com/blog/official-guide-to-tinkercad-circuits>



**TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH VA LOYIHALASH FANINI  
O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Umarova Fotima Abduraximovna**  
Nizomiy nomidagi TDPU Texnologik ta'lif  
metodikasi kafedrasi v.b. dotsenti, PhD  
E-mail: fotima-umarova@mail.ru  
Tel: +99894 687-58-18

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada texnologik ta'lif yo'nalishi talabalariga tikuv buyumlarini konstruksiyalash va loyihalash fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiyalar,

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib, hayotimizning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Shu jumladan ta'lif tiziminining turli bosqichlarida, turli fanlarni o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'plab didaktik imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Raqamli texnologiyalar, xususan, virtual borliq (VR) va kengaytirilgan borliq (AR) texnologiyalari orqali talabalarga o'quv materiallarini interaktiv tarzda yetkazish, axborotni nafaqat 2 o'lchamda, balki 3 o'lchamli obyekt shaklida ko'rsatish imkonini beradi. VR va AR dan foydalanish ta'lif oluvchilarga bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o'rghanishga yordam beradi.

Texnologik ta'lif yo'nalishi talabalariga tikuv buyumlarini konstruksiyalash va loyihalash fanini o'qitishda VR va AR texnologiyalardan foydalanish libos dizayni sohasidagi yangicha yondashuv hisoblanadi. An'anaviy ta'lif jarayonida talabalar tikuv buyumlarini konstruksiyalash va loyihalash fanini o'rghanishda turli buyumlarni loyihalash jarayonida qalam va qog'ozdan foydalanishsa, mazkur biz taklif etilayotgan raqamli texnologiyalar orqali o'rghanishda virtual reallik dasturlari yordamida virtual manekenga liboslar dizaynnini yaratish g'oyasi ilgari suriladi.

Google Tilt Brush – Google tomonidan taklif etilayotgan yangi ilova bo'lib, virtual borliqda ijod qilib liboslar dizaynnini yaratish, bunda fikrni 2D eskiz maydonchasida emas, balki 3D sirtda ishlashga imkon beradi. Cho'tkalarning keng assortimenti, jumladan an'anaviy pardozlash va maxsus effektlar va cheksiz miqdordagi ranglarni tanlash bilan Tilt Brush dizayn jarayonini vizual pragmatik qilishga yordam beradi



Bir so'z bilan aytganda Google Tilt Brush – bu moda eskizlarini yaratishni butunlay yangi yuqori sifat darajaga ko'tara oladigan ilova hisoblanadi.

Shuningdek, Google Tilt Brush bilan birgalikda IDEA laboratoriyasida ishlab chiqilib ommaga foydalanishga taklif etilayotgan Komododan foydalanish ham mumkin. Mazkur platforma foydalanuvchilarga mavjud 3D-kontentni import qilish va virtual reallikda ko'rish imkonini beradi.

Talabalarga virtual reallik muhitida tikuv buyumlarini yangi loyihalarini yaratish imkonini beruvchi beruvchi markur yangi innovatsion usullar ta'lif olish amaliyotini samarali tashkil etishni ta'minlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://vr.illinois.edu/2019/11/20/fashion-illustration-students-explore-vr/>
2. <https://www.tiltbrush.com/>



## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA GOOGLE XIZMATLARIDAN FOYDALANISH

**Umarova Zaxro Abduraxim qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Matematika va ta'linda

axborot texnologiyalari kafedrasи v.b. dotsenti, PhD

E-mail: umarova.zakhro@gmail.com

Tel: +99894 687-58-18

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalar mustaqil ta'lmini peer to peer va hamkorlikda ta'lim olish tamoyillari asosida tashkil etishda google xizmatlaridan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqil ta'lum, google xizmatlari, hamkorlikda ta'lim olish, peer to peer.

Oliy ta'lum muassasalarida talabalar mustaqil ta'lmini samarali tashkil etish muammosi bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqil ta'lumi samarali tashkil etishda Googlening online xizmatlaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Ta'lum uchun mo'ljallangan Google vositalari imkoniyatlarini quyida ko'rib chiqamiz:

**Google Drive** – bu matn, rasm, audio, video, taqdimot kabi turli xil formatdagи fayllarni joylashtirish mumkin bo'lgan bulutli texnologiyalarga asoslangan ma'lumotlar ombori hisoblanadi[2]. Googledan ro'yxatdan o'tgan har bir foydalanuvchi uchun 15 Gb gacha hajmdagi bo'sh joy taqdim etiladi. Mustaqil ta'lum materiallarini bulutli texnologiyalar orqali Internet tarmog'iga joylashtirib qo'yilishi mazkur ta'lum resurslaridan talabalar ixtiyoriy vaqtida va ixtiyoriy joydan turib o'r ganishlari imkoniyatini taqdim etadi. Google Drive shuningdek, har xil turdagi fayllarni yaratish va saqlash imkonini beruvchi bir qator foydali ilovalarni o'z ichiga oladi.

**Google Docs** – matnli hujjatlarni yaratish va tahrirlash imkonini beradi. Ushbu matn muharriri taniqli Microsoft Word matn muharririga juda o'xshaydi, lekin ayni paytda bir qator afzalliklarga ega, masalan, boshqa internet foydalanuvchilari bilan ulashish, sharplash, turli elementlarni kiritish kabi keng qo'shimchalar tanlovi mayjud. Bu esa respublikamizning turli hududlaridan turib mustaqil ta'lum olishda ta'lum oluvchilarning o'zaro hamkorlikda loyiha ishlarini amalga oshirishlarida juda qulay vosita hisoblanadi. **Google Sheets** – ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beruvchi jadvallar. Ular ko'p jihatdan Microsoft Excel jadval muharririga o'xshash, ammo Google Docs singari ba'zi afzalliklarga ega. **Google Forms** – so'rovnomalar yaratish va o'tkazish imkonini beradi. Talabalar orasida o'tkaziladigan so'rovnomalar va ularning fikrlarini yig'ib olishda, shuningdek, ta'lum oluvchilarning o'quv rejadagi majburiy va tanlov fanlari modullari tarkibidagi mustaqil ta'lum uchun ajratilgan mavzularni mustaqil ravishda qanday o'zlashtirganliklarini baholash uchun testlarni tashkil etishda keng foydalanish maqsadga muvofiq. **Google Slides** – PowerPoint dasturiga muqobil ilova sifatida yaratilgan bo'lib, onlayn tarzda taqdimotlar yaratish imkonini beradi. **Google Hangouts** – video konferentsiya va lahzali xabar almashish uchun ilova hisoblanadi. Google Hangouts xizmatining rivojlanishi natijasida ikkita premium mahsulot taqdim etildi: bular Google Chat va Google Meet lardir. Mazkur xizmatlar to'g'ridan-to'g'ri xabar almashish va guruhli chat funksiyalarini, yuqori sifatli guruhli video qo'ng'iroqlar, ekranni namoyish (demonstratsiya) qilish va avtomatik taglavha(subtitr)lar qo'shish kabi imkoniyatlarni taqdim etish orqali talabalar mustaqil ta'lum jarayonini peer to peer tamoyillariga tayangan holda o'zaro hamkorlikda tashkil etishga qulay muhit yaratadi. Aynan shu xususiyati bilan, Google Meet mustaqil ta'lum jarayonini kooperativ ta'limga, ya'ni talabalarning birgalikda ta'lum olishi va jamoaviy ishslash jarayoniga aylantirib beradi[1].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Google xizmatlari talabalar uchun tarmoqdagi online texnologiyalar asosida o'zaro muloqot va hamkorlik imkoniyatlarini ta'minlash orqali masofadan turib hamkorlikda mustaqil ta'lum olish uchun qulay vosita hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.Umarova Kooperativ ta'lum – talabalar mustaqil ta'lumi samaradorligining asosi sifatida // Fizika, matematika va informatika jurnali 3son, T.:2022, 77-83 b.
2. <https://support.google.com>



**BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH**

**Navbaxor Umrzoqova Shavkatovna**

Namangan viloyati Norin tuman  
19-maktab boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi  
905543026. navbaxorshavkatovna@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matematika fanida boshlang’ich sinflarda samaradorlikni oshirish usullsiri, ijodiy yondashuv va matematika o’qitish, matematika fanini o’rganishda boshlang’ich sinflar bilan ishlash metodlari orqali o’quvchilarni dunyo qarashini o’stirish haqida keng yozilgan va ushu maqola boshlang’ich sing o’qituvchilariga metodik qo’llanma sifatida foydalanishga tavsiya etiladi.

**Kalit so’zlar:** O’quvchilar, mustaqil ravishda, matematika, bilimlarni egallash, o’rgatish, didaktik materiallar.

Zamonaviy O’zbekistonda uzlusiz ta’limning rivojlanishiga bir qator o’zaro bog‘liq omillar ta’sir ko’rsatmoqda. Eng muhim omillardan biri bu mamlakatlar va xalqlarning o’zaro bog‘liqligi oshib borishi, yagona iqtisodiy, axborot, madaniy va ma’rifiy makonning shakllanishi bilan ajralib turadigan globallashuvdir. Globallashuv xalqlarni madaniy va ma’rifiy faoliyatda birlashtirishga yordam beradi, madaniyatlar va ularning tashuvchilarini o’zaro boyitish jarayonlarini kuchaytiradi. Xalqaro hamkorlik ko’laming kengayishi chet el madaniyati vakillari bilan madaniyatlararo kompetentsiyaga ega bo’lgan o’quvchilarni tayyorlashni talab qiladi. Har bir boshlang’ich sinfda matematika fanini o’rgatish va o’quvchilarning fanni tushinganini anglash ,turli hil inter faol o’yinlar va mashqlar bilan mustahkamlash lozim. O’quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalalarini yechishga tatbiq qila olishga o’rgatish, o’quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalar..ni hal qilishga o’rgatish, matematika o’qitishda texnik vosita va ko’rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e’tibor o’quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirishga qaratilgan. O’quvchilarni mustaqil ravishda matematik bilimlarni egallashga o’rgatish. O’quvchilar imkonи boricha mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari etadigan darajada umumlashtirishlar qilishlari, shuningdek, og’zaki va yozma xulosalar qilishga o’rganishlari kerak.

O’qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o’quvchilarning o’rganilayotgan materialni o’zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan. Bu o’quvchilardan og’zaki so’rash; nazorat ishlari va mustaqil ishlar; uy vazifalarini tekshirish, testlar, texnik vositalar yordamida sinash kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o’quvchilarning yosh xususiyatlariga va h.k. bog‘liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan.

Boshlang’ich sinfda matematika o’qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o’quvchilardan individual yozma so’rov o’tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba’zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o’zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang’ich maktab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo’ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda

o’qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko’proqdir.

Boshlang’ich maktab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiyl topshiriqlarning murakkabligi bo’yicha tabaqlashtirilishidir. Bu materiallar tuzuvchilarning g’oyasiga ko’ra ma’lum mavzu bo’yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o’quvchining bu mavzuni faqat o’zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to’la aniqlangan darajada o’zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi.

Matematika o’qitish metodikasida “o’quv materialini o’zlashtirish darajasi” tushunchasining mazmuni to’la ochib berilmagan.O’qituvchilar uchun qo’llanmalarda didaktik materialning u yoki bu topshirig‘i qaysi darajaga mos kelishini aniqlashga imkon beradigan mezonlar aniq emas.



Amaliyotda o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddarоq yoki murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmасin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas, chunki hech qanday o'rgatuvchi mashina O'qituvchining intuisiyasini, ya'ni hissiyotini almashtira olmaydi.

Shunday qilib, didaktik materiallarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu sababli didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qitvchi-1994”
3. [www.ziyoz.com](http://www.ziyoz.com) kutubxonasi



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNI MATEMATIKA KURSINI  
O'RGAТИSHGA TAYYORLASH**

**Ominaxon Usmonova Akraramovna**

Namangan viloyati Norin tuman

19-umumta'l'm məktəb

Boshlang'ich ta'l'm fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ilk sinflarda matematika darsini rejalashtirish va o'rnatishga tayyorlash haqida ma'lumot berilgan bo'lib, umumta'l'm məktəbida o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma sifatida foydalanishga taavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Matematika, o'quvchilar, ) onglilik tamoyili, ko'rsatmalilik tamoyili, ilmiylik tamoyili, ketma-ketlik tamoyili, o'quvchilarining bilimlari,o'rganish.

*O'quvchilarini matematika kursini o'rganishga tayyorlash I-IV sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifasi bo'lgan ta'l'm-tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo'yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog'liq. Shuning uchun 1-sinf O'quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf*

*o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarining bilimlarini yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:*

1. Nechagacha sanashni biladi?
  2. Nechagacha sonlarni qo'shishni biladi?
  3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?
  4. >, <, = belgilarini ishlata oladimi?
  5. Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'lumlarni topa oladimi?
  6. Qaysi shakllarning nomlarini biladi va chiza oladi?
  7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?
  8. O'ngga, chapga, kam, ko'p, "ta", "marta", teng kabilarni farqlay oladimi?
  9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og'irlilik o'lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?
- Bolalarни o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez,
- taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Sunday ishlar o'quvchilarning og'zaki va yozrana nutqlarini rivojlan- tirishga katta yordam beradi, matematik bilimlami o'ziashtirishga qiziqishi kuchaya boradi. Nazorat savollari
1. 1-4 sinflarda matematika o'qitishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
  2. Bolalami matematika kursini o'rganishga tayyorlashning asosiy vazifalarini sanab chiqing.
  3. 1-3 va 4-5 sinflarda matematika o'qitishdagi izchillikni amalga oshirishning asosiy yo'llari qanday?

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining didaktik tamoyillari Har bir talaba bilishi kerak:

- 1) onglilik tamoyili;
- 2) ko'rsatmalilik tamoyili;
- 3) ilmiylik tamoyili;
- 4) ketma-ketlik tamoyili;
- 5) puxta o'ziashtirish tamoyili va hokazolar;
- 6) boshlang'ich məktəbda algoritmlar va algoritmlarga o'rnatish metodikasi.

Xulosa qilib aytganda matematika darsiga tayyorlanishda birinchi navbatda o'quvchilarga yangi dars materiali yuzasidan qanday me'yorda tayyorlanganligini, buning uchun nimani takrorlash zarurligini aniqlash kerak. o'qituvchi matematika dasturini, ishchi rejasini, darslik va o'quv qo'llanmalarini, metodik adabiyotlami va ko'rsatmali qurollami hozirlagandan keyin navbatdag'i darsga tayyorgarlikni boshlaydi. Eng avvalo navbatdag'i dars matematika dasturida qaysi o'rinda, qaysi mavzular bilan bog'liq holda, tushunchani nimalarga bog'lab tushuntirish kerakligini aniqlaydi. Bu savollaming hammasi bayon qilinganidan keyin darsning asosiy didaktik maqsadini xususiyatini qat'iy o'matish kerakligi kelib chiqadi.

**Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. "Matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov . Toshkent 2011
2. "Matematika analiz" 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent "O'qitvchi-1994"
3. [www.ziyoz.com](http://www.ziyoz.com) kutubxonasi



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING YOZUV SAVODXONLIGINI  
TA'MINLASH QOIDALARI

Xakimova Shohida Abduraufovna

Siradryo viloyati Boyovut  
37- mактаб boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'linda og'zaki nutq savodxonligiga erishish bilan birgalikda yozma nutq ham muhim ahamiyatga ega ekanligi va uni usllari to'g'risida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan .

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich,sinf o'qituvchi,so'z,yozuv

Boshlang'ich ta'linda og'zaki nutq savodxonligiga erishish bilan birgalikda yozma nutq ham muhim ahamiyatga ega. Yozishni endi o'rganayotgan o'quvchiga dastlab oddiy harflar va ularning zaruriy elementlarini yozishgina tayinlanadi. Bu jarayonda o'quvchining erkin qo'l harakatlariga erishish mumkin. Keying bosqichda oddiy tovushlarda aks etgan va kam bo'g'inli so'zlarni yozdirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ol, il, in, uy, suv, yer, ona, tog', ikki, bordi kabi. Chunki bu usulda o'quvchi tovushlarni bir- biridan yaxshi farqlaydi va yozuvdag'i elementlarni shosmasdan, galma -gal, ishonch bilan bajaradi. Yosh o'rganuvchilar tovushlarni farqlashda qiyinchiliklarga uchrashi tabiiy. Bu vazifani mukammal bajarishi uchun bolaga qulay sharoit yaratish lozim. Har bir yozayotgan matnidagi harflarni ishonch bilan, galma -gal, shosmasdan va belgilangan normada, ya'ni standart asosida yozish uchun bolani oldindan tayyorlab borish lozim. Bunda ko'proq ota-onan nazorati katta rol o'ynaydi. Pedagoglardan esa ko'proq mashq qildirish, e'tiborli bo'lismi va hamma vaqt takrorga tayanishi kerakligi so'raladi.

O'quvchilarda o'qish savodxonligi o'rgatilayotgan jarayonda ular yozuv ko'nikmasini ham egallab boradilar. Dastlab yozuvdan o'quvchilar quyidagi malakalarni egallashi lozim:

1. o'tirish qoidasi, daftarni to'g'ri ya'ni qiya qo'yish qoidasi, yozish jarayonida ruchkadan to'g'ri foydalanish, qizil chiziq qoidasi kabilar;

2. alifbe asosida o'zbek alifbosidagi harflarni yozish, harflarni bir-biriga ulab yoza olish kabilarni shakkantirish lozim.

3. ayrim qiyin so'zlarni o'qituvchi yordamida yozishga o'rganish;

4. talaffuzi va yozilishi farq qiladigan so'zlarni alohida ta'kidlash asosida yozishga o'rgatish.

Yozuvga o'rgatish jarayonidan ko'zlangan maqsad o'quvchining fikrlarini yozma tarzda bayon qilishga ham o'rgatishdir. Yozish malakasi o'qish malakasi bilan uzviy bog'liq.

Yozuvga o'rgatish jarayonlari quyidagicha bo'lishi kerak:

1. turli shakllar andozasi ustidan chizish.

2. harf elementlarini yozish.

3. bosh harflar va kichik harflarni alohida yozish

4. harfiy birikmalar va bo'g'lnlarni yozish.

5. bir bo'g'inli so'zlar yozish.

6. kichik gaplar yozish.

O'quvchilarga yozuvni o'rgatishda sinf xonadagi doska ham o'quvchi yoshiga mos bo'lishi talab etiladi. Kichik yo'lli daftarga hoshiya qoldirgan holda yozishga o'rgatiladi.

Yozuv jarayoniga o'rgatishda o'quvchidan jismoniy va aqliy harakat talab etiladi. Shuning uchun pedagog yozuvga o'rgatish jarayonida ko'rgazmalilik tamoyiliga asoslangani ma'qul. Ko'rgazmalilik ikki xil bo'ladi:

1. Ko'rgazmali tasvir.

2. Ko'rgazmali harakat.

Ko'rgazmali tasvirda o'qituvchi tomonidan biror harf yozma shakli ifodalangan kartochkalar o'quvchilarga beriladi. o'quvchi tasvir orqali harfnini aniq ko'rib daftariga yozadi.

Ko'rgazmali harakatda o'qituvchi har bir harfning elementlarini doskaga yozib o'rgatadi. O'quvchidan avvalo, o'quvchini qiya yozishga o'rgatish muammosi turadi. 1- va 2- sinflarda o'quvchilar yozuv ko'nikmasini hosil qilib, harflarni yaxshi o'zlashtirib oladilar. 3-sinfga kelib o'quvchilarda chiroyli yozishga intilish boshlanadi. Bunda o'quvchilar harflarni biroz mayda yozishga o'rganadilar.

Yozuv daftarini partaning o'ng tomonidan 25 burchakda qiya yozishning asosiy sababi to'g'ri,



oson va tez yozilishini ta'minlashdir. Agar daftar aytilgan burchak tarzida qo'yilsa, yozayotgan qo'lning tirsak qismi parta ustida qimirlamagan holatda turadi. Yozish uchun qulay sharoit yaratiladi. Lekin burchak standart asosida qo'yilmasa, xat pastdan tepaga qarab yoziladi. Qo'l harakatlari erkin bo'lmaydi. Natijada chiroyli yozuvni ta'minlab bo'lmaydi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi yozuv darslarida birinchi navbatda o'quvchining daftarni o'rgatilgandek qo'yilganini nazoratga olishi kerak. Xatolar aniqlansa, o'z vaqtida tuzatib ketiladi.

O'quvchilardagi og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirishda va savodxonlikni ta'minlashda turli xil innovatsion metodlarning ahamiyati katta. Ta'limiy o'yinlar orqali o'quvchilarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda o'quvchining har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi. Ta'limiy o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi.

O'quvchilarimizni har jihatdan yetuk va komil qilib tarbiyalashda pedagog mahorati yuqori o'rinda turadi. Shunday ekan, o'quvchilarimiz uchun o'zimiz ibrat maktabini yarataylik. Og'zaki va yozma nutqimiz savodxonligini ta'minlashni o'zimizdan boshlaylik. Shundagina biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadga erishamiz.

### **Foydalilanigan adabiyotlar :**

1. Yaxshiyeva, Z. Z., Axmadjonova, Y. T., & Axmadjonova, U. T. (2021). Evaluation of the quality of education is studied on the basis of foreign experience. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 383- 385.
2. Yakhshieva, Z. (2020). Talabalarning mustaqil ta'lim olishida interfaol metodlarning roli. JSPI Scientific Publications Archive.
3. Kulboyev, Z. Kh. (2020). Superconducting fullers and their application in biophysics. Enigma, (23), 155-159.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLARNI QO'LLASH

**Xo'jamuratova Nigora Rajabbayevna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: + 998 (97) 859 80 89

nigora.rajabbayevna\_8089@inbox.uz

**Norboyeva Amina Shonazarovna**

Qo'shko'pir tumani 5-son IDUM o'qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 427 44 84

norboyeva.amina\_4484@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang'ich ta'linda innovatsion metodlarni qo'llash haqida.

**Kalit so'zlar:** “Aqliy hujum”, “Zinama-zina”, “Klaster”, “Davom ettir”, “Archa”, “Yelpig‘ich”, “Sinkveyn”, “Zanjir”, “Meni tushun”, “Sehrli katak”, “Oyga sayohat”.

O'quv jarayonini shunday tashkil etish kerakki, hech qanday psixologik noqulaylik bo'lmasligi, o'quvchi o'ziga nisbatan ishonchni his eta olishi lozim. Har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olish, bajarilgan ish uchun rag'batlantirish, xatoga yo'l qo'ygan o'quvchiga uni to'g'rilash imkonini berish zarur. Boshlahg'ich ta'linda o'qitishning innovatsion metodlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini izchilligini ta'minlash hamda uni maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishdir. O'qitishning faol metodlariga “Aqliy hujum”, “Zinama-zina”, “Klaster”, “Davom ettir”, “Archa”, “Yelpig‘ich”, “Sinkveyn”, “Zanjir”, “Meni tushun”, “Sehrli katak”, “Oyga sayohat” kabilarni kiritish mumkin.

### “Kamalak” metodi

Bu metod o'qish va ona tili darslari uchun mo'ljallangan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda biryo'la mavzuning turli tarmoqlari, shu bilan bir qatorda o'zbek tilining kamalakdek serjiloligi haqida axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararli tomonlari ochib beriladi. “Kamalak” metodining maqsadi o'quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrashga, izlanishga, fikrlarini jamlab taqqoslash uslubi yordamida o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat.

Metod imkoniyatdan kelib chiqib, yakka yoki kichik guruhlarda olib borilishi mumkin. Kamalak tasviri tushirilgan qog'oz tarqatiladi va uning shartlari tushintirib o'tiladi. O'qish darslarida she'rdagi vatan mazmunini ifodalovchi so'zlarga, asar qahramonlariga “Kamalak” metodi asosida ta'rif berish so'raladi. Topshiriqni o'quvchi kamalakda aks ettirishi ta'kidlanadi. (Masalan: 1. vatan/ 2. chaman/ 3. bo'ston/ 4. diyor/ 5. yurt/ 6. guliston/ 7. o'lka).

### “Archa” didaktik o'yini

O'yinning maqsadi o'quvchilar diqqatini jamlash, yakka, jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyatini, ishga mas'uliyat bilan yondashuvni shakllantirish, bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. “Archa” didaktik o'yini bir soatlik dars mashg'ulotiga mo'ljallangan. Buning uchun texnologiya darslarida yoki guruh mashg'ulotlarida karton qog'ozdan uch qismidan iborat archa maketi hamda archa o'yinchoqlari tayyorlab olinadi. Bu didaktik o'yinni ona tili, matematika dars jarayonlarida qo'llaganda samarali natijalarga erishiladi. “Archa” didaktik o'yini besh bosqichda olib boriladi:

1- bosqich: har bir qatordagi o'quvchilarga geometrik shakllar tarqatiladi. Guruh a'zolari geometrik shaklga ta'rif berib, undagi harflardan o'z guruh nomlarini hosil qiladilar va unga ta'rif beradilar. Guruh archaning birinchi qismini qo'lga kiritadi.

2-bosqich: o'tilgan mavzu asosida “Aqliy hujum” metodi olib boriladi. Yaxshi natijaga erishgan guruh archanining ikkinchi qismini qo'lga kiritadi (*archa qismlari birlashtirib boriladi*).

3-bosqich: uyga vazifa “Do'stim, meni tushun” metodi orqali tekshiriladi. To'g'ri bajargan guruh archanining uchinchi qismini qo'lga kiritib, archani yasashga erishadi.

4-bosqich: yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida “Test”, “Klaster”, “Tort” kabi metodlardan birini qo'llagan holda olib boriladi. Faol qatnashgan o'quvchilar archa o'yinchoqlari bilan rag'batlantiriladi.

5-bosqich: darsning yakunlovchi qismi bo'lib, guruh a'zolarining rag'batlari sanalib, archa bezatiladi. G'olib guruh aniqlanadi. Guruh archalari birlashtiriladi. O'quvchilarga kuch do'stlik,



ahillik va birdamlikda ekanligi, xuddi archadek bir tan-u bir jon bo‘lsagina, tik tura olishi uqtiriladi. “Archa” metodini fasllarga moslab, olma daraxti shaklida, archa o‘yinchoqlari o‘rnida gullardan, mevalardan foydalangan holda qo‘llash mumkin. O‘quvchilar faolligini oshirishda, chiroyli yozishga qiziqtirishda archa o‘yinchoqlari bilan rag‘batlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Abduquodusov O. “O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari “-T.,” O‘qituvchi” 2017
2. R.Safarova, M.G‘Ulomov, M.Inoyatova Savod o‘rgatish darslari. «Tafakkur» nashriyoti Toshkent-2012



## BOSHLANGICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O'QITISH DIDAKTIKASI

**Xusanova Nigora Jo'rayboevna**

Namangan viloyati Norin tuman

19-maktab Boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchi

992761756 nigora@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ona tili fanini o'qitish usullari va tajribalari haqida ma'lumotlar berilgan va ushbu maqola ona tili darslarida metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

**Kalit so'zlar:** Ona tili, o'qitish, til ta'lifi, to'g'ri, ravon, og'zaki va yozma shaklda, o'qitish tajriba, til va nutq nazariyasi, fonetika, leksika, gramatika.

Maktab ona tili ta'lifini o'z tarixiy o'zanida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, til ta'lifining samaradorligini mo'ljallab tamoman yangi yo'li metodikasi fanini, uning tadqiqot predm eti, vazifalari, ta'lifni tashkil etish shakllarini yaxshi bilasiz. Biz sizga ona tili metodikasi bilan yonma-yon, parallel o'r ganiladigan ona tili didaktikasi fanini taklif qilyapmiz. Ona tili didaktikasi qator afzallikkali bilan ona tili metodikasidan farq qiladi. Bu tafovutlar quyidagilar:

- maktablarda ona tili o'qitish tajribasini pedagogik, psixologik umumlashmalar darajasiga ko'tarish;

- til o'qitish tajribasining pragmatik yo'nalishini

- amaliy muammolarni tanlash va bajarish jarayonida o'quvchining o'z intilishlari, xatti-harakatlari ustuvorligini ta'minlash;

- bolalaming o'quv-biluv faoliyatini ta'lif jarayoni subyekti sifatida sharhlash; Ona tili didaktikasining maqsadi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an'analar davlat tili vositasida e'zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to'plangan ijtimoiy tajrib a ona tili orqali o'zlashtiriladi, ona tili vositasida o'r gatiladi. Ona tili predmeti o'quvchilarning ijpdiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi omilidir. Ona tili didaktikasining maqsadi o'quvchilarda flkrlash mahsulini adabiy til me'yordi hamda nutq maqsadiga muvofiq, og'zaki va yozma shaklda onglik, to'g'ri, ravon, ta'sirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlar, tamoyillari, vositalarini tadqiq qilishdan iborat. Ona tili didaktikasining vazifalari. Ona tili didaktikasi pedagogik fanlar sirasiga kirib, m'aktabda ona tili o'qitishning mazmuni, mundarijasi, yo'nalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarini o'r ganadi. U maktabda ona tili o'qitish muammolarini tadqiq qilar ekan, qator savollarga javob izlaydi. Nima uchun o'qitiladi? Shu savol asosida maktabda ona tili o'qitishning maqsadi qayd etiladi. Nega shunday o'qitiladi? Bu savol ona tilini o'zlashtirish jarayonida rioya qilinadigan qonuniyatlar, til o'qitishning o'ziga qilingan xos me'yoriy talablar — xususiy didaktik umda (prinsip)lar bilan daxldordir. Qonuniyatlar ona tili materiallarini o'zlashtirish jarayonida takrorlanib turadigan universal bog'lanishlardir. Bunday qonuniyatlar jumlasiga shakl va mazmun, og'zaki va yozma nutq, til va nutq, nazariya va amaliyotning o'zaro aloqadorligi kiradi. Qonuniyatlarga ko'ra, til O'qitish prinsiplari me'yoriy talablar shaklida ishlab chiqiladi. Nima o'qitiladi? Ona tilidan ma'lumot va ta'lif mazmuni shu savolga k o'ra aniqlanadi. Ma'lum ot va ta'lif mazmunida tilning fonetikasi, leksikasi va grammatisiga oid nazariy bilimlar hamda shu bilimlarga mos orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar ko'zda tutiladi. Prosodik — grekcha «prosodia» so'zidan olingan bo'lib, nutqning tembri, kuchi, ovoz balandligi, ton, urg'u, urg'u tushgan bo'g'lnarni baland ovoz bilan aytishni anglatadi. Qanday o'qitiladi? Ona tilidan ta'lif metodlari, usullari, vositalari shu savol bo'yicha o'r ganiladi. Ona tili ta'lifi qanday tashkiliy shakllar asosida amalga oshiriladi? Ona tili didaktikasi shu savol bo'yicha ta'lifining tashkiliy shakllari (dars, uy ishi), turlarini i (izohlik o'rgazm ali, differensial, muammoli va sh.k.) yakka (individual), guruh, jamoa asosida tashkil etish muammolarini tahlil etadi. Tadqiq qilinadigan muammolarga ko'ra, ona tili didaktikasi keng qamrovli fan b'o'lib, u maktabda tilning fonetik, leksik, gram m'atik tomonlari bo'yicha nazariy m'a'lum otlarni o'zlashtirish, nazariy bilim lar asosida bolalarda nutq m'alakalarini shakllantirish masalalari bilan shug'ullanadi. Ona tili metodikasining hozirgi taraqqiyot darajasida quyidagi muammolarni nazariya darajasiga ko'tarish imkoniyatlari mavjud:



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova,
2. X. G'ulomova, SH. Yo'ldasheva, Toshkent -2008
3. Ona tili va adabiyoti (o'quv qo'llanma) A.R.Rafiyev, N.G'ulomov. Toshkent-2014.
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi



## O'ZBEK ADABIYOTIDA GUL OBRAZINING IFODALANISHI

**Yuldasheva Yayra Mirsalimovna**

Qo'qon shahar 28-maktab  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
email:yuldashevayayra@gmail.com

**Annotatsiya:** adabiyotda turli obrazlar mavjud. Bularidan biri gul obrazidir. Maqlada badiiy adabiyotda gul obrazining talqini ochib berilgan. Gul obrazining badiiy-estetik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** xalq og'zaki ijodi, Navoiy ijodi, obraz, gul obrazi, g'azal janri, ruboiy

Adabiyot hayotni obraz orqali aks ettiradi va shu orqali biladi. O'zbek adabiyotida bir qancha narsa-buyumlar obraz sifatida ifodalanadi. Gul obrazi eng qadimgi davrga borib taqaladi. Xalq og'zaki ijodida ham gul obrazini ko'plab uchratish mumkin. Maqollarda, laparlarda ham gul obrazi bor. Yozma adabiyotga nazar tashlasak, Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'otit turk” asarida ham gul obrazi ishtirok etgan bir qancha she'rlarni uchratamiz.

Alisher Navoiy ijodida gul obrazi ko'plab uchraydi. “G'aroyib us-sig'ar” devoni tarkibiga kirgan va quyidagi matla' bilan boshlanuvchi g'azalda ham gul obrazi bor.

Ey sabo, ko'zdin uchur Mozandaronning vardini

Kim, qilibmen surma Marvi shohi jonning gardini.

Shoir nega aynan Mozandaron guli, Marv shohi kabi iboralarni keltirdi. Tarixiy ma'lumotlarga tayanib, bu baytdagi Mozandaron vardi hamda Marv shohi ikkita shaxs haqida ekanligini va bulardan biri Sulton Husayn Boyqaro hamda uning katta o'g'li Badiuzzamon mirzo ekanligini aytish mumkin. Mozandaron guli – Badiuzzamon. Ko'ramizki, Navoiy ijodida gul obrazi faqat ayollarga emas, balki shahzodalarga nisbatan ham qo'llangan.

Bilmay seni ul gul qovar, ey zor Navoiy,

Sendek anga bir bulbuli nolon kerak erdi.

Mazmuni: Ey zor Navoiy, bilmay seni ul gul quvar. Holbuki, unga xuddi sendek bir bulbuli nolon kerak edi.

Har yerda bahor o'lsa, saman bo'lsa kerak,

Har yerda chaman – gulu saman bo'lsa kerak.

Darhaqiqat, shoir g'azallarining mavzu va g'oyalarini, aytimoqchi bo'lgan fikrini matla'dayoq ilg'ab olish mumkin. Shu bilan birgalikda, ana shu mavzu va g'oya, fikr-mushohada to maqtahgacha ta'kidlanib, kuchaytirib boriladi. Mavzu va g'oyaga mos falsafiy xulosa chiqariladi. Shoир ijodidagi bu xususiyatni Maqsud Shayxzoda ham to'g'ri payqagan va o'z vaqtida alohida ta'kidlagan edi. Ammo, deya uqtiradi M.Shayxzoda, - bu yerda syujetning keng ma'noda, ya'ni fabula va hikoya ma'nosida emas, fikr va tuyg'ularning bir-biriga mantiqiy bog'lanishi ma'nosida anglash lozim<sup>1</sup>.

Men tilab husn, vale shoh tilab aslu nasab,

Menga lo'li birla hindu, anga qo'ng'irotu qiyot.

Boqiy yashash istagi bani basharga xos orzu. Modomiki bu dunyoda inson umri cheklangan ekan, hayotda o'z nomini mangu qoldirishning yo'li bormi? Navoiy bu savolga fardlaridan birida lug'z yo'li bilan shunday javob beradi:

Bu gulshan ichraki yo'q baqo guliga sabot,

Ajab saodat erur yaxshilik bila chiqsa ot.

Darhaqiqat, vaqt sinoviga bardosh berish qiyin. Umr yeldek o'tib ketaveradi. Ammo bog'bondan bog' qoladi, yaxshidan nom. Navoiyi qisqagina umrida mol-dunyo yig'ish, hoyu-havaslarga berilish ustidan quyidagi talmehli baytida badiiy-falsafiy hukm chiqaradi:

... Skandar ko'zgusiyu Jomi jam ichra ko'r, ey shahkim,

Seni go'r og'ziga tortar – kamandi sayd Bahromi.

Vafo, sadoqat, fidoyilik singari olivjanob insoniy tuyg'ular tarannumi Navoiyning keksalik davri lirikasida asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Insoniy muhabbat, munosib hamdard va dildosh kishiga yor bo'lish har kimga ham nasib qilavermaydi. Navoiyning hayotiy umumlashma darajasiga ko'tarilgan armonlari ifodasi uning lirikasida ba'zan ochiq, ba'zan ramziy, ba'zan esa

1 Жўраев X. “Сўзда керак дард ила сўз”. Т., “Истиқлол нури”. 2016. 23-бет.



obrazli ravishda ifodalanadi. Bu hol shoir lirikasining barcha bosqichlariga mansubdir.

Alisher Navoiy ijodida gul obrazi yor, oshiq, ma'shuqa bahzi o'rirlarda shoh va shahzodalarga nisbatan ham ishlatilgan. Navoiy ijodida gul obrazi yetakchi o'rinn tutadi. Navoiy ijodining yanada xalqqa yetib borishiga gul obrazi muhim hisoblanadi. Gul obrazi oshiq dardini tarannum etishda ham muhim ahamiyatga egadir.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ham gul obrazi ifodalanadi.

Bobur ul gul qo'ynida bulbul kibi topting maqom,

Bir navoye rost qil mundoq maqoming borida.

Shoir bunda o'zinini bulbulga qiyoslaydi. Bulbul gul qo'ynida makon topsa, lirik qahramon gul deb o'z vatanini nazarda tutadi. Lirik qahramon uchun gul Vatan, u o'z vatanida xuddi bulbul kabi makon topib, keyin xonish aytishini ta'kidlaydi. Bu she'rda gul obrazi Vatan timsolida kelgan. Bu she'rda lirik qahramon gulning tikanli bo'lishini ta'kidlagan. Gul obrazi oshiq va ma'shuqa timsolida kelgan.

Tishing dur, labing marjon, xading gul, xating rayxon,

Yuzung xur, soching anbar, so'zung mul, menging meynon.

Meynon menging, so'zung mul, anbar soching, yuzung xur,

Rayxon xating, xading gul, marjon labing, tishing dur.

Bu misralarda gul, rayxon, anbar obrazlari yor timsolini ifodalaydi. Bunda oshiqning ma'shuqasini tashqi qiyofasini har xil obrazlar bilan aks ettiradi, o'xshatadi. Yor timsolida gul, rayhon, anbar kabilarni ko'radi. Bu obrazlar lirik qahramon tilidan aytilib, ilohiylik kuylanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aristotel. Poetika. Axloqi kabir. T., “Yangi asr avlod”, 2004.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O'zbekiston”, 2002.
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. T., “Fan”, 2007.



## O'QUVCHINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Samiyeva Zarifa Aslamovna  
Samarqand viloyati Urgut tumani  
121-umumiyy o'rta ta'lim  
maktabi o'qituvchisi

Bugungi davr tezkor, axborot asrida yashayotgan yosh avlod har tomonlama zamon talablariga mos, dunyo davlatlari, rivojlangan mamlakat yoshlari bilan erkin muloqot olib boradigan nutqi tiniq va ravon bo'lmoqligi zamon vadavr talabidir. Shunday ekan o'qituvchining oldidagi eng katta mas'uliyat o'quvchining nutq madaniyatini to'g'ri rivojlantirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar nutqini o'stirish va nutq madaniyatini rivojlantirishdir.

Birinchi sinfda qabul qilingan bolalarni suhbat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun o'qish boshlanganining ilk haftasida "Bizning oila", "Mening onam", "Ona shahrim", "Do'stlarim" kabi mavzularda suhbatlar olib boriladi. Keyinchalik "Alifbe"ni o'rganish davrida o'rganilayotgan har bir harflar, turli qiziqarli mavzularga doir rangli, rasmiy slaydlar ko'rsatiladi. O'quvchilar ko'rgan rasmlar asosida matn tuzadilar. Matnlar tuzish jarayonida, albatta, o'qituvchi yordamida so'z va gaplar ketma-ketligiga e'tibor beriladi. Bolalar 1-sinfda 4-5 ta gapdan iborat matn tuzishgan bo'lsa, 4-sinf oxiriga kelib ular 30-35 tagacha gapli matn tuza olishlariga erishish mumkin.

1-2 sinflarda, asosan, rangli rasmlar bilan ishlansa, keyinchalik har xil usullardan foydalanish mumkin. Bu jarayonda "So'z o'yini" metodi ham o'ziga xos afzallikka ega. Bunda o'quvchilarga uch tovushli so'zlarni to'ldirib o'qish vazifasi topshiriladi. Topshiriqlqr orqali o'quvchining so'z boyligi hamda topqirligi shakllanadi.

**Masalan:** ... \_\_\_\_ lak va \_\_\_\_ loq so'zlari beriladi.

- \_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq  
\_\_\_\_ lak                \_\_\_\_ loq kabibi.

**(Javob:** Ko'yak, pishloq, kapalak, buloq, kamalak, o'tloq, sumalak, qulok, jamalak, shapaloq, yaxmalak, dumaloq ...)

Yoki ikki tovushli so'zlarni to'ldiring \_\_\_\_ kabi topshiriq beriladi.


- \_\_\_\_ ol va            \_\_\_\_ osh so'zlari.  
\_\_\_\_ ol                \_\_\_\_ osh  
\_\_\_\_ ol                \_\_\_\_ osh  
\_\_\_\_ ol                \_\_\_\_ osh  
\_\_\_\_ ol                \_\_\_\_ osh

**(Javob:** Tol, bosh, lol, yosh, bol, tosh, qol, qosh ...)

Nutq o'stirishda tasviriy ifodani o'rni beqiyos. Bunda o'quvchining nutqni o'stirish bilan birga tasavvur ko'lamini kengaytirish mumkin. O'quvchilarga har xil rangli rasmlar ko'rsatiladi, unda tasvirlangan narsaning nomini aytish va gap nima haqida ketayotgani so'raladi



**Masalan:**



Tovuq – yetti xazinaning biri.

Archa – o‘rmon malikasi.

Qushlar – qanotli do‘stlar.

Samolyot – samo lochini.

Boychechak – bahor elchisi.

Kitob – bilim manbayi.

O‘quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirish hamda ta’limni samarali bo‘lishini ta’minalash uchun o‘qish va ona tili darslarini uzviy bog‘langan holda o‘tish lozim. O‘qish darslarida o‘zini-o‘zi rivojlantirish kompitensiyasiga asoslanib, badiiy asarlarni o‘qish, matn mazmununi qayta so‘zlash qobiliyati shakllansa, ona tili darslarida matn tuza olish, yozma nutq xatolari ustida ishslash va lug‘at boyligini oshirishga erishish mumkin. Bunda “Berilgan so‘zlarga mosini top” metodi o‘zining ijobjiy samarasini beradi. Sinf o‘quvchilari 3- yoki 4-guruhga bo‘linadi. Ularga oldindan yozib, tayyorlab qo‘yilgan matnlar beriladi. Matndagi ba’zi so‘zlar tagiga chizib qo‘yilgan bo‘ladi. O‘quvchilarga anashu so‘zlarni ma’nodoshi bilan almashtirish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar o‘z guruh a’zolari bilan muhokama tarzida so‘zlarni almashtiradilar.

**Masalan:**

1. Bugun dugonam Azizaning tug‘ilgan kuni. Uning yuzlari lo‘ppi, so‘zları yoqimli, qiliqlaei hammaga yoqadi. U ziyrak va juda chaqqon qiz. Men unga kitob sovg‘a qildim. Kitob Vatan haqida edi. U bundan juda xursand bo‘ldi.

Yuzlari – chehrasi, husni, jamoli, beti.

Yoqadi – manzur bo‘ladi, xush keladi.

Ziyrak – sezgir, hushyor.

Sovg‘a – hadya, tuhfa, tortiq.

Vatan – yurt, diyor, o‘lka.

2. To‘qqizinchi aprel – Amir Temur bobomizning tug‘ilgan kuni. Bobomiz Kesh shahri atrofidagi joyda tug‘ilgan. Amir Temur juda nozik didli kishi bo‘lgan. Dam oladigan chiroyli joylarni obod qilgan. U nihoyatda adolatli podshoh bo‘lgan.

Tug‘ilgan – tavallud topgan.

Joyda – yerda, maskanda.

Kishi – odam, inson.

Go‘zal – chiroyli, betakror, nafis.

O‘quvchining nutq madaniyatini rivojlantirishning eng dolzarb jihatlaridan yana biri “h” va “x” tovushlarining yaxshi ajrata olishga o‘rgatish. Darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ekranda “h” va “x” harfiga doir so‘zlar shu tovushlar tushib qolgan holda yozib ko‘rsatiladi. O‘quvchilar daftalariga so‘zlarni to‘g‘irlab yozadilar. Yozib bo‘lganlardan so‘ng shu so‘zlarning to‘g‘ri, to‘liq yozilgani ko‘rsatiladi. O‘quvchilar yozgan so‘zlarini tekshirib, xatolarini to‘g‘irlab oladilar.

Pa\_\_\_ta, char\_\_\_palak, sha\_\_\_ar, ba\_\_\_or, istiro\_\_\_at, \_\_\_at, \_\_\_umo va hokazo.



So‘ngra shu mavzuga oid, “Izlanish” metodi orqali uy ishi beriladi. O‘quvchilarga yon atrofimizda uchraydigan xato yozilgan so‘zlarni topib yozib kelish topshirig‘i berilad. Masalan; dorihona, istiroxat, Muhlisa, xurmatli, shaxar kabi so‘zlarni yozib ko‘rsatadilar.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda tilimizning ko‘rki bo‘lgan iboralarning ahamiyati beqiyoys. Ular fikrimizni aniq, ravshan bayon qilish uchun zarurdir.

Iboralar o‘rni bilan ishlatsa, nutqimiz yanada go‘zal va ta’sirli chiqadi. Masalan:

“Yetti uzlab tushida kirmagan” – kutilmagan voqeа-hodisaning yuzaga kelishi. “Tepa sochi tikka bo‘ldi” – jahli chiqgan, juda asabiylashgan kishiga nisbatan aytildi. “Yog‘ tushsa yalagudek” – juda toza, chinnidek, igna tushsa topgudek – demoqchi.

Shu kabi iboralar aytishida qisqa bo‘lsa-da, juda keng ma’noni anglatadi. Biz ham so‘zlashuv jarayonida maqol va iboralardan o‘rinli foydalansak, nutqimiz go‘zal bo‘lishi haqida o‘quvchilarga sodda qilib tushunchalar bera turib, uydakattalar yordamida iboralarga misollar topib kelish topshirilsa, o‘quvchi bu topshiriqni jon deb bajaradi. Navbatdagi darsda har bir topshiriq ustida ishlansa, bu bolalar nutqining rivojida ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.



DILLARIMIZDAGI ENG YAXSHI TILAKLARIMIZ SIZGA BO'LSIN-USTOZLAR!

Abdrimova Muxabbat Komiljonovna

Xorazm viloyati Yangiariq tumani 23 -son maktabning  
matematika va informatika fani o'qituvchi

**Annotatsiya:** Istiqlol yillarda o'qituvchi kasbini e'zozlash, mehnatini qadrlash va munosib  
rag'batlantirish ta'lif sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

**Kalit so'z:** Kalit so'z: ta'lif, tarbiya, o'qituvchi, o'quvchi, pedagog.

Farzandlar ta'lif-tarbiyasi, yosh avlodni barkamol insonlar etib kamolga yetkazishga  
alovida e'tibor qaratish xalqimizga xos ezgu fazilatlardan. Xalqimizning ustozi otangdek ulug',  
degan purhikmat naqlida ham o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan samimiy ehtirom namoyon.  
Mustaqillik yillarda davlatimiz rahbari Islom Karimov rahnamoligida bu sharafli va mas'uliyatli  
kasb sohiblarini e'zozlash, ular mehnatini qadrlash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

**"Ustoz va murabbiylar" bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etaman. Dillarimizdagi  
eng yaxshi tilaklarimiz sizga bo'lsin.** Ta'lif-tarbiya yo'llarida hormang-tolmang. Ushbu savobli  
ishlaringizda Alloh taolo doimo madadkor bo'lsin.

Bugungi kunda yurtimizda minglab maktab, litsey, kollej, diniy madrasalar, diniy oliygochlari  
dunyo standartlariga javob beradigan qilib bunyod qilindi, qayta ta'mirlandi. Uzoq qishloq va  
tog'li hududlarda ham mana shunday go'zal ilm dargohlarini ko'rib ko'zing quvonadi. Ayniqsa,  
turli-tuman kitoblarning chop etilishi, bizni xursand qiladi. Erta tongdan maktabga to'p-  
to'p bo'lib borayotgan yoshlarni ko'rib ko'zing quvonadi. Ularning murg'ak qalblari, uzoqni  
ko'zlagan orzulari, shodu xurramliklarini ko'rib, bolalikka qaytging keladi. Bugun chet tillarida  
ravon so'zlashayotgan, dunyo o'quvchilari orasida birinchi o'rinni egallab kelayotgan yoshlarni  
ko'rganda: "Asli ibn Sinolar, Beruniy va Buxoriylarning avlodlari-da, asli-nasli toza yoshlar-  
da!", deb faxrlanamiz. Bugun kasbga qiziqib uni mukammal egallagan yoshlar, dunyoning turli  
shaharlarida o'z qobiliyatini ko'rsatayotganlarini kuzatib: "Ustozingga, otangga balli", deymiz.  
Demak yurtimizda yashayotgan har bir vatandoshimizning yutug'i va muvaffaqiyatidan nafaqat  
ular, ularning ustozi va ota-onalari, balki butun yurt odamlarining qalbida g'urur, yuzlarida sururni  
ko'ramiz. Ayniqsa, sport sohasida Rio olimpiadasida erishilgan yutuqlar zamirida ham ustozi  
mehnatni yotibdi.

Bugungi kunda dunyoning ko'p joylarida sodir bo'layotgan kelishmovchiliklar, urush-janjallar,  
turli to'fonlar bois millionlab yoshlar ilmsiz, baxt nimaligini, bolalik sururini ko'rmasdan,  
qalblarida qo'rquiv, ko'zlarida yosh bilan umr o'tkazishmoqda. Shu bois Alloh bergan tinchlikning  
qadriga yetib, ilm cho'qqilarini zabit etaylik. Ustozsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Dunyoda  
ustozning mehnatidan og'ir mehnat yo'q. Hech narsani bilmaydigan yosh bolaga o'qish-yozishni  
o'rgatguncha chekiladigan mashaqqatni gapirmasak ham bo'ladi. Ustozning niyati xolis bo'lib,  
talabalarga o'rnak bo'ladijan amalni qilsin. Shogirdlarini gunoh ishlardan qaytarib tursin, buning  
uchun o'zi amal qilsin. Aytganiga amal qilmasa, shogirdlarga so'zining ta'siri bo'lmaydi. Imom  
A'zam rahmatullohi alayhning oldiga bir odam o'g'ilchasini yetaklab keldi va : "Hurmatli ustozi!  
O'g'lim juda ko'p asal yeydi. Unga kamroq yegin desam, so'zimga quloq osmaydi, shunga bir  
nasihat qilib qo'ysangiz", dedi. Imom A'zam hazratlari bir haftadan keyin kelishlarini ta'yinladi.  
Bir hafta o'tgach yana u zotning oldiga bolasini yetaklab keldi: Imom A'zam rahmatullohi alayh  
bolani boshini silab: "O'g'lim, ko'p asal yemagin! Asalni ko'p yemog'ing sog'ligingga zarardir",  
dedilar. Bola: «Xo'p bo'ladi», dedi. Shunda uning otasi nihoyatda go'zal odob bilan, qo'lini ko'ksiga  
qo'yib (Ulug' insonlardan savol so'ralganda, ko'ziga tik boqilmaydi, ovoz ko'tarilmaydi, biroz  
bosh egilib, qo'l ko'ksiga qo'yilib, tavoze bilan so'raladi): "Hazrat, shu gapingizni nimagadir avval  
kelganimizda aytmadizingiz?", dedi past ovozda. "Chunki o'sha kuni o'zim, asal yegandim, o'zim  
asal yeb bolaga asal yemagin, desam gapimning ta'siri bo'lmashdi", debdilar.

**Foydalilanlgan adabiyotlar.**

1. <https://championat.asia/oz/news/56306>.
2. <https://www.savol-javob.com/ustoz-va-murabbiylar-kuniga-bagishlangan-tadbir-senariysi/>



## ПЕДАГОГИК ДИАГНОСТИКА – ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ЎРГАНИШ

Абдурахмонов Жасур Бекпулатович  
СамДУ Каттақўрғон филиали ўқитувчisi

**Аннотация:** Педагогик диагностиканинг предмети таълим ва тарбия объектлари, ўрганиш ва тарбиялаш мезонлари, педагогик вазиятлар, педагогик жараённинг барча иштирокчиларининг вазифалари, таълим ва тарбия субъектларининг фаолиятидир. Педагогик диагностика ўқув фаолиятини ташкил этишга илмий ёндашувни таъминлайди, педагогик ишнинг умумий тизимида кенг қамровли йўналишни яратади.

Бинобарин, педагогик диагностика предмети инсоннинг интеллектуал ривожланиши; айрим шахсий фазилатларнинг шаклланиш даражаси; шахсни ўқитиш ва тарбиялаш; талабаларнинг хулқ-автори ва фаолияти; ижтимоий муҳит зонасида таълим, тарбиявий таъсири; шунингдек педагогик фаолиятнинг мазмуни ва самарадорлиги; педагогик мулоқотни ўз ичига қамраб олади.

**Калит сўзлар:** педагогик диагностика, илмий диагностика, ахборот, ахборотлар билан ишлаш усуллари, сўровнома.

Тадқиқотимизда педагогик диагностика фанининг:

- \* когнитив мустақиллик даражаси;
- \* мустақил иш кўнималарининг шаклланганлик даражаси;
- \* билиш фаолиятидаги мустақиллик даражаси;
- \* билиш фаолиятининг мотивация даражаларини аниқлаймиз.

К.Ингегаампнинг педагогик диагностика фаолияти остида, педагогик объектларнинг ҳолатини аниқлаш ва баҳолаш, уларни самарали бошқариш учун уларнинг ривожланишига ижобий ёки салбий таъсир кўрсатадиган омилларни аниқлаш жараёни тушунилади. Унда олим қуйидаги асосли жиҳатларни аниқлайди: таққослаш; таҳлил қилиш; прогнозлаш; изоҳлаш; диагностика натижалари ҳақида хабардор қилиш; диагностика обьектига турли диагностика усулларининг таъсирини кузатиш.

Шундай қилиб, муваллифнинг фикрича, педагогик диагностикада биз, биринчи навбатда, кузатилаётган хулқ-авторни, шу шахснинг олдинги хатти-ҳаракати билан, бошқашахсларнинг хатти-ҳаракати, айрим шахснинг хатти-ҳаракати тавсифи билан ёки стандарт хулқ-автор тавсифи билан таққослаймиз. Бошқа вазиятларда ёки келажакда олдиндан оғиш сабабини аниқлаш учун таҳлил каталог яратиш ва мавжуд маълумотларни баҳолашдан кейин муайян баҳолаш учун талқин қиласиз. Ва ниҳоят, биз бошқаларга уларнинг хатти-ҳаракатларини баҳолашимиз керак, чунки ҳисобот ёрдамида келажакда уларнинг хатти-ҳаракатларига таъсир қилишни истаймиз. Кундалик ҳаётда биз буларнинг барчасини ўйламасдан қиласиз, лекин педагогик диагностикада биз профессионал тарзда ҳаракат қилишимиз шарт.

Илмий диагностикада юзаки, кузатиладиган белгилар ва диагностик хulosага ўтиш, тадқиқотчи, диагностик вазифага мос равишда танлаган ёки ишлаб чиқсан махсус усуллардан фойдаланишини талаб қилади. Тадқиқот усуллари тизими тадқиқотчининг дастлабки тушунчаси, ўрганилаётган умумий методологик йўналишнинг моҳияти ва тузилиши ҳақидаги ғоялари, муайян тадқиқотнинг мақсад ва вазифалари билан белгиланади.

Диагностик усуллар деганда, диагностик ахборотларни тўплаш ва бу ахборотлар билан янада қўпроқ ишлаш йўллари, усуллари, тартиблари тушунилади. Педагогик диагностика усулларини таснифлашда турли хил ёндашувлар мавжуд.

Психологик ва педагогик тадқиқотларда қўлланиладиган умумий илмий усуллар қуйидаги усуллар гурухларини ўз ичига олади: эмпирик (тажриба, кузатиш, тавсиф) ва назарий (таҳлил, синтез, абстракция, умумлаштириш, тушунтириш, индукция, дедукция, таснифлаш, тизимлаштириш ва бошқалар) тадқиқот усуллари. Диагностик ахборот тўплашнинг баъзи усуллари маълум воситалар (тестлар, сўровномалар) дан фойдаланишини талаб қилади, лекин бундай талаб қилмайдиган усуллар ҳам мавжуд, масалан, кузатиш усули.

Когнитив қизиқиши мавжудлиги, когнитив мустақиллик даражаси, мустақил иш кўнималарини шакллантириш даражаси, когнитив фаолиятда мустақиллик даражаси ва иккинчисини амалга ошириш учун мотивация ҳақида асосий маълумотларни тўплаш учун



биз тизимли - мунтазам усулни қўлладик. Киритилган кузатиш усул-кичик гуруҳларда кечадиган психолого-педагогик жараёнларни илмий тадқиқ этиш методи. Тадқиқотнинг бу усули билан биз ўзимиз кузатаётган жараёнларнинг ҳам ташқарида, ҳам ичкарида иштирок этдик, шунинг учун биз муайян ижтимоий вазиятда иштирок этдик ва воқеаларни ичкаридан таҳлил қилдик.

Сўровнома - тадқиқотда қўлланилган педагогик диагностиканинг навбатдаги методи бўлди. Сўровномалар ёрдамида респондентлар сўрови асосида ўрганилган маълумотларни тўплаш усулидир.

Кузатиш давомида олинган бирламчи маълумотлар натижалари асосида социологик тадқиқот усулини танладик, у социологик сўров ва эксперт баҳолаш усулини ўз ичига олади. Биз томондан ишлаб чиқилган сўровномада талабалар гуруҳларига киритилган сўровини ўтказдик, бу эса, фикримизча, саволларимизга ишончли жавоб олиш имконини берди.

Сўровномани тузишда биз адабиётларда баён этилган қурилишнинг асосий тамойилларига таяндиц..

**Биринчи тамойил**- сўровнома талабалар ва ўқитувчилар томонидан мустақил равишда тўлдирилади, шунинг учун унинг дизайнни ва барча изоҳлар респондентларга жуда аниқ бўлиши керак.

**Учинчи тамойил**-маданиятнинг ўзига хос хусусиятларини, сўралган аудиториянинг амалий тажрибасини ҳисобга олиш.

**Тўртинчи тамойил** - сўровномада бир хил саволлардан турли кетма-кетлиқда фойдаланиш, ҳар хил маълумот бериш.

**Бешинчи тамойил** сўровноманинг семантик "блоклари" тахминан бир хил ҳажмда бўлиши керак.

**Олтинчи тамойил** - саволлар оддийдан мураккабга қийинлик даражасига қараб тақсимланиши керак.

Сўровномада турли мутахассислар бўйича таҳсил олаётган 300 нафар талаба иштирок етади.

### Фойдаланилган адабиётлар:

1. Л.С.Выготский, И.Д. Никулин, Социологнинг иш китоби, 342 б
2. И.Л.Бим, Теория и практика обучения иностранным языкам: традиции и инновации, 344 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Т.: Давлат илмий нашриёти, 1-том. 2001. 400-бет.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - М.: Рус тили, 1-том. 1981. 173- б
5. Я.А.Коменский “Буюк дидактика”
6. Ал-Бухорий, Абу Аллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ал-адабал-муфад (Араб дурданалари). Тарж.,муқад. ва изоҳлар муаллифи Ш.Бобохонов. – Т.: Ўзбекистон, 1990. – 199 б. – 160 б.



## ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

**Холбоева Барно**

Учитель Кошкопирский район СГОШ № 5.

Телефон: +998 (97) 442 33 38

xolboyeva.barno\_5scool@mail.ru

**Жуманиязова Санобар Кадамовна**

Учитель Кошкопирский район СГОШ № 5.

Телефон: +998 (98) 198 28 26

sanobariyukadamovna\_2826@mail.ru

**Аннотация:** Изучение государственного языка и языка межнационального общения, русского языка, занимает в нашей республике одно из важнейших мест, в том числе и в воспитании патриотизма и интернационализма, толерантности, культуры. И культура понимается как традиции, язык, культ, общность, социальность, система ценностей.

**Ключевые слова:** Современные технологии, инновация, образования, родной язык , методы обучения, грамматика, русская речь

В настоящее время в Республике Узбекистан определены стратегические приоритеты в развитии образования для формирования национальной модели многоуровневого непрерывного образования, интегрированной в мировое пространство и удовлетворяющей потребности личности и общества.

Одно из образовательных требований, характерных для нашего времени - это понимание и принятие чужой культуры, чужого мнения, т.е. осознание принадлежности к мировому сообществу. В этом отношении для повышения эффективности образования изучения узбекского, русского и английского языков имеет важное значение.

Огромное количество людей в мире по своей деятельности сотрудничает с носителями других языков и нуждается в свободном владении языками. Это связано с необходимостью взаимодействия людей в эпоху глобализации. Осознание того и что свободное владение языком возможно только при условии формирования и развития навыков по основным видам речевой деятельности, можно считать достижением методической науки. Общение базируется на теории речевой деятельности. Коммуникативное обучение языку носит деятельностный характер.

При изучении второго языка в первую очередь требуется овладение его звуковой стороной. Между тем на практике часто бывает так, что учащиеся, изучающие другой язык, либо пользуются фонетической системой родного языка, либо стараются усвоить звуковую систему изучаемого языка. При этом большие они испытывают затруднения в практике ее конкретного применения, что приводит к нарушению не только нормативного, но и зачастую коммуникативного аспекта неродного языка. Современная цель обучения русскому языку – формирование коммуникативной компетентности, представленной языковым, речевым и учебно-познавательным компонентами.

Инновационные технологии играют большую роль в обучении русскому языку. Их разработка тесно связана с появлением новых подходов к изучению языков. В настоящее время многие учителя пользуются современными технологиями. Инновационные подходы делают уроки русского языка подробнее, интереснее и ярче. Самостоятельный поиск решения, активная мыслительная деятельность учеников способствуют повышению эффективности учебного процесса. Правильная организация уроков с использованием инновационных технологий требует, чтобы каждый ребенок был занят решением посильной для него задачи, так как при этом условии можно поддержать у него интерес к учению. Современные методы занимают особое место и в педагогической деятельности учителя.

Преподавание русского языка в начальных классах узбекской школы предполагает формирование у учащихся навыков, позволяющих им понимать на слух элементарную русскую речь, свободно воспроизводить ее простейшие образцы, общаться в пределах учебной сферы. Основу такого общения составляют коммуникативные умения: лишь научив ребенка говорить (реальное общение), слушать, читать и писать на русском языке (в определенных рамках), можно добиться качественного достижения основной цели обучения.



Необходимо прививать школьникам не только практические умения, но и формировать у них определенные качества личности: общительность, раскованность, желание вступать в контакт, умение взаимодействовать в коллективе. Современные цели обучения языкам заключаются в формировании у детей умения общаться в реальных ситуациях. Это и есть коммуникативная компетентность и умение вести межкультурный диалог.

Использование инновационных технологий на занятиях в наших школах показало, что меняется отношение учеников к предмету, ребята не боятся проявлять свою инициативу в решении предлагаемых заданий, высказывать свое собственное мнение, стремятся овладеть программным материалом на более высоком уровне, чтобы справиться с заданиями. Считаю, что использование мою инновационных технологий на уроках русского языка в школе в дальнейшем будет позволять моим ученикам не только получать новые знания, создавать речевые произведения различных жанров, но и чувствовать собственную ответственность за конечный результат - стать языковой личностью.

### **Список литературы:**

1. Косериу Э. Синхрония, диахрония и история. Новое в лингвистике. Вып. 3. - М., 1963. - С. 174.
2. Карлинский А.Е. Основы теории взаимодействия языков. - Алма-Ата, 1990. - С. 39. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма). - М., 1069. - С. 51. Васильев С.Т. Разноязычные (смешанная речь) и типологии билингвизма личности / докт. дис. - М., 2000. - С. 246.



## YOSHLARGA EKOLOGIK BILIM BERISHNING DOLZARBLIGI

Sh.M.Kenjayev

Xorazm viloyati PYMO’MM

“Amaliy fanlar va mактабдан ташқари та’лим  
методикаси кадедраси” мудири

**Annotatiya:** Ushbu maqolada umumta’lim maktabalarida o’quvchilarga ekologik bilim berishning dolzarbligi fikrlar keltirilgan

**Tayanch so‘zlar:** Ekologik bilim, ekologik madaniyat, ekologik bilim, ekologik ofat, tabiiy muhit, tabiatni muhofaza qilish, tirik organizm, tabiatning ekologik qonunlari.

Tarixdan bizga ma’lumki, Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyatini o’zida mujassamlashtirgan birinchi yozma yodgorlik manbai bo’lgan zardushtiylarning “Avesto” kitobida, atrof-tabiiy muhitning sofligiga qarab, insonlarning 800 yildan 1400 yilgacha umr ko’rganliklari bayon etiladi. “Avesto”ning “Vandidot” qismida suv va yerdan foydalanish, unda jinoyat va jazo, mol-mulk bilan bog‘liq masalalarni tartibga solib turuvchi qoidalar bitilgan. “Vandidot”ning 13-14 - boblarida har kuni kishilar ekinlarni ikki marotaba sug‘orishlari mumkinligi. Lekin, sug‘orish, suvining miqdori bir belkurak kengligidagi va chuqurligidagi ariq, orqali amalga oshirishga xaqli ekanliklari bayon etilgan. “Navro’z bayramida esa Sharq xalqlarining urf-odatlariga ko’ra, xar bir inson “yangi yil” munosabati bilan yerga ko’chat qadashi va urug‘ sepishi orqali tabiatni obodonlashtirishi, ariq, zovur, o’rmon va dalalarni tozalashi kerak bo’lgan.

Bunday holat har bir kishining majburiyatiga aylantirilgan va jamoatchilik oldidagi javobgarligi hisoblangan. Tabiat cheksiz, tabiiy boyliklari bitmas–tuganmas degan ibtidoiy tasavvurlarga chek qo’yish, kishining madaniyat darajasini, intellektual bilim saviyasini uning tabiatga bo’lgan munosabati bilan o’lchaydigan davr keldi. Nabotot va hayvonot dunyosini ehtirot qilish, har bir gul yoki novdani uzishdan, yoki hayvonga o’q uzishdan oldin shu hatti harakat to’g‘risida o’ylab ko’rish, o’z hovlisini va shahar havosini iflos qilib, axlat yoqayotgan kishiga befarq qaramaslik tabiatni muhofaza qilishning tarkibiy qismidir.

Ekologiya tirik organizmlarning yashash sharoiti va ularning o’zi yashab turgan muhit bilan o’zaro murakkab munosabatlari, hamda shu asosda vujudga keladigan qonuniyatlarni o’rganadi. Ya‘ni tirik mavjudot va uning ma’lum hududiga mos keladigan muhitlaridan iborat tizimlar tabiatini tadqiq etadi. Bu esa ekologik tizimlar yoki ekotizimlar deb ataladi.

Tabiatning ekologik holatini buzilishi–tuproq, havo va suvning tiriklik uchun zararli moddalar bilan ifloslanishi, zaharlanishi, o’simlik va hayvonlarning foydali turlarini kamayib ketishi, tabiiy landshaftlarning tez o’zgarishi, yangi qishloq va shaharlarning paydo bo’lishi, aholi sonining ko’payishi, energiya, suv va oziq-ovqatga bo’lgan talabning o’sishi natijasida rivojlanish markazlarining tabiat ichkarisiga – o’zlashtirilmagan joylariga kirib borishi insonning yashash muhitini tubdan o’zgarishiga sabab bo’lmoqda. Shu sababli atrof-muhitni muhofaza qilish bu bir kichik mintaqaning emas, balki katta bir qit‘aning, undagi xalqlarning, davlatlarning halqaro muammosiga aylanib qolmoqda.

Dunyoning turli joylarida yuzaga kelgan ekologik ofatlar yil sayin ko’payib bormoqda. Insonlar tabiatga tuzatib bo’lmaydigan zarar etkazmoqdalar, tabarruk tuproq, zilol suvlar va musaffo havo zaharlanmoqda, ifloslanmoqda, o’simlik turlari va hayvonlar zotining kamayishiga sabab bo’lmoqda, turli kasalliliklar kelib chiqmoqda. Agar biz tabiat qo’ynida tinch va sog‘lom yashashni xohlasak, tabiat qonunlarini o’rganishimiz, o’zlashtirishimiz va ular asosida o’z hayot faoliyatimizni, ish rejalarimizni, dasturlarimizni tuzishimiz kerak bo’ladi. Aks holda, bizning barcha harakatlarimiz bexuda ketadi. Tabiatning ekologik qonunlarini, organizmlarning bir-birlari va ularning atrof-muhit bilan doimiy munosabatlarini chuqur o’rganib etgandan keyingina biz tabiatni muhofaza qilishga tayyor bo’la olamiz. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish shu kunning eng muhim ekologik muammosi hisoblanadi va bu muammo 8 mld. aholi hamda ular yashayotgan davlatlar manfaatini o’z ichiga qamrab oladi. Bu muammo yer yuzidagi jonzotlar, shu jumladan, eng avvalo insonlar salomatligini saqlashni ko’zda tutadi. Fantexnikaning rivojlanishi jamiyatga misli ko’rilmagan yutuqlar keltirish bilan bir qatorda, jamiyat bilan tabiat o’rtasidagi munosabatlarning keskinlashishiga, ekologik holatning yomonlashishiga, tabiiy resurslarning isrof bo’lishiga, suv, havo, tuproqning ifloslanishiga, zaharlanishiga, o’simlik



va hayvonlarning kamayib ketishiga, katta-kichik ekotizimlarning, ularning biotik birliklari bo’lmish biomlarning parchalanishiga, buzilishiga olib keldi. Yer yuzining turli mintaqalarida vujudga kelgan ekologik muammolar “Ekologik tanglik”, hattoki, “Ekologik halokat” kabi tushunchalarni keltirib chiqardi.

Ma’lumki, keyingi 80 yil davomida fan va texnika keskin rivojlandi, sanoat, transport, qurilish, energetika tarmoqlari tez sur’atlar bilan o’sdi, tabiiy boyliklar (neft va gaz, ko’mir, rangli metallar) dan haddan tashqari ko’p foydalanildi, quriq yerlar, yaylovlar, to’qayzorlar, botqoqliklar o’zlashtirildi, sanoatda va qishloq xo’jaligi tarmoqlarida turli zaharli kimyoviy moddalardan qo’llanib kelindi. Natijada tabiiy muhitda ekologik muvozanat buzildi, tuproq, suv va atmosfera havosining tabiiy tarkibi o’zgaradi, turli ifloslanishlar paydo bo’ldi. Bular nafaqat iqtisodiy – ijtimoiy tangliklarni, balki ekologik tangliklarni kelib chiqishiga asosiy sabab bo’ldi va tabiiy boyliklarni kun sayin kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari, ba’zi-bir mintaqalarda suv muammolarining kelib chiqishi (masalan, Orol dengizining qurib borishi), o’simlik va hayvon turlarining qirilib ketishiga sabab bo’ldi. Agar XVII - XVIII asrlarda hammasi bo’lib o’simlik va hayvonlarning 32 turlari yo’qolib ketgan bo’lsa, hozirga kelib 235 hayvonot turlari va 400 dan ortiq o’simlik turlari yo’qolib ketdi.

Inson – Yer kurrasining jonli qobig‘i – biosferada yashovchi tirik organizmlar turkumiga kiruvchi, lekin murakkab hayotiy faoliyat yurgizuvchi individdir. Inson ongingin yuqoriligi, nutqining rivojlanganligi, ijodiy faolligi, takomillashgan mehnat qurollarini yarata olishi, axloqiy, ma’naviy hamda ruhiy o’z-o’zini anglay olishi bilan boshqa tirik organizmlardan tubdan ajralib turadi. Insonlarning muayyan bir hududda tarixan qaror topgan guruhi yoki majmui – jamiyatdir. Xuddi ana shu insonlar jamoasi tabiat bilan juda uzviy munosabatda bog’ladilar. Insonning yakka o’zi uncha katta kuch emas, lekin insonlarning ongli ravishda biron-bir maqsadlarni ko’zlab takomillashtirilgan mehnat qurollaridan foydalangan tarzda uyushishi va ularni tabiatga bo’lgan munosabati ko’p narsani belgilab beradi. Agarda ushbu maqsad insonlarning ehtiyojlarini qondirishni faqatgina tabiatdan “topishga” yo’naltirsa, unda atrof tabiiy muhitda juda sezilarli darajada salbiy o’zgarishlar sodir bo’ladi. Aksincha, ushbu jamiyat maqsadi tabiatdan oqilona foydalinishga qaratilsa, unda tabiatda ijobiy siljishlar ham bo’lishi mumkin

Fan va texnika yuksak darajada rivojlangan hozirgi davrda inson va tabiat o’rtasidagi munosabatlar, ayniqsa ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalinish masalalari o’ta muhim, kechiktirib bo’lmaydigan va o’z yechimini kutayotgan muammoga aylanib bormoqda. Tabiatni muhofaza qilish deganda, inson manfaatlarini ko’zlab, tabiatdan oqilona foydalinish, uni saqlash, qo’riqlash va tabiiy boyliklarini ko’paytirish yo’lida amalga oshirilayotgan tadbirlarning ilmiy asoslangan majmuasi tushuniladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev, Ekologiya. Toshkent-2020.
2. N. I. Ibragimov va boshqalar. Ekologiya. O’quv qo’llanma.Toshkent- 2007.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.09.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000